

O'n ikkinchi bob

I

Vaqt xuftonga yaqin edi. Yo'lchining taqachi oshnasi Qoratoy och qornini bemaza moshxo'rdaga to'ldirib, to'qqiz yog'ochli sovuq uyda, tanchada, ko'zlarini xira chiroqqa tikib xomush o'tirar edi. Uning oyoq yalang, yarim yalang'och sho'x bolalari bir-birini ot qilib minib, kishnatib, eski namatlarning changini burqitib, har kungi kabi, shovqin-suron bilan o'yashar edi.

Qizg'in tabiatli temirchining yuragi shu kunlarda har soat yangi bir o'y, mulohaza bilan hovliqar, ishida ham biron tartib qolmagan edi. U boyning uyida kechgan voqealardan xabardor bo'lib turishi uchun, Shokir otaning kampirini tayinlagan. Pishiq, so'zamol kampir har xil bahona topib, kunda bir-ikki marta boynikiga kirar, kelinlarni o'smoqchilab gapga solar, eshitganlarini eriga so'zlar, chol esa darrov Qoratoya yetkazar edi. Shunday bo'lsa-da, nikohning qachon bo'lismi aniqlay olmagan edi. Ammo buning singari to'y-nikohlarning "eng ichida", birov bilib, birov bilmaydigan bir yo'sinda bo'lishiga ishongani uchun, tashvishi zo'rayar, hovliqar edi. Mabodo tez orada nikoh bo'lishini eshitsa, o'z xotini orqali qizning ra'yini bilib, uni Yo'lchi qishlog'iga, yo boshqa tomonga olib qochish yo'llarini ham o'ylab qo'yan. Ammo, Yo'lchining qandaydir bir temirchi o'rtog'ining so'ziga (garchi bu so'z qancha samimi va to'g'ri bo'lmasin) qizning ishonch hosil qilishiga shubhalanganidan, u tadbirdan voz kecharak, ertaga qishloqqa jo'nab, o'z do'stini ildam olib kelishni mulohaza qilar ekan, hovlidan kirgan xotini:

- Eshik taqilladi, chiqing, - dedi.

U Yo'lchini boshlab kirdi. Yigitni hovlida qoldirib, xotiniga ayvonda oltirishga buyurdi, bolalarini tinchlatib, keyin Yo'lchini chaqirdi. Yo'lchi tanchaning ikki tomonidan ko'zlarini javdiratib qaragan go'daklar qatoriga o'tirdi. Uning gavdasiga, yelkalariga, jasur boqishlariga bolalar hayrat va qiziqish bilan uzoq tikilar, besh yashar Turg'unboy shirin go'dak tilida:

- Siz zo'rmi, dadam zo'rmi? B'T"dedi-da, uyalib boshini tancha ko'rpasiga yashirdi.

- Dadang zo'r, jiyan, - Yo'lchi kula-kula bolaning yelkasiga qoqdi.

Qoratoy qishloq ahvoli, Yo'lchining ukalari va hokazi to'g'risida so'zlashib, tanchadan choy oldi, dasturxon yozib, arpa unidan yasalgan toshday qattiq ikkita non qo'yi. U Yo'lchining hozirgina qishloqdan qaytib, singlisini ho'jayinnikiga qo'yib, bu yerga hangamalashish uchun kelganini bilgach, yigitning ko'nglini parishon qilishga botinmay, ancha vaqtgacha qiyaldi. Lekin, voqeani aytmaslikning iloji yo'q edi. "O'ziga tashlab qo'ysam, bu ishdan balki mutlaqo xabarsiz qolar, ertaga dalagami, yo boshqa ishgami jo'natilar. Bunday bo'lmasan taqdirda, baribir, bu kun bo'lmasa erta bildirishga to'g'ri keladi-ku", deb o'yładi temirchi.

U katta o'g'lini imo bilan onasining yoniga, ayvonga chiqardi. Kichiklari esa tancha atrofida birin-sirin cho'zilishib uxlاب qolishdi. Faqat, bittasigina qora ko'zlariga kirgan uyquni kipriklari bilan quvmoqda edi.

- Uka, - Yo'lchiga qarab dedi temirchi, - seni kuta-kuta esim ketdi. ertaga qishlog'ingga jo'namoqchi edim. Yaxshiki o'zing yetib kelding...

- O'n kun ichida shuncha sog'indingizmi, yo boshqa bir...

- Sog'indim, - Yo'lchining so'zini kesdi Qoratoy, so'ng mushtini kursiga tirab gapirdi, - keyin, oz-moz chatoqlik chiqdi. Senga tegishli, ammo... sen temirday chidamli yigitsan, bu chatoqlikka bardosh berasan-da. Boshida chaqilgan chaqmoqqa bardosh beradigan yigitni rosa yigit deyman.

- Ko'ramiz, qanday chatoqlik ekan, - jiddiylik bilan javob berdi Yo'lchi.

Qoratoy bir oz o'ylanib, boshi qizigan kabi, do'ppisini kursiga olib qo'yi va unga zo'r diqqat bilan tikilgan yigitga so'zlab ketdi.

- San, oti nima, Gulnorni sevasan, a? U ham sani sevadi. Shundaymi? Misoli Tohir-Zuhro... Qarabsanki, qizil bilan oq gul o'rtasidan chaqirtikanak o'sib chiqyapti. Tushunib olaver o'zing!.. Temirchi g'amgin holda boshini quyi tushirdi, bir nafasdan so'ng ko'z uchi bilan yigitga qaradi. Yo'lchi avvalgi vaziyatda bo'lsa ham, qo'lidagi piyola dir-dir titrar edi.

- Dadil bo'!- birdan qichqirdi Qoratoy.

- Aniqmi? B'T"Yo'lchining ovoei, qandaydir, g'ayritabiiy bo'g'iq chiqdi.

- Aniq.

Yo'lchi peshanasini qo'li bilan qisib, yerga qaragancha, sekin so'radi:

- Kim ekan u? Tushuntiring.

- Boy tog'ang uylanmoqchi! B'T"Qoratoy o'zini tutolmadi, boy ni so'kib og'zidan bodi kirib, shodi chiqqa boshdadi.

Yo'lchi egildi, ko'zlarida allaqanday g'azab chaqnadi, yuzining go'shtlari tirishdi. Ikki qoshi o'rtasidan bosh tomonga tik ketgan tomir o'rtal barmoq yo'g'onligida bo'rtib chiqdi.

- Zulm, xo'rланish, haqarat shunchalik bo'lar, Qoratoy aka! Bundan ortig'ini kallam sig'dirmaydi, - G'azabdan titrab gapirdi Yo'lchi, - Gulnorni sevishimni bilardi-ya, pes chol...

- Bilarmini? B'T"Yo'lchining so'zini kesdi hayratlanib Qoratoy.

- Bilar edi, - dedi Yo'lchi, - bu yoz paxtani ko'rish uchun xo'jayin chiqib bordi. Dalani aylantirdim. Ko'radi-ki, hosil juda mo'l. Har tupda ko'saklar marjonday... Juda xursand bo'lidi. Yelkamni qoqdi: Yormat ham mani maqtadi, Keyin xizmatkorlar, mardikorlar bilan birga o'tirib choy ichdi. Qiziq gaplar bilan hammani kuldirdi. Tulkiday quv emasmi? Hushi kelganda, xizmatkorlar bilan askiya ham qilib qo'yadi u. Menga hazillashdi: "Yo'lchi, dedi, atrofingda qozoqlar ko'paydi, qizlardan birini tanla, o'lanini eshitib ishlayverasan" dedi. Men dedim: "O'z sevganim bor ekan, atrofga ko'z olaytiramanmi?.." Ko'zim bilan darrov Yormatni ishorat qildim. Boy tez fahmladi-da, "shundaymi, jiyan" deb kuldi. Mana bu bir. Kuz paytida kechqurun Gulnor bilan bog'ning bir chekkasida so'zlashib o'tirganimni ham ko'rib qolgandi. Biladi u it. Tavba, uning bu ahmoqchiligi tushimga ham kirmagan edi. Kallasini olmaday uchirsang...

- U juda insofsiz boy, - dedi temirchi, - ammo, surishtirsang, hamma boy bir tekisda insofsiz. To'g'ri odam boy bo'lmaydi shekilli, man o'zim shu fikrdaman.

- Dunyosi bor, bular odam! Aslida hammasi bir chaqaga arzimaydi! - dedi-da, Yo'lchi jahl bilan o'rnidan turdi.

- Shoshma, - Yo'lchining qo'lidan ushladi Qoratoy, - endi nima qilasan? Harakatingni qil, man san bilan...

- Albatta, - mushtini siqib dedi Yo'lchi, - Gulorning ko'nglidan shubham yo'q. Lekin, kim biladi, ota-onha siqig'i ostida balki ko'nikkandir.

- Nima qilasan, ayt! - sabrsizlandi Qoratoy.

- Gulnor nima o'ylaydi, buni bilish kerak. Shunga qarab... lekin qanday gaplashaman, yo qanday qilib fikrini bilaman, jilla bo'lmasa! B'T"og'ir xo'rsindi Yo'lchi.

- Bu ma'qul... - O'ylab, jiddiy ravishda gapirdi Qoratoy, - san bunday qil, hozir borib yot, charchagansan, vaqt ham alla-palla bo'lib goldi. ertaga singlingni Yormatnikiga kirdiz. Sani yaxshi ko'rgan qiz, singlingga ham yaxshi muomala qilsa kerak. Singling qiz

dilini bilib chiqsnn. Xo'p desa, til biriktirib, bir kechada ura qochasanlar! Agar qiz mujmal javob bersa, u vaqt qo'lingni siltaysanda, yuraverasan!

Yo'lchi indamadi. Piyolada sovib qolgan choyni simirib, uydan chiqar ekan, peshanasini eshik tepasiga qattiq urib oldi.

- Hovliqma, zimdan ish yurgiz! **B**"sekingina so'zlab, hovlida qoldi Qoratoy.

Kechaning tim qorasida yulduzlar yorqin yonadi. Hamma yoq jumit. Tunsovug'i bilan qotgan loy oyoq ostida siniq shisha parchasi kabi, qirs-qirs ushaladi. Yo'lchi qorong'i kechada borar ekan, butun g'aribligini, yuragidagi qayg'u girdobining butun og'irligini yana chuqurroq tuydi. Go'yo, hamma baxtsizlarning, hamma ezilganlar va tahqir etilganlarning chiroyli xayolga, orzuga yeta olmagan, yurak qoni, ko'z nurlari bilan undirgan chuqur muhabbatning gullarini uzolmagan hamma g'arib, qashshoq yigitlarning muqaddas g'azabi uning ko'ksida to'plangandek bo'lidi. Yo'lchini dahshatli bir kuch egalladi: insofga, adolatga, haqiqatga yot bo'lgan bu hayotni, zamonni, hamma narsani oyoqlari ostida ezsa, yiqitib yoqsa!

Vaqt-soat o'n ikkiga yaqinlashgan. Boynikiga, xizmatkorxonaga borishni istamadi. Umuman Mirzakarimboy uyi Yo'lchi uchun turmadan xunukroq ko'rindi. Uch qish qishlagan u xizmatkorxona, u chirik namat, chirik ko'rpa, u siniq choynak, u bemaza ovqat, u sovuq, u lax - chirik havo yolg'izgina Gulnorning xayoli, unga erishuvning iliq umidi bilan bezalgani uchun, Yo'lchiga shiringina sezilar edi... Endi-chi!

Yo'lchi machitning jilovxonasi dagi supachaga o'zini tashladi. Boshini qo'llari orasiga olib, Gulnor xayoli, ishq iztirobi bidan yonib o'tirdi. Bir ozdan so'ng, yana birdan o'rnidan turdi. Uning yuragi Gulnor uyiga intildi. Ko'z yoshli, uyqusiz ingragan qizni o'z bag'riga qamagan u uyni ko'rish, devorlarini o'pishni istadi. Jilovxonadan chiqib, bir necha odim yurgach, qarshidan, qorong'ilik ichidan keskin, hayajonli tovush eshitildi:- "Kim?"

Yo'lchi cho'chib uyg'ongan kishi kabi, ko'zlarini katta ochdi.

- Man, Yo'lchi,- yigit to'xtadi.

- Qachon kelding? Bu qanday gap?- hayajon bilan so'zladi Yormat va Yo'lchiga jips to'qnashib, shubhali tikildi.

- Shom vaqtida keldim,- dedi Yo'lchi,- nega muncha hovliqasiz, nega muncha tashvish?..

- Yurishing bejo... Naq ko'rasan,- dag'allik bilan bo'g'ilib gapirdi Yormat, so'ng "uh" tortib, ko'zlar qorong'ilikdan kimnidir qidirdi.

- Yormat aka, mandan nimani yashirasiz? Qiynamang kishini...- Yo'lchi yalindi. Yormatning sovuq, qaltiroq qo'llarini ushladi.

- Esimni yo'qotdim. Xudoy urdi mani! Yo'lchi, rost ayt, hech kim ko'rinnadimi? San o'zing nima qilib yuribsan? Qo'limni qo'y...

Yo'lchining gumoni ortdi. Yormatni quchoqlab, hayajon bilan so'radi:

- Nimaga dovdiraysiz? Aytning hozir!

Yormat taraddudlanib, so'ng yig'i aralash pitirladi:

- Qizim yo'q.

- Qachon? Nimaga?- Yo'lchi seskanib, ikki qadam orqaga chekindi.

- Man Salimjonni... yo'q, eh... Hakimboyvachchani vokzalga olib chiqdim. Farg'onaga jo'natdim. Bir soat burun uyg'a kelsam, hech kim yo'q. Eshik lang ochiq. Hayron bo'ldim. Bir ozdan keyin Gulsum opang chiqdi. U xo'jayinnikida yumushda ekan. Qizing qani, dedim. "Uyda edi, qayoqqa boradi", dedi. U yoqni qaradik, bu yoqni qaradik - yo'q. Shu qorong'ida qayoqqa boradi? Yo'lchi, rost gapir, san... bilmaysan, a?

- Bu qanday bo'hton!- zarda bilan qichqirdi Yo'lchi.

- G'azablanma, hazil gap emas. Yolg'iz qizim-a. Qayoqqa yo'qoladi!

- Bu qanday bo'hton,- Yo'lchi machitning temir panjarasiga suyalib, go'yo qotib qoldi. Yormat Yo'lchining yeng uchidan tortib siltadi va uning qulog'iga og'zini qo'yib dedi

- Zinhor og'zingdan chiqarma, qattiq xafa bo'laman.- Yo'lchi tilsim kabi, g'ayri shuuriy ravishda boshini chayqadi va avvalgi vaziyatda qotdi...

Yormat qorong'ida yiqilib-surilib birpasda ellik boshining uyiga keldi. Mushtumi bilam darvozani qattiq va asabiy ravishda ura boshladi. Zarbdan og'riq suyaklariga o'tguncha urdi. Hovli ichkariroq bo'lganidan, hamma uxbab qolganidan, darvozaning og'ir gumburiga ichkaridan hech kim chiqmadi. Yormat sovuq loy va qatqaloqlarni qorong'ida qo'llari bilan timirskilab, nihoyat, bir tosh topdi, bu bilan darvozani qattiq uraverdi. Bir necha minutdan so'ng, darvozaning tirkishlaridan shu'la siljidi. Yormat uh tortib, yeng uchi bilan peshana terini artdi. Ellik boshi uyquli tovush bilan "kim" deb qichqirib javob olgandan keyin, zanjirni "shaq" etib tushirdi, darvozaning bir tavaqasi qiya ochildi. Yormat yo'lakka kirdi. Ellik boshi yelkasiga tashlab chiqqan uzun, vazmin po'stinining ikki arayishini bir qo'li bilan tutib, ikkinchi qo'li bilan shishasiz, tutovchi kir lampani qiyshiq ushlagan holda, mudroq ko'zlariri Yormatga tikib sasidi.

- Bu nima shovqin? Yarim kechada...

Yormat uzr so'rigan kabi, loyli qo'llarini qovishtirib birdan yig'lab yubordi.

- Sho'rim qaynadi. Olimxon aka, nimasini so'raysiz. Qizim yo'qoldi. Qayoqqa uchdi, bilmayman...

- A?- Olimxonning ko'zlar ochildi. - Gapir-chi, qanday qilib yo'qoladi?..

Yormat hamma narsani, tartibsiz bo'lsa ham, lekin mufassal ayтиb berdi. Ellik boshi "him-him" deb ko'zlarini yerga qadab tingladi, keyin lampani Yormatga berib, po'stinga yaxshiroq o'raldi, barmoqlaridagi uzuklarini durust o'rnashtirib, Yormatdan so'radi:

- Qizing yig'lardimi, norozimidi?

- Yig'lardi. Hamma qizlar erga tegish oldida bir-bir yig'lab oladi-ku. Bibi Fotimadan qolgan meros-ku.

- Har xil yig'i bo'ladi,- jahl bilan dedi ellik boshi. Yormat yoshli ko'zlarini miltiratib, o'kinch bilan boshini tebratib turdi.

- Xo'sh, kimdan shubhalanasan?**B**"dedi ellik boshi. Yormat bu savolga qanday javob berishini bilmay, o'ylab qoldi.

- Qizingni yo birov olib qochgan, yo birov bilan til biriktirib o'zi qochgan. Kimni mo'ljallaysan?

- Juda qiyin,- dedi Yormat,- kim biladi... man dastlab Yo'lchidan shubhalangan edim. Taniysizmi, xizmatkor yigit? U qishlog'iga ketgandi, bu kun kelgan ekan. Lekin unga bir nima deyish og'ir. Keyin uyalib qolman, deyman...

- Nimasি qiyin?- O'dag'ayladi ellik boshi,- bu ishni u bajarmaganini qanday bilasan? U yo'q ekan, bugun kelipti, darrov shu voqeа yuz beribdi. San unga hech nima dema, ammo yurish-turishiga razm sol!

Yormat loyli qo'li bilan ko'z yoshini artdi, burun suvini "piq-piq" tortib gapirdi:

- Manga shunday ko'rindi. Balki, udir, kim biladi. Kishining dilini bilish o'ng'ay emas,- bir nafas to'xtab ellik boshiga yalindib **B**"

Man g'aribga yo'l ko'rsating. Kimga arz qilay, qanday qidiray? Yolg'iz qizim - ko'zim, ko'nglim hammasi u edi,- yana ko'z yoshlari soqlollariga quyula boshladi.

- Dod-voyning keragi yo'q,- dedi qat'iy ellik boshi,- bu sirni dilingga tug. Uch-to'rt kun ichida daragi chiqib qoladi. O'likmi-

tirikmi, bilarmiz. Man ham qarab turmayman. Ammo, so'z tarqalmasini, ayt, xotniing tilini qissin. Xo'jayinlardan hech biriga sir bermay, ularga bir xil so'zla: qizim o'ynab kelish uchun bir o'rtog'inikiga ketdi, vassalom. Uqdingmi? Kimda gumoning bo'lsa, uni ko'zdan qochirma, iziga tush! Jo'na, ertaga kelasan...
Qo'rqinchli xayollar, vahimalar bilan to'lgan Yormat qorong'ilikka sho'ng'idi.

Gulnorning g'oyib bo'lishi Yo'lchiga yashin urgan kabi ta'sir ko'rsatdi. U hushsizlanganday, ancha vaqtgacha qo-tib qoldi. Lekin qulqlari ostida qattiq yangragan qorovul shaqildog'i uni seskantirdi. U hazilkash qorovulning askiyalariga keskin qo'lini siltab, sekingina jo'nadi.

Yormatning eshigi har vaktdagi kabi yopiq. Hovli ichidan ham hech qanday tovush eshitilmaydi. Bu narsa Yo'lchi ko'nglini yana chuqurroq ezdi. Gap-so'z bo'lishidan qo'rqib dardini ichiga ko'mgan bu faqir oilaga achindi, uh tortdi. Gulnorning yodi, qayg'usi bilan atrofda tentirash uchun ketdi. Qizning yo'qolishini o'ylay-o'ylay, turli ehtimollardan ikkisi o'rtasida qoldi: mendan darak bo'limgach, yo men bilan uchrashuvga va bir umr topishuvga umidi uzilgach, Mirzakarimboyga tegishdan o'limni afzal bilgan. Suvgami, chuqurgami o'zini tashlash, yo biron xoli joyda o'zini bo'g'ishga qulay fursat topish uchun, o'zini tun quchog'iga otgan. Bu ehtimol uning butun borlig'ini zaharlaydi, kecha og'ushidan qo'rqinchli xayollar, foje manzaralar chiqib, atrofini qurshaydi. Ikkinchini ehtimol: Gulnorni olib qochganlar. Jinoyatchi chirkin qo'llar bor. Ular kim? Qaysi maqsad bilan bu jinoyatni bajaradilar? Buni bilmaydi, o'ylab-o'ylab tagiga yetmaidi. Ammo, bu ehtimol uning tomirlaridagi g'azabli, kinli, zolim kuchki to'lqinlatadi. U jinoyatchi qo'llar chuqur tilsim ichida... Koshki biron alomatini ko'rsatsa, ular yuzlarcha qo'l bulsin. Yo'lchi ular bilan yolg'iz kurashajak, bo'g'ishajak!..

Chuqur qayg'u, hadsiz kin bilan Yo'lchi bir necha mahallani aylanib chiqdi. Ba'zi bir kallakesar, muttaham yigitlarning joylaridan o'tarkan, har narsaga razm soldi, har tovushga diqqat bilan qulq soldi.

Kechaning sovug'i, izg'irin kuchaydi. Badani sovuqdan muz kesildi. Charmi toshday eski etik ichida oyoqlari jonsizlandi. Lekin u bir zum qo'nmasdan tentirayverdi. Bir burda sariq, sovuq oy xira nur tumani sepdi. Yo'lchi sanqib yurib, anhor yoqasida to'xtadi. Suv shuvillab, qandaydir sirli, vahimali ko'rinish bilan oqadi. Uning qoramtilr oynasiga qirg'oqdag'i yupqa muz parchalarida oyning oltin nuri yiltiraydi. Suv yoqalab o'sgan yalong'och daraxtlarning butoq-novdalarida sovuq shamol shivillaydi. Yo'lchi suvning sovuq to'lqinlariga uzoq tikildi. Boshida, to'satdan bir vahm, qo'rqinchli bir fikr uyg'ondi: "Uni o'z uyidan kim olib qochadi, nega olib qochadi? Bu juda mushkul. Gulnor shu anhorga o'zini otmaganmi?!" Anhor uzoq emas. Har kun deyarli o'zi ot sug'orishga kelgan bu anhor, hozir unga dahshatli bo'lib ko'rindi, go'yo uning qalbini, umid va orzularini bu anhor yutgan.

Yo'lchining ko'zlaridan qaynoq tomchilar yumalandi. U jinnilarcha o'z-o'zi bilan gaplashib, anhor yoqalab ancha vaqt tentiradi. Atrofidagi xo'rozlarning, muazzinlarning qichqirishlari eshitilgan choqda, temirchinig uyiga jo'nadi.

Tantiboyvachcha nonushtadan so'ng pochapostinga o'ralib ko'chaga chiqdi, bozor tomoniga qarab bir oz yurgach, bugun juma ekanini xotirladi. Salimboyvachchani uydan topish uchun qaynatasinikiga jo'nadi. Boyning mahallasiga kirarkan, qarshisidan Olimxon ellik boshi chiqdi. Ilgaridan tanish bo'lgani uchun salom-alik qilib ko'rishdi. Ellik boshi jilmayib, uning qulog'iga shivirladi:

- Boyvachcha, andak musoida qiling, qulingiz bo'lay. Nozik gap bor,- Tantiboyvachchaning qo'lidan ushlab, o'z uyi tomon sudradi. Tantiboyvachcha boloxonaga chiqishni istamadi. Olimxon darvozani yopdi, uzun yo'lak qorong'ilandi.

- Olimxon aka, eshitaylik,- dedi Tantiboyvachcha. Ellik boshi boyvachchaning yelkasiga qo'lini qo'yib sekin gapirdi:

- Biz boy otangizga Yormatning qizini olib bermoqchi edik, xabarlingiz bormi?- boyvachcha boshi bilan "ha" ishorasini qilgach, u davom etdi:**B**"Hamma ish bitganda ikki-uch kun miyonasida, yeng ichida nikoh o'qitmoqchiyidik. Lekin kechasi qiz birdan g'oyib bo'lipti. Bilmadim, ko'kka uchdimi, yer tagiga kirdimi! Bu voqeani boy otangiz bilsa, juda xafa bo'ladi!

- Yo Ollo, bu Qanday mashmasha! O'z uyida o'tirgan qiz bir kechada g'oyib bo'lsin, tavba! Juda xunuk ish, Olimxon aka.

Ellik boshi boyvachchadan ko'zini uzmashdan so'zlab ketdi:

- Hozircha, inim Mirishoq, bu so'z maxfiy qolsin. Ammo siz manga yordamlashing, qaerda bo'lmasin, qizni topishga bel bog'laylik. Sizning taxminingizcha, kalidi qaysi qo'lda bo'ladi?

Tantiboyvachcha olazarak bo'lib yelkasini qisdi va yerga qarab dedi:

- Biz avliyomizmi? Qaerda ekanini aytish juda mushkul, Bitta-yarimta xushtori bo'lsa, u bilan birga vaqt g'animatda biron shaharga qochib qoldimi. Hozirgi zamon qizlari - bari o'zboshimcha. Qadimgi boadab qizlar qayoqda deysiz.

- Bir gumonim bor, uni yolg'iz sizga aytaman,- dedi jiddiylik bilan ellik boshi.- Bilasizmi, Salimboyvachcha bu ishga qattiq norozi bo'lgan edi. Sababi ma'lum, ya'ni boy uning taklifini rad qildi. Shu xabarni boyvachchaga bildirgan vaqtimda u juda achchiqlandi, manga qarab: "Dadam shu qizga uylanmaydi, mana ko'rarsiz!" dedi. Shu narsani mulohaza qilib gumonim ortadi. Bilmadim, balki puch gumondir. Shaytonning vasvasasi-da....

- Salimboyvachchadan qilcha shubhalanmang,- qat'y ravishda dedi Tantiboyvachcha,- uning ko'ngli oq. To'g'ri, boy otam mol-mulkini hujjatlab berishdan bosh tortgandan keyin, Salim g'azablandi, bolalik qilib paqilladi. Man unga nasihat qildim. U darrov ko'nglidan gina-kuduratni olib tashladi. Boyvachchadan sira shubha qilmang, xafa bo'ladi. Xo'p, man ketdim. Olimxon aka, siz chora ko'ravering, qarab turmang. Man ham yordamlashaman. Cholni o'ksitmeylik. Xunuk ish bo'libdi. Xayr.

Tantiboyvachcha qo'lini ko'ksiga qo'yib, eshikda qolgan ellik boshi bilan xo'shishib, ildam yurib ketdi.

U boyning hovlisiga kirib, to'ppa-to'g'ri Salimning uyiga otildi. Uy ichida yolg'iz Nuri o'tirar edi. U pochchasining tagiga ko'rpaşa solib o'tqazdi va tancha yoniga cho'qqayib, akalaridan, dadasidan va hokazolardan shikoyatlandi. Tantiboyvachcha unga taskin berishga tirishdi, o'z uyiga jo'nash kerakligini, bu yerda qolsa, o'zini behuda xafa qilishini so'zladi. Nuri pochchasining so'zlariga e'tibor qilmaganday, o'rnidan turdi, tokchadan yong'oqday yumaloq bir narsa va bir talay igna olib, tik turgan holda, haligi yumaloq narsaga ignalarni sanchaverdi. Tantiboyvachcha uning harakatiga hayratlanib tikildi.

- U nima?

- Bumi?- zaharxanda qildi Nuri va "ishini" davom ettirib, tushuntirdi.- Bu Gulnorning boshi. Gulnorni miya og'riq bilan o'ldiraman! Joni ham, boshi ham metin ekan, shuncha sanchaman, Gulnorga balo organini eshitganim yo'q. Hali bir bolani chiqardim. Gulnor kasalmi, yo avvalgiday sog'mi, bilib kel, dedim. Boyga tegishiga quvonganidan, allaqanday bir o'rtog'inikiga o'ynagani ketipti... O'rtog'i kim bo'lardi, o'ziga o'xshash bir cho'ri-mo'ridir-da!

- O'ynagani g'animat! Durust,- Tantiboyvachcha labida kulgisini bazo'r yashirib dedi: - Nuri, bunday irimlardan nima foyda chiqadi? Ham eshitgan qulqoqqa yaxshi emas. Salim qayda, chaqiring.

Nuri o'z sehrini cho'ntakka solib, kimnidnr qarg'ab, eshikka chiqar ekan, Salimboyvachchaning o'zi kirib keldi. Pochchasini ko'rish bilan singlisini jo'natdi, eshikni mahkam yopib, deraza orqali hovliga ko'z tashlab, so'ng o'tirdi. Uning qovog'i soliq va harakatlarida notinchlik sezilar edi.

- Yurakni dadil qiling,- dedi Tantiboyvachcha sekinlik bilan, - "bu nima hovliqish? Bu bashara, bu yurib-turish bilan sirni oshkora qilib qo'yasiz. Ish juda soz boshlandi, endi oxirigacha silliq ketsin. Buning uchun birinchi galda dadillik kerak! Hozirdan boshlab ba'zilar sizdan gumonsirab qolipti..."

Salimboyvachchaning rangi oqarib, ko'zlar qo'rquvdan bir lahzada jonsizlandi. Titroq lablari bilan so'radi:

- Kim gumon qiladi?

- Olimxon ellik boshi... Salimboyvachchaning nafasi kesildi. Boshini ikki qo'lli orasiga olib jim qoldi.

- Uniki gumon. Qo'rwmang, Salim. Gumon boshqa, ishning ustidan chiqib, yoqa bo'g'ish boshqa,- dedi yupatib Tantiboyvachcha va Olimxon bilan mumkin qadar uchrashmaslik, tasodifan uchrashilganda, bu haqda so'z chiqqanda, g'oyat dadil bo'lish, achinish, taassuf bildirish kerakligini o'rgatdi. So'ng Salimboyvachcha o'zini bir qadar sokin va dadil tutishga harakat qildi. Eshikka va deraza orqali hovliga alanglab, kechagi sirini shivirladi:

- Mana shu yerdan qochirishda sir ochilib qolarmikan, deb juda qo'rqqan edim. Lekin juda qulay fursatda ish ko'rdik. Qiz yolg'iz. Hamma yoq jimjit, qorong'i, odamlaringiz juda chapdast ekan. Qoyil qoldim. Yulduzni benarvon uradigan yigitlar o'shalar. Ularda shoshilish yo'q. Hovliqish yo'q. Tayba! Pochcha, endi katta tahlika o'tdi. Dadamdan o'chimni oldim. Gulnorga oshifta bo'lgan chol, keyinchalik mendan xafa bo'lmasin, bizning shartimizga ko'nmadni. Men shunday o'layman. Mana jazasi, o'chimni oldim.

Pochcha, endi qizning ovozini o'chirasiz, iloji bo'lsa tezdan yo'qotasiz.- Tantiboyvachcha mo'ylovin burab, ko'zlarini bir nuqtaga tikib, bir qancha vaqt o'yaldi. Keyin sekkingina, go'yo o'z-o'ziga so'yagan kabi, dedi:

- Tirik o'diramiz-ku... bir kunmas, bir kun, axir ovozi chiqib qoladi-da!

- Sira ovozi chiqmasin!- qat'iy talab qildi Salimboyvachcha.

- Salimjon, bu ish juda qiyin, Ammo bajaraman. Shu bilan birga sizga ham bir shart qo'yaman.

- Tushunmadim, qanday shart bo'lishi mumkin? - "baqrayib so'radi Salim.

Jiddiy va qatKij javob berdi Tantiboyvachcha:

- Shart shu: bundan keyin har xususda man bilan yaktan bo'lib ishlasangiz, sizning qoshingizga bir zaruriyat yuzasidai kelsam, talabimni o'rniga qo'ysangiz... durustmi? - Tanti qo'lini uzatdi. Salimboyvachcha shartning ma'nosini darrov angladi. Noiloj uning qo'lini siqdi. Mana shu onda u o'zining butun erkini pochchasiga topshirganligini, dadasi va boshqalar oldida o'z jinoyatining ochilmasligi, sharmanda bo'lmasligi uchun, Tantiboyvachchaning har qanday talablarini, birinchi galda, albatta, aqcha talablarini so'zsiz bajarishga majburligini, qordan kutulib, yomg'irga tutilganini angladi. Bu narsani ilgari uylamagani uchun, afsus qildi. Lekin, endi o'kinishning foydasi yo'q edi. Rangi o'chgan, qaltiragan Salimboyvachcha bolalarcha yalindi:

- Siz yolg'iz pochcham emas, ham do'stim, ham otamsiz, hamma vaqt ishimiz bir.

Tantiboyvachcha mag'rur va mammun bir vaziyat oldi, labiga papiro qistirib, tezda o'rnidan turdi va Yormat tomonidan shov-shuv ko'tarilmaguncha, jim turish kerakligini Salimga uqtirib jo'nadi.

U ko'chada g'oyat mammun ham har vaqtqididan kekkayibroq yurdi, chunki u o'zini katta zafarga erishgan hisobladi.

Salimboyvachcha endi uming quli. Bundan ortiq zafar bo'lishi mumkinmi? Salim uning qopqoniga o'z xohishi bilan kirdi. Avvalgi kun kechqurun Salim uning uyiga borib, dadasidan shikoyatlandi. Chol uning shartini qabul etmaganini va buning ustiga butun mehmonxonani boshiga ko'tarib o'g'illarini so'kkanaligini so'zladи. Kayfi taraq Tantiboyvachcha Salimni yupatish uchun ichkilikni mo'l ichirdi. Salimning g'azabiga mastlik qo'shildi. Dadasidan o'ch olmoqqa tayyor ekanii bildirdi. Tantiboyvachcha Gulnorni olib qochish kerakligini mastlik dadilligi va mantiqi bilan tushuntirdi. G'azablangan Salim bir minut o'ylanmasdan bu taklifni qabul etdi. Unga qarashli ikki muttaham yigit kecha kech Salimning ko'magi bilan qizni xamirdan qil sug'urganday jimgina, qulaygina o'g'irlab chiqdi... Tantiboyvachchadan nima ketdi... "Erta-indin boyvachchadan o'n ming so'm olamanbo'bekselga qo'l qo'ysa bas. Uning imzosi - naqd pul", deb Tantiboyvachcha quvonib borarkan, nogahon ko'zi ko'chada qayqqadir ketayotgan Yormatga tushdi. Uning betini ko'rmasa ham, dardini, hasratini uning yurishidan, yelkasidan sezdi. Yuragining chekkasi chimchilanganday tuyuldi. Ixtiyorsiz ravishda ko'zlarini boshqa yoqqa burdi: "Hammadan shu kambag'alga qiyin, nafsilaqrda qiyin. O'zi chakki odam emas. Bir musofir, g'arib... Bolang ko'z oldida o'lsa yig'laysan, dodlaysan, yer bag'ri qattiq, axir ko'nikasan. U boyoqishning nuridiy dasi, yetilgan qizi birdan g'oyib bo'lsin... O'likmi, tirikmi, bir umr bilmash... Bunday yashashdan jahannam azobi ming marta yengil. Yormatning qo'lidan yetaklab, qizi oldiga to'g'ri boshlab borsam, ol qizingni, lekin, buni bir san bil, bir Ollo bilsin, boshqa hech kim, jo'na desam..." o'ylab ketdi Tantiboyvachcha. Ammo uning yuragida bu yorug' fikrni bir zumda boshqa orzu - tama qorasi bosdi, haligi uchqun yurakning qora o'pqinida darrov so'ndi. Chunki Yormatning qizi unga behisob tekin pul manbai ochgan edi. Salimboyvachchaning yelkasiga minish uchun Gulnor qurban bo'lishi kerak. Bundan tashqari, Gulnor kabi, odamlarning ta'rifiga qaraganda, chiroyl qiz bilan ko'ngil qonguncha "suhbat" qilish orzusi ham uning ko'ksini yoqdi. Gulnorni qochirish to'g'risida taklif qilganda, birinchi galda shu maqsadni ko'zlagan edi u. Savobning eshigi ko'p deydi. Bu bo'lmasa, boshqa bir eshikka kirib chiqarmiz. Masalan, machitga gilam olib berish. Bunda kishining nomi ham chiqadi, deb o'yladi-da, qadamini ildam bosib, Yormatni orqada qoldirdi. Chorsuga keldi va choyxonalarning birida chilim tortdi. Uyga qaytishni istamadi, lekin gapga borishga hali vaqt erta edi. Bir nafas anqayib, Jondor vagonchikiga jo'nadi.

Jondor vagonchi uni o'z tashqari hovlisida, imorati shu yil yozda boshlanib, qish kelishi bilan bir qismi qolgan katta hovlining mehmonxonalaridan birida kutib oldi. U baland bo'yli, peshanasi tor, o'tkir yuzli, beti ham soqoliday qop-qora kishi: kiyimlari, zamonga ko'ra bir qadar "fasonroq" edi. Tantiboyvachcha u bilan bir yildan buyon qalin do'stlashib, har hafta ulfatchilik qilishga boshlagan edi.

Jondor vagonchi ilgari boylarning yugurdagi bo'lgan, kambag'algina odam edi. Nari borsa shu ikki yil mobaynida gurillagan boylikka ega bo'ldi, yirik g'alla savdosi bilan mashg'ul bo'lgani uchun vagonchi deb ataldi. Urush vaqtida g'alla narxining tobora ko'tarilishi, xalqning nonga zor bo'lishi Jondorning boyligini va nomini kun sayin oshirdi. Uning ishlaridan yaxshi xabardor yaqin do'stlari, uni o'zaro "urushboy" deb atashar edi. Jondor vagonchi ikki yil ichida katta bog'lar sotib oldi, shaharda ichki-tashqi hovli bino qildi. Yirtiq-yamoq kiyim bilan o'sgan o'g'illari shayton arava (velosiped)da uchib, atrof mahalla bolalarining ko'zlarini o'ynatdi. Otasi kal Yodgor o'lganda, jasad to mozorga yetguncha, uchragan odamga yarim gazdan oq surp "yirtqich" ularshildi. O'ris to'ralari bilan aloqasi kuchaydi. Dongdor musulmon boylari, boyvachchalari bilan ulfat qurdi. Uning uyida har kunda bo'lmasa ham, har uch kunda bir semiz qo'y so'yilganidan imomlar, eshonlar xira pashshaday, uning dargohida aylanib qoldilar. Jondor boyning, xususan, bog' ziyoftlari, bazmlari tarifga sig'may ketdi. O'z mahallasidagi yarim qadim-yarim jadid bir maktabga

bir necha parta yasatib bergani uchun, jadidlar uni "hodim vatan va millat" deb maqtadilar. "Urushboy" fahsh ishlariha ham hammadan o'zishga tirishdi. Qo'sha-qo'sha bachcha asradi. Lekin ular ko'rinishda uning mirzasi yo gumashtasi kabi yashaydilar... Tantiboyvachcha po'stinni yechib, sandal atrofiga yoyilgan qalin atlas ko'rpachalarga o'tirdi. Tokchalarga bezak uchun terilgan qimmatbaho asboblarni tomosha qildi. Uyning to'riga, katta gilam ustiga tashlanilgan joynamoz gilam uning diqqatini jalg etdi. Uningcha, u ko'rgan bu navdag'i gilamchalar orasida Jondorniki mislsiz edi.

Jondor vagonchi shu uyga yopishgan ikkinchi bir kichik uydan patnis yasab chiqdi. Xamiri nuql qaymoqqa qorilib og'izda erib ketuvchi oppoq patir nonlarni, mehmonning e'tiroziga qaramay, ushatib tashladi. Bir laganga qazi to'g'radi. Bu kun bir necha qadrli mehmonlari kelishi kerakligini, dutor, tanbur, ashula bilan shiringina o'tirish yasamoqchi ekanini, oddiy gap-gashtakdan zerikkanini so'zlab, Tantiboyvachchaning qadamiga xursand bo'lganini bildirdi:

- Bu kun man bilan bo'lasan. Bu yerda bir bazmi jamshid yasaymiz. Bir qancha vaqtidan buyon najojatli, salla-kallali, ulamo, mudarris, a'lamlar orasida qoldim. Kelishadi, qaytara olmaysan. Juda xunob bo'ldim. Chunki ular o'lgunday ezma bo'lishadi. Shariat qilni qirqaq ayiradi, degan so'z to'g'riga o'xshaydi, do'stim. Arzimagan narsa ustida masalaxonlik qilib, bir-birlari bilan talashishadi. Qo'yaversang, xo'rozday part-part tepishmoqchi bo'lishadi. Keyin man o'ttalariga tushib, ikki tomon ham haq bo'lsa kerak, deyman. Shu bilan dahanaki jangdan qolishadi. Rosa xunob bo'lismi...

- Durust, miyang to'lipti,- dedi kulib Tantiboyvachcha,- yaqin o'ttada uncha-muncha ulamoni bir cho'qishda qochirasan.
- Ey, qo'y, - yuzini burishtirib dedi Jondor vagonchi,- ularning kun bo'yisi gapirishlaridan bitta "alif" miyamga kirmaydi. Ular nima so'zlashsa, taqsir, sizniki ma'qul deyman. Men senga rostini aytib qo'ya qolay: alhamdulillo, musulmonman. Lekin ularning ming'irlashi menga yoqmaydi... Xo'sh, nimaga ularga joy beraman, ziyofat yasayman? Shuning uchunki, birovni toshbo'ron qildiradigan ham ular, obro'sini ko'kka chiqaradigan ham ular. Uyimga kelib, tuzimni yalab, eshigimdan yaltiroq to'n kiyib chiqsalar, hammaning og'zi yumiladi. Qo'yaver bu gaplarni! Lekin, do'stim, kechga mehmonlarni jo'natib, gorodga shaboxo'n o'ramiz ikkalamiz, oyimchalardan g'alatisini topib gasht qilamiz. Qo'lingni ber, shovvoz!

Tantiboyvachcha taklifni qabul qildi. Ammo shu onda Gulnor esiga tushdi. Bu "tansiq sovg'a" bilan Jondorboy kabi do'stini nega xursand qilmasin? Jondorboy undan hech nimani ayamaydi-ku. So'ngra, sotib yeysidan boshqani bilmagan boyvachchaning shu vaqtarda ancha puturi ketgan edi. Mulklarning uchdan biri ham qolgan emas. Shuning uchun Jondorboy kabi gurillagan boylarga xushomad qilishni juda foydali topdi. Hozircha masalani yopiq qoldirib, keyincha qizini "tiriklay o'ldirish" uchun Jondorboyda bo'lgan butun vositalardan foydalamoqni mo'ljalladi. Zotan, bu yerga kelishdan maqsadi ham shu edi. Shu mulohazalarga suyalib, Gulnorga bosqinchilik qilishga Joydorboyni sherik qilmoqchi bo'ldi. Jonon piyoladagi achchiq choyni ho'plab gapirdi:

- Gorodga chiqmymiz, Jondor. Shomdan keyin man sani bir joyga olib boraman. Yayraysan!
- Og'zingdan o'rgilay, rostmi? B'T"Jondorning lab-lunji kulgidan tirjaydi.
- Rost. Itni bog'lasang, turmaydigan bir joy... Ammo parishtaday bir qiz bor.
- Og'zingdan aylanay,- tipirchilandi Jondor,- shu yerga keltiraylik, yo boshqa bir joyga eltaylik, qiz dedingizmi? Yana o'n yil yashsharo ekanmiz-da!

- Uni joyidan qo'zg'atish juda qiyin ish. Keyincha, balki oson bo'lar..
- Mayli, ipak gilamlarda, mana shunaqa uylarda maishat qilib ko'rdm. It turmaydigan joyda yaxshi qiz bilan "suhbat" qilishning ham o'zicha bir zavqi bo'ladi. Mirishoq, sanga molimni emas, jonimni qurban qilsam arziydi. Qiz dedingmi? Aysh qilar ekanmiz. Qani, oldindan bir oz no'sh qilib turaylik!

Jondorboy hovliqib, shkaf ichidan konKjyak olar ekan, uning mehmonlari kirib kelishdi. Ko'rishmasdan ilgari Jondor ularning hammasiga kichik stakanlarda may quyib tutdi. Ha-ha, tarala bilan tik turib ichishdi.

III

Yo'lchi tong qorong'isida Qoratoya kelib, voqeani bildirdi. Temirchi labini qattiq tishlab o'yladi. Faqat, bu to'g'rida hech nima aytta olmadi. U, o'z ta'biricha, "u yoq-bu yoqni izg'ib, sirning uchini" topish uchun qayoqqadir yo'qoldi.

Yo'lchi qayyoqqa bosh urishni, kimning yoqasidan tutishni bilmay, ancha vaqtgacha ko'chalarda tentib yurdi. Mirzakarimboy unga ish buyurganini Yormatdan eshitsa-da, bo'yusunmadi. Endi uning xayolida hamma narsa bo'sh va ma'nosiz edi. Ba'zi minutlarda esi oqqan kabi, ko'cha o'rtasida qaqqayib qolar. Har o'tgan daqqa uning so'nggi umid uchqunlarini so'ndirar, yuragini qo'rqinchli tuyg'ular bilan to'ldirar edi.

Qiyom chog'ida Qoratoy bilan uchrashish niyatida choyxonaga kirdi. Choyxonada odam ko'p edi. Chilim tutuni, samovar bug'i, odamlarning g'ovur-g'uvuri ichida, peshanasini ushlab, bir chekkada o'tirdi. U so'ramasa ham, choyxonachining yugurdagi choy qo'yib ketdi, qaytarishni ep ko'rmay, bir piyola quydi, lekin ichmadi, boshi yana beixtiyor quyi solindi. Shu vaqtida kimdir uning yelkasini qoqdi. Yo'lchi yalqovgina qaradi, qarshisida Qambar cho'loq. Uni ko'pdan beri ko'rmagan bo'lsa-da, o'rnidan turmasdan, bo'shang so'rashdi. Qambar kulib, kuppakunduzi, shuncha g'alva orasida uxmlayapsizmi, deb o'tirdi. Yo'lchi indamasdan piyoladagi choyni unga uzatdi. U Qambar bilan juda qalin do'st edi. Yoz chog'lari Yo'lchi dalada ishlarkan, ular tez-tez uchrashib turishar, juda samimiyo so'zlashar edi. Yo'lchi hozir o'z kayfiyatini, zo'rlab bo'lsa-da, o'zgartirishga tirishib, Qambar bilan bir oz so'zlashmoqchi bo'ldi, lekin bundan ojiz qoldi: har qanday so'z behuda, ma'nosiz ko'rindi.

- Sizga nima bo'ldi, xo'jayinlar xafa qildimi? Bu kun jumalik qilib chiqqan edim. Sizni ko'rib sevingandan yuragim qoq yorilayozdi, sizning vajohatingiz - bu!
- Ko'rishmaganimizga ancha bo'ldi,- bazo'r javob berdi Yo'lchi,- kishining boshiga har xil tashvish tushar ekan-da!
- To'g'ri, kambag'alning boshi g'amdan chiqmymizdi. Hayiti ham aza, jumasi ham aza,- piyolani bo'shatib so'zladni Qambar,- ko'ngilga tugaversang, jinni bo'lib qolasan. G'am yomon, fil bo'lsang ham bora-bora ipday cho'zib qo'yadi. Lekin, aytin, nega buncha es-hushdan og'ib, bo'zaryapsiz,- dedi-da, Qambar birdan kulib yubordi. Uning kulishi Yo'lchiga og'ir tegdi. Buni sezgan Qambar Yo'lchi tomon egildi va shivirladi:

- Dardingizga davo menda! B'T"u qaddini to'g'rilib, mag'rur boqish bilan yana iljaydi.

- Nima deyapsiz? B'T"gumonsirab so'radi Yo'lchi.

- Mayli, siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman,- Qambar yana egilib, ovozini pasaytirdi.- Yormat akaning qizini sevasiz, qizi kechasi birdan yo'qolib qolibdi-a? Xafalik shundan emasmi?

Yo'lchining qo'llari titrab, ko'zlar umid bilan ochilib ketdi. Bir muddat so'zlay olmadi, jilmaygan Qambarning ko'zlariga tikilib qoldi. So'ng dedi:

- Sevishimni bilardingiz, yo'qolganini qanday?..

- Hammasi manga ma'lum. Qambar cho'loddek iskovich yetti iqlimda bormikan! - Qambar bir oz to'xtab, atrofiga ko'z yogurtirib, davom ettirdi so'zini.- Kecha shom vaqtida biznikiga ikkita shum yigit keldi. Taniyman. Xo'jayin haligilarni mehmonxonaga kirgizib, eshiklarni taqa-taq yopdi. Bir nima borov dedim. Hech nimani farqiga bormagan bo'lib, eshikda yumushlarimni qilaverdim. Dam o'tmay yigitlar chiqishdi, keyin mast Salimboyvachcha ham bir ko'rinish yo'qoldi. Orqalaridan poplay dedim-ku, lekin xo'jayin sezadi, deb o'yladim. Yarim kechada eshik taqilladi. Chiqib ochdim: qari izvoshchi, g'irt muttaham odam. Lekin men bilan juda hazilkash. Hamma o'g'rinchi ishlarni o'sha yuritadi. Ha, bobo, horma, dedim. U: "Iloji bo'lsa hozir, bo'lmasa ertaga barvaqt ayt xo'jayiningga, nozik yukini falokatsiz eltilb qo'ydim, pulni mo'lroq cho'zsin" dedi. Qanaqa yuk, dedim. Otini "chuh" demoqchi. Yaqinlashib, shoshma, dedim. Mendan nimani yashirasani? Anov yigitlar, anov boyvachcha san bilan birmagidi? Bilaman, gapir dedim. "Ha ayyor cho'lloq, iskabsan darrov! Bir mahalladan bir qizni olib qochishdi. Boyvachchaning xizmatkorining qizi emish... Damingni chiqarma!" dedi sekingina. Bildim-ki, Yormatning qizi. Shundaymi, axir? Lekin nima uchun olib qochadilar, bunga aqlim yetmaydi. Lekin ikkalamizning xo'jayinlarimiz ham ashaddiy buzuq, shuning uchun yomon niyat bilan bo'lsa kerak. Mana, do'stim, sizga xabar berishga keldim. Qidirdim...

Bu voqeal, qo'rinchli bir tush kabi Yo'lchining ko'z oldidan o'tdi. Qambar so'zini bitirar-bitirmas, u ko'chaga otildi. Orqasidan Qambar ham yugurdi. Yo'lchidagi g'azabni ko'rib, Qambar uni pastqam bir tomonga yetakladi. Odamlardan xoli joyda to'xtab, agar Yo'lchi xohlasa qizni qutqarishlik mumkinligini, qiz o'sha shum yigitlardan birining uyida ekanini so'zladi.

- Aying, qaerda? Hozir boraman,- hansirab dedi Yo'lchi.

- Men o'zim boshlab borsam... qalay bo'lar ekan? B'T" o'ylanib qoldi Qambar.

- Yo'q, Qambar aka,- qat'iy ravishda dedi Yo'lchi,- ahmoq Tanti sezsa, xafa qiladi. Man o'zim boraman. Qambar mahallaning nomini aytib, u yerdagi tor ko'cha, boshi berk ko'chalarini, eshiklarni mumkin qadar sinchiklab tushuntirdi, tirnog'i bilan devorga chizib ham ko'rsatdi: "Adashsangiz, birona boladan sekingina so'rang: "Qora Ahmadniki qaerda" deb.

- Aniq o'sha yerdami?- dedi Yo'lchi titrab.

- Menimcha, albatta, shu yerda bo'lishi kerak.

Yo'lchi odimini katta otib jo'nadi. Bir oz nari borgach, orqasidan Qambar chaqirdi:

- Beri kelng!

- Yana nima?- shubhalanib so'radi Yo'lchi.

- Pichoq bormi? Ehtiyot-da.- Yo'lchining qulog'iga shivirladi Qambar.

- Enam pichoq taqishni o'rgatgan emas, Qambar aka! - G'urur bilan javob berdi Yo'lchi. Qambar norozi bo'ldi, lekin pichoq olishga Yo'lchini zo'rlay olmadi, ajablanib yelkasini qisib qoldi.

Yarim soatdan mo'lroq yurib, qo'rsatilgan mahallaga yetdi. Bu - shaharning chetida, shahar bilan dala o'rtasida, juda pastqam mahalla edi. Unda-bunda bir eshik uchraydi, lekin och-oriq, daydi itlar ko'proq sanqib yuradi. Yo'lchi Qambar uqtirgan imoratlarni bir-bir ko'zdan kechirib, so'l yoqadagi boshi berk tor ko'chaga kirda.. Ko'chaning ikki tomoni buzuq-yoriq paxsa devor, faqat ko'chaning boshida kichkina bir eshik. Yo'lchi eshikni itardi: orqadan zanjir. Shu yerda bir oz o'ylab, devorlarga razm solib, keyin oxista taqirlatdi. Eshik ochilib, barzangiday yigit chiqdi, gavdasi bilan eshikni qopladi, u yo'g'on, kallador, qoshlari mushukbachchaning dumiday o'siq, yuzida, peshanasida pichoqbozlikning izlari ravshan ko'rindi, yirikk ko'zlarida kishiga yomon ta'sir qiladagan, kandaydir, sirli o't yonadi. U xo'mrayib tikildi:

- Xizmat? B'T" dedi.

- Bu yoqqa tur, ichkari kiraman!

Yigitning ko'zlarasi asabiy iirilladi, pixillab nafas oldi.

- Podadan adashgan buzoqqa o'xshab, duch kelgan eshikka boshingni tiqaverasanmi? Kimsan o'zing?

- Qora Ahmad kim? B'T" dedi Yo'lchi, yigitga yaqinlashib.

- Man! B'T" dedi yigit va barmog'i bilan ostonaga ishorat qilib so'zida davom etdi.- Mana bu yerda odamzodning boshi yanchiladi, uka! Uyimga nimaga kirasan, uyim enang mahriga tushganmi?

Gulnorning shunikida ekaniga Yo'lchida hech qanday shubha qolmadni. Bu yigitga so'z uqtirishdan foyda yo'qligini sezdi-da, uning yoqasiga chang solib, keskin bir siltash bilan ostonadan uzdi, yana bir keskin va kuchli siltash bilan paxsa devorga urdi. Shu vaqtida Yo'lchining ko'kratiga qattiq va salmoqli musht tushda. Yo'lchi ham Qora Ahmadning basharasiga, ko'ksiga, qorniga to'qmoqday mushtumi bilan to'xtovsiz tushira boshladi. Tomoshabinsiz, ajratib qo'yuvchilarsiz zo'r, omonsiz mushtlashuv!.. Ikki tomon ham "ix, ax" va shuning kabi ma'nosiz tovushlardan boshqa bir so'z aytmadni. Ikkisining ko'zlarida vahshiy g'azab yondi. Bo'yin tomirlari arqonday qavargan, bilak paylari temirga aylangan. Nihoyat, Yo'lchi ham, Qora Ahmad ham, musht bilan bir-birlarini yenga olmaslikka ishonch hosil qilishdi shekilli, harakatlarini o'zgartirishdi. Quchoqlashib-tortishdi, bir-birlarini yiquvga intilishdi. Yo'lchi bir kalla uring, Qora Ahmad dan o'zini ayirdi, bir panjasini bilan Qora Ahmad bo'yuning ust tomonidan changakday siqib, pastga bosdi, ikkinchi qo'li bilan Qora Ahmadning bir qo'lini orqaga qayirdi va butun kuchi, og'irligi bilan uni yerga bosib tushdi. Qora Ahmad yarim yumalanib, ostida qolgan qo'lini bo'shatib chiqardi. Uning qo'lida pichoq yaltiradi. Yo'lchi chapdastlik bilan qo'lini mahkam ushlab qayirib, yerga mixlaganday qildi. Pichoq qo'lidan tushdi. Yo'lchi pichoqni qo'liga olib, uzoqqa otdi, butun gavdasi bilan Qora Ahmad ezib, bir qo'li bilan. uming tomog'ini xip bo'g'di, g'azabdan tishlarini qisirlatib: "Dodla, baqir uyalmasang!.." dedi.

Qora Ahmadning yuziga qon aralash loy chapilgan edi. Shishgan ikki ko'zi loy va qon orasidan kuchsiz yaltirar edi. Yo'lchi uning bo'g'zini bo'shatdi. Qora Ahmad bo'g'ilib, harsillab nafas oldi. Tomog'i bo'shalgan esa-da, qarshilik ko'rsatshiga urinmadni. Yo'lchi jerkib so'radi:

- Qiz shu yerdami?

- Shundab T" dedi Qora Axmad, bir nafasdan so'ng,- kining u, singlingmi?

- Men u qizni sevaman B'T" mag'rur javob berda Yo'lchi. Qora Ahmad yotgan joyida kimnidar chapanicha yomon so'kdi.

- Kimni?- deb o'graydi Yo'lchi.

- Anov... Boyvachchani so'kaman...

- Nimaga olib qoqdilaring qizni? B'T" dedi Yo'lchi.

- Bilmayman. Hech. Boyvachchalardan so'ra.

Yo'lchi Qora Ahmadning ustidan tushdi. Haligi uloqtirgan pichoqni qo'liga oldi-da: "Tur, ammo endi g'ing demaysai!" dedi.

Qora Ahmad bir qo'lini yerga tirab, ohista ko'tarildi, qon aralsh tupurdi. Yo'lchiga qarab yumshoq gapirdi:

- Mard ekansan Qora Ahmadni urding.. Yana qanday! Chin so'z kerak. Men odamning xo'roziga boshimni beraman. Sen u qizni

sevasanmi? Ol, ket! Hech kimning ko'z qorasi unga tushgani yo'q. Ishon manga! B'T"so'l, qo'lini ehtiyot bilan ushladi Qora Ahmad. B'T" Qo'lga shikast berding-da. Zarari yo'q. Kir!

Yo'lchi choponining etagi bilan yuzini artdi. Pichoqqa diqkat bilan qarab, so'ngra, peshkash qilgan kabi, Qora Ahmadga tutdi.

- Ol!...

Qora Ahmad ishonmagan kabi ag'rayib, bir minut taraddudda qoldi. Keyin pichoqni sekingina oldi-da, boshini quyi soldi. Bir zum o'tmay, birdan Yo'lchiga qaradi. Uning bu qarashida chuqrta taajjub bilan hurmat ifodalandi, loy va qonli yuzini tabassum qopladi: "San oltin yigit ekansan. Tushundim!" B'T" pichoqni qo'njiga tiqib, uyg'a o'zi boshladi. Hovliga, kirarkan qichqirdi:

- Opa, pana bo'l!

Yo'lchi uning orqasidan serdaraxt, lekin uy-joyi to'tday to'kilib turgan katta hovliga kirdi. Qora Ahmad hovlining narigi burchida yuzini katta ro'mol bilan Yo'lchidan yashirgan bir xotin oldiga keldi. Yo'lchi sabrsizlik bilan hovli o'rtasida atrofga alanglab turarkan, xotin chinqiriq tovush bilan birdan vaysab ketdi:

- Voy, o'lay, bu nima! Yuzingni kim pachaqladi? Chopoqning boshdan-oyoq balchiq. Man sanga ming marta dedim-ku yomon yo'ldan qayt deb...

Qora Ahmad bir nima deb po'ng'illadi-da, hovlining chetidan yurib, bir uycha oldida to'xtadi va Yo'lchini imladi. Yo'lchi yugurib bordi. Qora Ahmad kalitni berib, o'zi chekildi. Yo'lchi titragan qo'llari bilan shoshib-pishib qulfn'i ochdi, eshikning ikki qanotini ikki yoqqa qattiq itarib, uyg'a otildi. Darchasi berk bo'lganidan uy ichi qorong'iroq edi, hech kim ko'rinnadi. Yo'lchi umidsiz va hayajonli tovush bilan:

- Gulnor!- deb qichqirdi.

Eshik ochilar ekan, falokatmi, deb guman qilgan va qo'rquvdan nafasi kesilib, qorong'i burchakka qisilgan qizga bu tanish va sevimli tovush bir onda hayot bag'ishladi. U faryod bilan Yo'lchiga otildi. Sevinchidan, hayajondan, yayriliq hasratidai ular ancha vaqtgacha bir og'iz so'z so'zlashga ojiz qolishdi. Gulnor boshini Yo'lchining ko'kragiga suqib yig'ladi. Yo'lchi uni eshik oldiga olib bordi. Gulnor namli ko'zlar bilan Yo'lchiga tikilib, bir nimadan hurkkan singari, yana unga suquldi, so'ng erkalanib uning bo'yninga qo'l tashladi. Yurakka sig'magan hayajonini bo'shatgan kabi, xo'rsina-xo'rsina so'zladi:

- Ko'zlarimga ishonmayman. Sizni ko'rish... uh, umidim uzilgan edi. Yo'lchi aka, biz qaerdamiz? Nima bo'ldi? Anov muttaham kim? Nega meni bu yerga o'g'irlab keladi? Hech nima tushunmayman! Tushimmi? O'ngimmi? Kechasi yolg'iz o'tirgan edim,- yig'lab gapira boshladi Gulnor,- onam boynikida, dadam allaqayda... birdan ikkita devday yigit kirsa bo'ladi. "Voy!" deb o'zimni yerga tashladim. Bundan boshqasini bilmayman. Keyin bir vaqt hushimga keldim. Og'zim bo'g'iq. Qalin narsaga o'ralganman. Izvoshda ketayotganimni payqadim. Yana hushsizlandim. Uh, o'lmbabman, kishining joni shunday chidamli bo'lar ekan. Lekin o'zimni o'ldirish uchun mana shu uyda ko'p urindim. Tomog'imni bo'g'dim. Bo'ljadi. Boshqa chora qidirib turgan edim, qaerdan keldingiz, osmondan tushdingizmi, Yo'lchi aka?- Gulnor so'zlarkan, Yo'lchi uning yuzidan ko'z uzmadni. Qiz juda ozgan, yuzi sarg'aygan edi. Ko'zlar horg'in, darmonsiz edi. Boshidan kechirgan foje hodisalar uning butun siyomsida ravshan edi. Lekin qizning husni, hasrat otashida tovlanib, mukammallashgan kabi, yana ham yorqinroq, yana ham sehrliroq bo'lib ko'rindi Yo'lchiga. Yo'lchi Gulnorning boshini silab, voqeani qisqacha aytib berdi, katta ayb Qora Ahmadda bo'lmay, balki boshqalarda ekanini va buning sababiga hali tushunmaganini so'zladi. Tanti va Salimboyvachchalarning ishtirot etuvli Gulnorning hayrat va g'azabini oshirdi. Butun alamzadaligi bilan ularni qarg'adi. Nogahon Yo'lchining chakkasidagi ko'kimtir shishni ko'rib, ko'zlariga qo'rquv to'ldi.

- Bu nima? Voy, qulog'ingiz orqasi ham ozgina qonabdi!- dedi Gulnor qo'rqiб.

- Qora Ahmad bilan ozgina hazillashdik. Yuring, tezroq ketaylik,- Yo'lchi hovliga tushdi.

- Mahsim boru, kavushim yo'q, paranji-chachvonim yo'q. Ro'molim yo'q. Ro'molsiz, mayli-ya, paranji, kavushsiz qandoq chiqaman ko'chaga? B'T" dedi Gulnor muloyim kulib.

- E...e...- Yo'lchi o'ylab qoldi, bunday narsalar sira esiga kelmagan edi, go'yo Gulnorni kiyintirib olib qochishganday. Bu narsalarni tezda topib bo'limgani va Gulnorni bu yerda bir minut ham yolg'iz qoldirishni istamagani uchun, u Qora Ahmadni chaqirdi. Qora Ahmad og'ir-og'ir yurib keldi. Uning yuzi endi qon bilan loydan tozalangan bo'lسا-da, juda xunuk edi. Peshonasida katta-kichik g'urralar, yuzlari ko'm-ko'k shish, bir ko'zi tamom yumulgan edi. U, uzoqroqda to'xtab:

- Xafa bo'l mang, singlim! B'T" dedi.

Qora Ahmad yaqinlashuvi bilan o'zini eshik orqasiga oltan Gulnor dadil qichqirdi:

- Uyatsiz!

Qora Ahmad yerga qaradi. Yo'lchi uning yelkasiga qo'lini qo'yib, ahvolni tushuntirdi. U ilma-teshik bir paranjini keltirib Yo'lchiga tutqazdi.

- Bo'lgani shu. Buni ham opamiz yer-ko'kka ishonmaydi,- dedi kulib Qora Ahmad.

- Xo'p, men garovga pul berib ketay.

- Yo'q, bu bir tangaga qimmat, garovga sira arzimaydi. Ammo kerakli narsa u, musulmonchilikning farzlaridan biri shu boshvoq-ku... Ertaga yo'o'zing keltir, yo birovdan berib yubor.

- Rahmat.

Qora Ahmad bir hujraga kirib, uzoq vaqt yo'qoldi. Eski-tuski orasidan bir juft kavush topib chiqib, Yo'lchining oyoqlari orasiga tashladi. Kavushlar quruq tarashaday shaqillab tushdi yerga. Qora Ahmad ham, Yo'lchi ham, hatto engak orqasida mo'ralab turgan Gulnor ham bir vaqtda beixtiyor kulib yuborishdi. Kavushning biri "zaifona", biri "mardon'a", birining poshnasi butunlay yo'q, biriniki yarimta. Birining yuzi yarmini sichqon kemirgan, birining yuzi tag charmga yopishib ketgan. Yo'lchi kula-kula qo'lga oldi. Barmoqlarini tiqib, kavushning yuzini to'g'rilamoqchi bo'lgan edi, o'rta barmog'i teshib chiqdi... Yo'lchi yerga tashladi.

- Men pul beray, shu atrofdan oz-moz durust, oyoqqa ilinadigan bir narsa topib bering,- Yo'lchi murojaat qildi Qora Ahmadga.

- Qiziq ekansan, oyog'idagini yechib beradimi, bu yerdagilar hammasi - gadoydan non tilaydigan qashshoqlar, juftingni qanoting ostiga olib ucha ket, lochin! Bu yerda turma! B'T" dedi-da, Qora Ahmad bir tomonga chekildi,

Gulnor "doqi yunus"dan qolgan kavushni kiyib, chirik paranjiga o'ralib, Yo'lchi bilan jo'nadi. Katta ko'chaga chiqqach, musulmonlarning yomon fikrlariga zamin bermaslik uchun, Yo'lchi o'zini besh-o'n qadam oldinroq olib yurdi. Tutqunlikdan, falokat chuquri yoqasidan sevikli yigit tomonidan qutqazilgan Gulnorning qushdek uchgusi kelar, lekin boshidan kechgan dahshatli voqealar orqasida oyoqlarida zarracha mador sezmas edi. Buning ustiga kavushi monelik qilar edi. Deyarli har qadamda bir poy chirik kavush oyoqdan tushib, loyga botar, qiz engashib yana ilar, qadamini har qancha avaylab qo'ysa ham, kavushlar yurishdan bo'yin tovlar edi.

Yo'lning yarmiga yetganda, odamlar siyrak joyda Yo'lchi to'xtadi. Gulnor uning yoniga kelgach, iymanib sekiigina dedi:

- Qaerga olib boray sizni? O'z uyingizgami? To'g'risini aytavering, Gulnor, sira tortinmang.

Bu savolni Gulnor hali o'ylamagan edi, u devorga suyalib turib qoldi. U paranjida bo'lsa-da, hozirgi kechinmalari va hayajonlangani Yo'lchiga bilinib turdi.

- Tortinmang, ixtiyor sizda,- takrorladi Yo'lchi.

- Uyimga qaytmayman. Boyagi joyga boramiz, gaplashamiz,- qag'iy javob berdi Gulnor. Agar ko'chada bo'lmasa edi, Yo'lchi shu onda bu go'zal, toza yurakli, jasur, vafodor qizning oyoqlariga bosh qo'yishga tayyor edi. Lekin shunda ham uning bundagi harakati, qizning ulug' qalbi va sevgisi oldida hech ekanini chuqur sezdi. Yo'lchi cheksiz sevinch bilan yurib ketdi. Yo'l-yo'lakay fikri joy qidirish bilan mashg'ul bo'lди. Qoratoy, Shokir ota uyi juda mos. Lekin boyning mahallasida, bilinib qoladi, hozir to'ppato'g'ri qishloqqa jo'nash uchun hech qanday imkon yo'q. Gulnor horigan, kiyim yo'q. Yana u bilan ochiqcha so'zlashuv kerak, yigit o'ylay-o'ylay Shoqosimning xizmat qiladigan joyini, juvozkashnikini ma'qul ko'rди. Chunki bu joy Mirzakarimboy uyidan ikki-uch mahalla narida ham bundan boshqa xoli joyni topish qiyin. Ehtiyyot yuzasidan to'g'ri yo'lni qo'yib, aylanma yo'llar bilan namozgar vaqtida Shoqosimnikiga boshlab keldi. Juvozkashning tashqarisida juvozxona, bedaxona, otxonadan boshqa, bir burchakda kichkina hujra bor zdi. Bu yerda Shoqosim yashar edi. Yo'lchi atrofga kuz yogurtirib, otxonaga kirdi. Endigina ishdan chiqib, otlarning yem-xashagi bilan ovora bo'lgan Shoqosimni ko'rди. Salomni, so'rashmoqni unutib, qulog'iga shivirladi. Ishdan horib-tolib chiqqan Shoqosim chala-chulpa eshitsa-da, ma'noni tez ilib oldi. O'rtog'iga hayron bo'lib tikildi.

- Rostmi? Hujraga olib kir, eshikni orqasidan zanjirla. Qorangni ko'rsatma,- dedi.

Hujra kichkina, lekin iliqqina edi. Eski bo'yra ustiga solingen eski ko'rpa-chaga Gulnor o'tirdi. Hujraning burchagida Shoqosimning uvada choponi, to'ziq ko'rpa-yostiq uyulgan. Tashqari hali yorug' bo'lsa-da, eshik yopilgani uchun, derazasiz hujra qop-qorong'i bo'lди. Yo'lchi tokchada yotgan shamni yoqib, bir piyolani to'ntarib, uning ustiga shamni o'tqazdi va o'zi bilan Gulnor o'rtasiga qo'ydi. Ikkisining yuragida sevinch va baxt lim-lim toshgan edi. Bu baxt, bu cheksiz sevinch ularning ko'zlarida, qarashlarida, yuzlarini qoplagan tabassumlarida jilvalandi... Hozir ikkisi bunday uchrashuvdan, bir-birlariga qoniqmay boqishlaridan o'zga dunyoda hech nimani nazar-pisand qilishmas, qalblarida yillarcha saqlagan muqaddas orzularga yetishganliklaridan, ikkisi ham mast kabi edi. Bu faqir hujrada miltiragan sham ular uchun azamat va hayotbaxsh quyosh kabi ko'rinar edi.

Ular ko'pdan beri ko'kraklarida to'plangan, ifodasi uchun vaqt-sharoit imkon bermagan o'ylarini, dardlarini gaplasha boshladilar. Gulnor ayniqsa, keyingi kunlardagi voqealarni hayajon bilan so'zladi. Mirzakarimboyning uyatsizligi, dadasining nodonligi, ko'z yoshlari bilan Yo'lchini kutishlari, Qora Ahmadning sovuq uyida tun bo'y va kunduzi ham, Yo'lchi kelguncha, yolg'iz o'z o'limini, o'z-o'zini qay ravishda oson o'ldira bilish bilan ovora bo'lganligini, Qora Ahmadning opasi ko'rsatgan ba'zi bir mehriconchiligin va hokazolarni hikoya qildi. Yo'lchi hamma eski, yangi voqealarni, xususan kechadan buyon tortgan tashvish va hayajonlarini gapirdi, qizning peshanasini silab, o'tganlarni unutish kerakligini tushuntirdi. Eshik taqilladi. Yo'lchi irg'ib turib qiya ochdi. Shoqosim bir choynak choy, ikkita non, bir tarelka qora mayiz uzatdi: "Palov qiladigan kezi ekanu... uka, kambag'alniz-da, ozni ko'p ko'rib olasizlar..B" dsdi. Yana birpasdan keyin bitta ko'rpa keltirib berdi, aziz mehmonim bor deb, xo'jayinlardan yalinib olganini aytib kului. Yo'lchi unga minnatdorchilik bildirib, koyimasligini o'tindi. Bundan bir necha soat ilgari qayg'udan boshqa ovqatni tanimagan bu ikki yor endi sevinib, ishtaha bilan yeya boshladi. Yo'lchi, pul beray, Shoqosim oshpazdan ovqat keltirsinmi, deb so'ragan edi, Gulnor lozim topmadni. U choyni o'zi quyib, Yo'lchiga g'amxo'rlik ko'rsatdi, quvnoq ko'zlarini bu kichik, faqir hujraning har tomoniga yogurtib, kula-kula so'zladi.

- O'rtog'ingizga aytинг, shu hujrasini bizdan ayamasin. Shu yerda tinchgina yashaylik!

Yo'lchi kulib boshini qimirlatdi. Lekin birdan qizning yuzini qayg'o' ko'lkasi bosdi:

- Yo'q, o'rtog'ingiz hujrasini bizdan ayamas, lekin boshqalar bizga hech nimani ravo ko'rmaydilar. O'z ko'nglimizda va o'zimizniki bo'lgan ishqni ham yulib tashlamoqchilar...

Yo'lchi uning fikriga qo'shildi. So'ngra Toshkent kabi katta shaharning bironta burchagida ular xavfsiz tura olmasliklarini, agar Gulnor chindan istasa, u vaqt tezroq harakat qilib, bu yerlardan uzoqlashish lozimligini so'zladi. Gulnor Yo'lchining ko'zlariga boqib kului va dadil javob berdi:

- Siz qaerni xohlasangia, o'sha yer menga yaxshi ko'rindi. Mana bu hujraga boshlab keldingiz, menga juda yoqdi... Endi uyg'a qaytish yo'q. Mirzakarimboy burnimi tishlab qolsin!

Ikkovlari ham uzoq kulishdi.

- Men o'z qishlog'imni mo'ljallagan edim,- dedi Yo'lchi jiddiy,- to'g'ri, u yerda hozir uy-joyimiz yo'q. Qo'shnimiz onamni ko'mishga, ma'rakasiga pul sarf qilgan ekan; to'lash kerak, albatta. Men uyni bir yuz yigirma so'mga sotdim. Juda arzon... Ammo, qarzdan qutuldum. Singlimga kiyim qilib berdim. Yonimda yana o'ttiz so'mcha qoldi. Ammo, qishloq o'sib-ungan yurtim. Albatta, joysiz qolmasmiz, sog' bo'lsak, tirikchilikni ham yo'lga solarmiz. Ammo, Gulnor, siz yaxshi o'ylang, ixtiyor sizda. Gulnor Yo'lchining so'zlarini diqqat bilan tingladi, hassos qizning xayoli mehnat-mashaqqat bilan to'la, lekin sodda, tinch qishloq hayotini jonli ranglar bilan chizib, ko'z oldidan bir-bir o'tkazdi, u birdan o'zini tog'lar, suvlar orasida sezdi, Yo'lchining fikrini ma'qulladi, yana unga dalda berish uchun dedi:

- Hamma vaqt qishloqda yashaymiz. Siz ishlaysiz, men ishlayman. Do'ppi tikishni yaxshi bilaman. Erkak, xotin, bala-chaqa - hammasining kiyimlarini tikaman. Mahallada meni chevar qiz deyishadi.- U bu so'zlarini yarim hazil, yarim iftixor bilan kulib aytdi.- Singlingiz bag'rimda bo'ladi. Uh, men uni ko'rishi shunday orzu qilamanki...

Yo'lchi uning so'zlarini tinglarkan, kelajak umri, orzulari, umid va xayollari bir parcha dog'siz, tutash nur ichida ko'rini ketdi. U qizga yaqin o'tirdi, uning qop-qora quyuq sochlarini siladi, qiz boshini uning ko'ksiga qo'yib, hazin tovush bilan o'z-o'ziga so'zladi:

- Oyim bechora qoladi, yolg'iz bolasidan ayriladi, o'likmi-tirikmi ekanimni bilmay qoladi... Yo'q, u o'ladi, bunday g'amni ko'tara olmas! Bir ko'rsam, bir quchoqlasam...

- Gulsum xolamni ko'rishingiz kerak edi-da, lekin... qaydam...- Yo'lchi jim bo'ldi.

- Yo'q,- boshini yigit ko'kragidan uzmasdan gapirdi, B"dadam bilib qoladi. Yaxshisi, bunday qiling. El yotar paytida Qoratoy akanikiga borib, mana bu paranji bilan choriqni egasiga qaytarish uchun unga topshirib, boshqa paranji, kavush olib keltiraman degandingiz hali. Biz bugun saharda jo'naymiz, shundaymi? Qoratoy aka ertaga kechqurun xotinini bir bahona bilan biznikiga yuborsin; u tirikligimni, siz bilan bir yoqqa qochganligimni sekingina oyimga so'zlasin. U vaqt balki g'ami, hasrati ozayar, nima deysiz?

Yo'lchi qizning bunday tuyg'unligi va fidokorligiga qanday baho berishni, qanday qilib o'zining chuqur tashakkurini bildirishni bilmay qoldi. Gulnorning go'zal boshini o'z ko'ksida quchdi, muhabbatib butun yigitlik g'ururi va otashi bilan unga tikildi-da, fikrini

juda ma'qul ko'rganini ham qishloqda tinchlanib olgach, tezda shaharga qaytib xo'jayindan haqini talab qilishni, singlisi bilan birga, mumkin bo'lsa, uning onasi Gulsumbibini ham aravaga solib, qishloqqa olib borishni istaganini aytди.

Dahshatli kechinmalar bilan, qayg'u bilan charchagan qizning ko'zlari yumila boshladi. Yo'lchi uning boshini kir yostiqqa ohista qo'ydi. Ustiga ko'rpa tashladi, nash'ali hislar, yorqin umidlar bilan yuragi lim to'lgan holda ancha vaqtgacha yoriga termulib o'tirdi. Keyin shamni tokchaga olib qo'ydi, tashqariga chiqib, hujra eshkagini sekingina yopdi.

Vaqt xuftondan o'tgan, juvozxonada chiroq ko'rindi, Shoqosim kechalik ishni bajaradi. Yo'lchi u yerga borib ostonada eshikka suyaldi, juvozxonaning bir chekkasida devor katakchasiqa qo'yilgan, shishasi kirlangan kichkina lampaning nurida narsalar g'irashira ko'zga chalinar edi. Juvozxona ichidan tezak, shiptir, moy va kunjara hidrlaridai birikkan allaqanday qo'lansa hid Yo'lchingin dimog'iga darrov urdi; pastda ikkita ot ohista, lekin bir tekis yurish bilan gir-gir aylanadi, oyoqlari ostida go'daklar "bekinmachoq" o'ynasa, dumini qimirlatmaydigan bu yuvosh va mehnatda chaqilgan otlarning ko'zlari nim qorong'ilikda allaqanday g'azab bilan yonganday ko'rindi Yo'lchiga. Otlar bilan birga Shoqosim ham ohista aylanib, uzun qamchini otlar ustida yuvosh silkip qo'yadi. Bu ishda odam bilan ot orasida farq yo'q. Ikkisi ham gir-gir aylanadi, baravar ishlaydi. Kecha-kunduz qo'lansa havo, qorong'ida gir-gir aylanish!.. Lekin odamda javobgarlik bor, xo'jaynn moyni yaxshi chiqarishni buyuradi. Yana shu odam otlarni ham boqadi. Bir ozdan so'ng Shoqosim otlarni to'xtatib, Yo'lchiga qichqirdi:

- Tushuntir mundoq, o'zi nima gap? Yangi kiyim kiygan yetimchaday, ko'zlaring taka-puka, yurishlaring inchunin bejo? Yo'lchi u yoq-bu yoqqa shubhali nazar tashlab, keyin Shoqosimni ishdan qo'ymaslik uchun, ikki-uch minutda voqeani so'zlab berdi. Qiziq cho'pchak tinglagan boladay, Shoqosimning og'zi ochilib qoldi. Yana juvozni yuritib, otlarning dukuri, juvozning g'ijirlashi ichida qichkirdi:

- Qaddingni ur, yulduzlarining juft tushgan bo'lsa-chi, odam bolasi senlarni ajrata olmaydi!

So'ngra gir-gir aylanib, u o'z turmushidan shikoyat qila boshladi.

Xo'jayinlar toifasida insof yo'qligidan, kunjara yeb, kesak hidlab yashashdan, birovga farzandlikka bergan o'g'lini ko'rib kelishga ham vaqt topa olmaganidan, umuman, yarali ko'ngilning dodidan bir-bir bahs ochdi. Yo'lchingin ko'ngli quvonch bilan to'la edi, chunki yori o'z yonida va xo'jayinlarning bo'yinturug'ini o'z bo'ynidagi sezmas edi. Lekin Shoqosimning so'zlari uning erkin yuragini timdaladi. U yupatuvchi so'zlar bilan do'stini umidlantirishni istamadi, to'g'ri yo'l ko'rsatishga tirishdi.

- Juvozxonada vaysab yig'lashdan nima foyda? Boshqalar sizni xo'rsla, siz xo'rланмаган, yana ko'proq yengilmang, qadri qiyimatingizni biling. Men sizni bilaman, siz bunday qilmaysiz, xo'jayin kamsitsa, so'ksa, g'azabingiz o't olmaydi, yana pasayasiz. Bu yomon!

Shoqosim uning so'zlarini yaxshi eshitmadimi, yo ahamiyat bermadimi, indamay otini aylantiraverdi.

Yo'lchi hovli o'rtasida to'xtab, osmonga qaradi. Tim qorong'ilik ichida uzoqdan yulduzlar jimir-jimir ko'z qisar edi. Hulkarga boqib, Qoratoynikiga borishga hali vaqt erta ekanini bildi. Hujra eshigini ehtiyyot bilan ochib kirdi. Ko'rpaning uchini ko'tarib, qizning yuziga qaradi. U uyquda. Faqat nafas olishi bir qadar qisqa va keskinroq ko'rindi. Yo'lchi hech nima gumon qilmadi.

Gulnorning ustini yaxshilab o'radi-da, uning oyog'ida, devorga suyalib o'tirdi. Eson-omon bu yerdan qochishni, shahardan chiqqach, qishloqqa qatnovchi aravalardan biriga o'tirishni, Gulnorga qalinroq kiyimlarni Qoratoy topa oladimi, yo'qmi - shuning singari o'ylarga berildi. Yormatni, ayniqsa Gulsumbibini o'ylab, ularga achindi. Gulnorga boqarkan, ko'kragini yigitlik g'ururi va jang, mojaror qorasida yoriga yetishgan oshiqning baxti qabartirdi. Bir muddatdan so'ng uning ko'zini ham uyqu qisa boshladi, ko'zlarini dam ochib, dam yumib, uyquga qarshilik qo'rsatdi, barmoqlari bilan ishqaladi, nihoyat, o'tirgan holda, yarim uyqu, yarim xayol bilan boshini egdi, sekin-sekin kipriklarini yopishтиrdi.

Qandaydir, ingrashmi, alahlashmi Yo'lchingin qulog'iga kirdi, seskanib ko'zini ochdi. Tokchada sham tagigacha yonib o'chayozgan. "Xiyla vaqt o'tibdi!" deb o'yladi u. Tokchalarini timirskilab, yangi sham topib yoqdi, shamni qo'lida ushlab Gulnorning boshida cho'qqaydi. Ko'rpa Gulnorning ko'kragini, yuzi bo'rtib, taram-taram qizargan; burnining kataklari qisilgan, harsillashi avvalgidan zo'rroq. Yo'lchingin butun badanini, tomirlarini izg'irin yalaganday bo'ldi. U bir qo'lini qizning peshanasiga qo'ydi: naq olovday... Yo'lchi "uh" tortib, chuqur mehr bilan, butun vujudini ezgan alam bilan silarkan, Gulnorning ko'zlarini allaqanday xasta yorqinlik bilan ochilib ketdi, uyalgan kabi, ko'rpani tortib, ko'kragini yopdi va Yo'lchiga tikildi.

- Nima qildi, jonim?- so'radi Yo'lchi, lekin "betobmisiz?" deyishga tili bormadi. Quruq lablarini bazo'r qimirlatib, harsillab dedi Gulnor:

- Uh... badanim yonib boradi...

- Shamollagansiz, xafa bo'lman, o'tib ketadi.

- Qattiq shamolladim, B'T"past ovoz bilan dedi qiz,- man ertalab sezgan edim, haligi yerda, oti nima, uyi juda sovuq edi, egnimda yupqa nimcha. Qanday jo'naymiz? Siz narsalarni tayyorladigizmi? Bilmadim, shu ahvolda qishloqqa yota olarmikinman?

- Tanangizda og'riq bormi?

- Butun badanim zirqirab og'riydi, endi juda kuchaydi og'riq. Uh taqdir qurg'ur har damda bizni qoqiltiradi. Nima qilamiz?- dedi, Gulnor ko'rpadan qo'lini chiqarib Yo'lchingin qo'lini ushladi. Yo'lchi uning yongan qo'lini yumshoqqina siqib o'pdi va butun borligi bilan xo'rsinib dedi:

- Gulnor, sizga sog'liq keraq. Hech nimani o'ylamang, tinchib hordiq chiqaring. Agar dunyoning narigi burchiga sizni opichib borishga to'g'ri kelsaydi, men sevina-sevina bajarardim. Ammo, shu holatda... yana o'zingiz bilasiz. Yo tonggacha arava topib kelaymi? Ammo, dalada shamol kuchli bo'ladi, ayniqsa shu kezlarda.

- Sizni qiyab qo'yaman. To'g'ri, qiyinalasiz. Ruhim picha yengil tortsin. Qilcha darmonim yo'q. Ular sezmasmikan? B'T" Gulnor go'yo o'zini jasoratsizlikda ayblagan va o'z ahvoldidan umidsizlangan, o'ksingan kabi, ko'zlarini yosh bilan to'ldi, tomchilar uning yonib bo'rtgan yuziga yumalanaverdi.

Yo'lchi shamni qizning tepasidagi tokchaga o'rnatdi, keyin ro'molcha bilan uning ko'z yoshlarini avaylab artib dedi:

- Yig'lamang, yig'lamang, ruhingiz yengillashsin.

- To'xtata olmayman, o'zi quyulaveradi. Yo'lchi aka, nima uchun ular bizni qiyaydilar, nega u boyni, u boyvachchalarni yer yutmaydi! Nega mucha zo'rlik, jabr?

- Yer yutadi, yutmasa agar, zo'rlab nig'izlab yuttiramiz! B'T" Yo'lchi mushtumini yerga tirab javob berdi.

Gulnor chuqur sadoqat ifoda etgan ko'zlarini bilan yigitga qaradi, haroratlari qo'llari bilan uning yuzini siladi. Goh tinchib, goh qiyinalib yotdi. Ammo, bir zum bo'lsin, ko'zlarini Yo'lchidan uzmadи.

Eshik taqirladi. Yo'lchi avval shubhalanib, tirqichdan qarab, Shoqosimning tovushini eshitgach, ochdi.

- Avji ketish payti, bir ozdan keyin tong otadi. Men bedaxonada uyquni urdim, oshiq-ma'shuqni kuzatib qo'yay, deb chiqdim.-

Sovuqdan qaldirab, tishlarini shaqillatib, dedi Shoqosim.

Yo'lchi g'amgin tovush bilan qizning notobligini tushuntirdi. Shoqosim yelkasini qisib, bir lahma jum turib qoldi. Keyin Yo'lchinining qo'lidan ushlab, boshini tebrata-tebrata gapirdi:

- Shuncha azob, shuncha tashvish ko'rgan qiz, albatte, kasalga chalinadi-da. Qiz monand nozik bo'ladi. Issig'i baland dedingmi? Chatoq-ku...

- Kuyib-yonib yotibdi. Uh, birpasda kasalga chalindi-ya. Turishga majoli yo'q,- Yo'lchi ko'kka qarab, so'ng davom ettirdi so'zini,- hayronman, Shoqosim aka, Yormatlar, xo'jayinlar izimizga tushmasmikan?

- Qanday ketasan, qaerga borasan? Zanbilga solasanmi! Shu hujraga qamalinglar. Kunduzi nafas chiqarmaysanlar. Xo'jayinning, bola-chaqalarining ko'zini shamg'alat qilib, men o'zim xabar olib turaman. Kir ichkari. Ha, eshikni uchta chertaman, shunda ochasan. Ertalab doru darmon ham topib beraman. Shamollagan, tumov. Shundaymi? Bo'pti.

Yo'lchi unga Qoratoyning uyini va do'konxonasini tushuntirdi, ertaga unga uchrashib, ahvolni bildirishni o'tindi. Shoqosim "Xo'p" deb otxona tomonga ketdi. Yo'lchi hujraga kirdi. Naq shu paytda Shoqosimning xo'jayini Parpixo'ja yog'chi ichkari hovlidan chiqib, odatdagicha, "o'hu, o'hu" bilan "yo Ollo! Yo qoziylhojat!" "Yakkasan, yagonasan!" kabi so'zlarni aralashtirib, hovlida yura boshladi.

Bu kishi har kun sahar turib, tahoratdan keyin ichki-tashqi hovli orasida tentib yurishni, oxurdan to'kilgan cho'plarni qorong'ida turtinib terishni, qorong'ida ham kunduzgi kabi har narsaga razm solib, ko'zdan kechirishii yaxshi ko'rар edi. U otxonaga borgach, Shoqosim qichqirdi:

- Xo'jayin, bugun picha ertaroq uyg'onibsiz?- Parpixo'ja yog'chi javob berish o'rniga, cho'zibgina: "Yo Ollo!" dedi va otlar orasida turtinib, cho'p-xashak qidira boshladi. Shoqosim hazillashdi:

- Har kun saharda ming marta "Ollo!" deysiz, biron marta "ha" deganini eshitdingizmi?

Parpixo'ja yog'chi javob berdi jiddiy ravishda:

- Astoydil munajaat qilsang, Ollo taolo "ha" demaydi, "labbay" deydi. Lekin buni eshitmaysan, ko'rasan, ya'ni u o'z ne'matlarini bu dunyoda ham, u dunyoda ham ko'rsatadi...

- Bo'lmasa,- dedi Shoqosim kulib,- menga sira "labbay" demaydi-da. Nega deng, hech qanday ne'matini ko'rganim yo'q.

- Noshukurchilik qilma. Shuning uchun chiqargan yog'ingda baraka yo'q!- jerkidi yog'chi va bir oz sukut qilgandan so'ng,- Ollo deyaver, u dunyoda mo'l-ko'l ne'matlarini ko'rsatadi,- dedi.

- Jilla bo'lmasa, yarmini bu dunyoda ko'rsatsa edi, qoyil qolardim,- dedi Shoqosim.

- Kalima keltir, betovfiq! Bu besh kunlik dunyoning loyqa suvini nima qilasan, jannatdagi hovzi kavsarni o'yla, ablah!

- ertaga dumba moydan bu kungi shalxak yaxshi, xo'jayin! "Parpixo'ja yog'chi "bas", dedi-da, chol bo'lmasa ham, chollar kabi ikki qo'lini orqa beliga qo'yib, bir oz munkayib, ichkari uyga kirib ketdi.

O'n uchinchi bob

I

Jondor vagonchinikida "bazmi Jamshidiy" qurbanlar kechga yaqin mastlikdan o'likday cho'zilib qolishgan edi. Tantibonvachcha yarim kechada ko'zini ochdi, xumday og'ir boshida qattiq og'riq sezdi. Tomoq qaqranganlikdan, o'qchib-o'qchib o'rnidan bazo'r turdi. Gandiraklab yurar ekan, uy o'rtasida qotib yotgan Jondorboyga qoqilib yiqildi. O'zinimi, boshqanimi so'ka-so'ka uyga jo'nadi.

Uyida bir choynak achchiq sovuq choyni simirib, peshanasini panjasib bilan siqarkan, kechqurun Gulnorga borishga vagonchi bilan ahd qilishganligi yodiga tushdi: "Ha, qushim qafasda, ertaga borarmiz, o'zi ham yuvosh bo'lib qolsa kerak", deb o'yaldi.

Ertasi atrof qorayarkan, Jondor vagonchini o'z pinjiga olib "suhbat"ga jo'nadi.

Ostonada Qora Ahmadning gavdasi qoraydi.

- Kelinglar, akalar!- Qora Ahmad ko'rishmoq uchun qo'lini cho'zdi, lekin ular qorong'ida buni sezishmadi.

- Biz senikiga mehmon bo'lib keldik. Bu kishi do'stim Jondor vagonchi,- dedi Tantiboyvachcha.

- Juda soz,- po'ng'lladi-da, Qora Ahmad jim turaverdi. Tantiboyvachcha unga yaqinlashib shivirladi:

- Qiz bilan ko'ngil ochish uchun keldik, Qoram. Sanga o'rgatgulik gap yo'q-ku.

- Bir hangama-de, polvon yigit!- do'stining so'zini quvvatladi Jondor vagonchi.

Qora Ahmad jahl bilan dedi:

- Bu yer undoq emas-ku, boyvachcha akalar! Bizga nimani buyurgan edinglar? Qizni olib qochish, ham bir qancha vaqt isini chiqarmay saqlash, shundaymi?

- Shunday. Xo'sh, gapim qattiq tegdimi sanga? Unday bo'lsa...

- Po'skallasini aytaymi,- Tantining so'zini kesdi Qora Ahmad,- man qizni saqlay olmadim. Kecha qo'lidan uchdi u. Bilmayman, hozir qaysi bog'da, qaysi tog'da...

Tantiboyvachchaniig yuragi zir etib ketdi. Asabiylanib, o'zgargan tovush bilan bobilladi:

- Aljirama, Ahmad, to'g'ri so'zla. Dev poylagan tilsimdan uni qaysi mard olib ketadi! Yana man sanga, ehtiyyot bo'l, ishning tagi nozik demaganmidim? Be...

- Ishonmasangiz, kirib axtaring,- dedi dag'allik bilan Qora Ahmad,- boshqa gumoningiz bo'lsa, axir bir kun uchini bilib qolarsiz... Tantining nafasi ichiga tushdi. Peshanasini qashidi. Jondorga tikilib bir nima demoqchi bo'ldi, ammo so'z topolmadi. G'azablanib Qora Ahmaddin so'radi:

- Kim ekan u sanga bas kelgan yigit?

- Bir yigit-da,- Qora Ahmad Yo'lchini ta'riflashni nechundir istamasdan, davom etdi so'zida,- mazmuni, ikkovi ilgaridan don olishib yurgan ekan.- Qora Ahmad kecha u yigit bilan ancha olishganini aytsa-da, yengilgani to'g'risida. yigitning kuchi to'g'risida hech nima demadi. (Bular bilan qorong'ida so'zlashganiga ichidan sevindi. Aks holda, ko'karib shishgan basharasi chapanining izzat-nafsini so'ndirgan bo'lar edi!) Ortiqcha shov-shuv ko'tarilsa, javobgarlikka tortilib, qamalishdan qo'rqqanligini va shu sababdan ilojsiz qolganini bahona qildi. Tantiboyvachcha jahldan qaltiradi. Birinchidan, ishning tubi ochilishidan vahimaga tushdi; ikkinchidan, Jondor vagonchi kabi do'stini g'oyat quvontirgan "ajoyib tansiq o'tirish" va'dasining bunday puch, bunday ishkal bo'lib chiqqanligidan uyaldi. Qizni olib qochganda ehtiyyotsizlikda, bo'shanglikda Qora Ahmadni aybladi. Koyidi. Ammo ishni bajarishdan avval, birmuncha naqd aqchani sanab olgan Qora Ahmad, endi boyvachchadan tap tortmadni, chapanicha dag'allik va kinoya bilan javob qaytardi:

- Boyvachcha aka, bundaqa ishni buyurmang, buyursangiz agar, ketidan pachavasi chiqmasligi uchun, do'ppini yerga qo'yib xo'p o'ylab ko'ring oldin... Biz chumchuqning imiga qo'l tiqmadik, qo'r'g'onday hovlidan butun boshli odamni olib chiqdik, shunday shahri azimda aravada keltirdik. Ayb sizlarda, ko'zni lo'q qilib, tilni soqov qilmagansizlar...

Qora Ahamadning so'zlari Tantiboyvachchaga qattiq to'qindi. U bilan xayrashmasdan, vagonchining orqasidan sekingina jo'nadi. Yo'lda ikki do'st "churq" etishmadi. Vagonchi sovuqqina xayrashib, o'z mahallasiga qayrilarkan, Tantiboyvachcha bir muddat qorong'i ko'cha o'rtasida turib qoldi. Papirosni tutatib: "Qiz bilan don olishgan yigit kim? Pardani kim ochdi?" degan savollarga javob topolmay, Salimboyvachchanikiga yugurdi.

II

Ertalab Shoqosim bir parcha eski qog'ozga o'ralgan xushbo'y, qandaydir, bir o'simlikning qovjiroq gulini keltirib, qaynoq suvda ezib qizga ichirishni buyurgan edi. Yo'lchi bu dorini ikki marta tayyorlab berdi. Kechga yaqin Gulnorning ruhi ancha yengillashdi, issig'i ozaydi, nafas olishi ham asta-asta durustlashdi. Shoqosim qaerdadir pishirib bergan serqatiq xo'rda oshdan u yarim kosa ichdi. Uning yuziga yana tabassum yoyildi. Yo'lchi bilan suhbatlashib yotdi. Ikki sevguvchi qalbning orzulari, o'ylari, qarashlari har masalada g'oyat mos kelar, ularning sevgi va sadoqatlarini yana kuchliroq alangalatar edi. Gulnor o'zida zarra qadar kuch sezmasa ham, xavf-xatardan qutulish uchun bu kecha, bu yerni, albatta, tark qilish zarurligini uqtirdi. Bunga uzil-kesil qaror qilishgach, Shoqosimni ishdan uzib, xo'jayindan gap tegdirmaslik uchun, arava-ulov axtarish va mumkin bo'lsa, Qoratoysa uchrashishga Yo'lchi o'zi bormoqchi bo'ldi. Gulnor e'tiroz qilmadi. Lekin, uni kuzatarkan, "uzoq yurmang, ehtiyot bo'ling" deb yalindi.

Yo'lchi ertasiga Qoratoysa uchrashgani Shoqosimni yubormay, o'zi ketdi.

Yo'lchinining ketganiga bir soat qadar bo'lgan edi. Gulnor ko'rkam sochlarini tuzatib, shamdan ko'zini olmay, allaqanday sirli, lekin ruhni to'lqinlatmay, balki unga orom beruvchi, chiroyli tush kabi yengil va totli kechinmalarga, o'ylarga berilib o'tirdi. Eshik to'satdan qattiq itarildi. Uzoqda Shoqosimning kim bilandir xirillashgani eshitildi, Gulnor "eh" deb boshini devorga urib oldi, bir onda vujudini titroq bosdi, nafasi kesilib, ko'z oldi qoraydi. Tashqarida endi kuchaygan tovushlar uning qulog'iga ma'nosiz bir g'uvillash bo'lib yetdi.

- Och eshikni!

Eshik qarsillab, haligi xitob bir necha marta takrorlangandan so'ng, Gulnor quruq, titroq lablari bilan g'ayri shuuriy ravishda: "Nima, kimsiz?" deya bildi, ammo u turgan joydan qimirlashga ojiz qoldi.

- Man, man! Dardingda kuygan dadangman! Gulnor o'z dadasining tovushini bazo'r ayira bildi.

Kuchli sarosima bilan yalindi:

- Dadammi? Dadajon, Yo'lchi kelsin, keyin... Eshik orqasida birdan jimjitlik sezildi. G'am, qo'rquv titrog'i bilan ezilgan Gulnor ko'rpage o'ralib o'yladi: "Nega kecha qochmadim? Yo'lchini ko'chada yoqalagan bo'lsalar kerak, nega anov boyvachchalarni, anov muttahamlarni bo'g'maydilar? Menda nima gunoh, Yo'lchida nima gunoh? Aybimiz, gunohnmiz muhbbati mizmi?"

- Oching, qizim! - birdan yet erkak ovozi eshitildi. - Yo'lchini ham chaqiramiz. Dadangiz siz bilan ikki og'iz so'zlashib, fikringizni bilmuoqchi. Aqlli, nomusli qiz o'z dadasining so'zini hech vaqt qaytarmaydi. Agar so'zga quloq solmasangiz, oyim qiz, u vaqtida dadangiz eshikni bir tepadi-da, kiradi. Bu yaxshi bo'ladi? yo'q!

- Qizim, dadang, enang hasratingda kuyib bitdi. Bizni o'ladirishga qasd qilganmisan? Gapir! - Yig'i aralash so'zladi Yormat.

Bu so'z Gulnorga qattiq ta'sir ko'rsatdi. Ko'z yoshlari beixtiyor quyulib ketdi. U o'rnidan turdi, majolsiz oyoqlari bilan bazo'r yurib, eshikning zanjirini tushirdi, yana kalavlanib o'z joyiga o'tirdi. Yormat kirib eshikni yopdi. Qizining oldiga tiz cho'kib, yuziga tikildi, peshanasidan asta siladi. Ko'z yoshlari hasratdan bujmaygan yuzlaridan va soqollaridan mo'l-mo'l oqaverdi. Halqumini bo'g'gan yig'idan qiynalib bazo'r gapirdi:

- Alhamdulillo, ko'rdim, tirik ekansan, noqobil bolam. Aftingga qara, o'sha Gulnormisan, tanib bo'lmaydi!

- Kecha og'rib qoldim, dada, - boshini quy'i solgan holda javob berdi Gulnor.

- O'sha haromi Yo'lchi tufaylidan shuncha azob chekasamn, qizim? Qani u haromi, qani juvonmarg? O'xshatib jazosini beray hali man uni...

- Shoshmang, dada, - Gulnor uning so'zini kesib qichqirdi, - nega Yo'lchiga jazo berasiz, unda hech gunoh yo'q. Unga rahmat deng. U mani o'limdai qutqardi. Mard ekansiz, bonvachchalarga jazo bering, ularni sharmanda qiling!

- Axir, kim sani yo'ldan adashtirdi, kim sani bu holga soldi? U emasmi! - "qo'lini paxsa qilib qichqirdi Yormat.

Naq shu vaqtda tashqaridan yet erkak ovozi yangradi: - Yormat, man kirmoqchiman!

- Pana bo'l! - qiziga buyurdi Yormat.

Gulnor ko'rpaning bir chekkasini boshiga tortib yashirindi.

Olimxon ellik boshi hujraga kirdi, jirkangan nazar bilan u hujradagi narsalarni ko'zdan kechirib, Gulnordan pastda, devorga suyalib cho'qqaydi. Keyin sip-silliq soqolini silab, xo'mraydi.

- Yormat, bu yerda so'zni chuvaltirma. Qizingni avrab uydan qochirgan odam Yo'lchi shayton ekani ma'lum bo'ldi. Endi maslahat shuki, qizingni yetaklab, tezroq uyingga jo'na. Yo'lchi mendan qochib qutulolmaydi. Uning jazosini san emas, man beraman!.. Turing, qizim, - ellik boshining tovushi birdan muloyimlashdi, - ota-onaning boshini bukmang. Yoshlikdan, qisqa o'ylaganlikdan u bechoralarni ancha tashvishga soldingiz. Biz bu galcha kechiramiz. Uyga boring, ota-ona oyog'iga bosh qo'ying, ulardan rozilik oling!

- Tayyorlan, qizim. Sanga yurt otasi ellik boshimiz gapiradilar. El orasida mani sharmanda qilma, yolg'iz qizimsan, ayab turibman... - keyingi so'zlarni Yormat zarda bilan aytdi.

Gulnor bu yot kishining ellik boshi ekanini bilgach, g'azabi shiddatlandi. Uning oldida hamma gapni ochib tashlab, Yo'lchini oqlashga jazm qildi. Nafasini rostlab, ko'rpa orasidan:

- Ellik boshi sizmi? - dedi piching bilan jo'rttaga Gulnor, - ikki og'iz arzimni eshitasizmi?

- Gapiring, - istamasdan javob berdi Olimxon. Gulnor hamma o'tgan voqeani hayajon bilan, lekin dadil so'zlab, hali bitirgani yo'q edi, Yormat o'rnidan sachrab turib qichqirdi:

- Rostmi? Man u boyvachchalarga nima yomonlik qilibman! Man hali...

- Jim! - ko'zlarini Yormatga olaytirib qichqirdi ellik boshi. - Xumkalla! Shariat yo'lidan toygan qizning so'ziga ishonasanmi? Bari hiyla, bari ayyorlik, makr! Yurtning eng obro'li odamlari bo'lgan Salim, Tantiboyvachchalarga bo'hton ag'darishga yo'l qo'ymayman. Chunki ular olijanob odamlar, ularning dilida tariqcha dog' yo'q. Bilaman, anov o'g'ri yigitlar - Yo'lchinining sheriklari

bo'ladi. Boyvachchalar nima sababdan qiz qochiradilar, ularga bundan nima foyda? Bo'htonning ham epi bo'ladi-da!

- Yolg'on!- jahl bilan qichqirdi Gulior,- Yo'lchi hech gunohkor emas, taqsir. Mani qutqargandan keyin, qaerga borasiz, deb mandan so'radi. Uyga qaytmayman, boshqa yerga boramiz, dedim. U mani shu joyga keltirdi. Biz birga tirikchilik qilishga ahd qilganmiz, buni hech kimdan yashirmayman.

Ellik boshi qovog'in solib, bir oz o'yaldi, qizning irodasini sindirish uchun do'q, tahdidni kuchaytirishdan boshqa chora topolmadi:

- Qizim,- Gulnorga murojaat qildi u,- yaxshilikcha uyg'a jo'naysizmi, yo'qmi?

- Bormayman, Sizlar topgan erga tegmayman, undan ko'ra o'lim yaxshi manga,- qagKjiy javob berdi Gulnor.

- Shariatimizni oyoq ostiga olib tepmang,- bo'g'ilib gapirdi ellik boshi,- man sizni ayab turibman, so'zimni tinglamasangiz, xalq orasida sizni toshbo'ron qildiraman. Boshqa qizlarimizga, pokiza ayollarimizga ibrat bo'lsin. Shariatimizning buyrug'i ham shu. O'zboshimcha qizga marhamat yo'q!

- Mayli!B'T"deb qichqirdi Gulnor.

- Yormat, odammisan, otamisan!- deb baqirdi ellik boshi,- O'l, kesak! Yelkaga ort qizingni!B'T"dedi-da, o'zi tashqariga chiqib, eshikni "qars" yopdi, hovli o'rtasida notinchlanib yura boshladi, ko'chaga ham bir-ikki topqir chiqib keldi. So'ngra, Parpi yog'chi bilan bir chetda qaqqayib shivirlashdi. Hujra eshigi ochildi. Yormat qizni surgabmi, qo'ltiqlabmi, olib chiqdi, qiz nima yopinganini Olimxon qorong'ida ko'rmadi. Faqat qiz, kimnidir qarg'ar, "o'ldiringlar!" deb ho'ng-ho'ng yig'lar edi. Ular qorong'ida ko'zdan yo'qolgach, ellik boshi birdan g'olib, kibrli vaziyat oldi va Parpixo'ja yog'chiga so'zlabi:

- Ko'rdingizmi, noqobil farzand. Man uni yurting katta boyiga unashirsam, nodon qiz bir yalangoyoq bilan qochibdi, kulib turgan baxtiga yuzni teskari burish - bu qanday nonko'rlik! Rahmat sizga, musulmon komil odam ekansiz. Biz qaydan bilar edik, boshlari oqqan tomonga qochardi ketardi. Lekin gap shu yerda qolsin, durustmi?- Ellik boshi qorong'i ko'chaga chiqdi. Parpixo'ja yog'chi uning pinjiga tiqilib, ancha yergacha sekin-sekin so'zlab bordi:

- Mahallamning birmuncha obro'li odamiman, Olimxon aka. Alhamdulillo, shu vaqtgacha nomimga dog' tegdirgan emasman. Uyimga qiz qochirib kelishga kimning haddi bor? Bunga chidab bo'ladi? Alhamdulillo, musulmonman. Sezgan zamon tepe sochim tikka bo'ldi. Man Yo'lchini durust yigit deb o'ylardim. Boyning mollariga kunjara olardi, haligi xizmatkorlarim bilan og'ayni edi. Endi bilsam, ko'p axloqsiz yigit ekan Yo'lchi juvonmarg. Qanday payqading, deysizmi? Bunisi qiziq. Kecha xuftondan qaytsam, hujra eshigi tirqichidan yorug' ko'rindi. Haligi ho'kizim juvozzonada. Iya dedim, sekin borib qulq soldim. Ayol ovozi... G'alati gaplar. Tirqichdan mo'raladim; Yo'lchi ham yetuk bir qiz. Yana qulq soldim. Hamma sir manga ayon bo'ldi. Qiz Yormatnik! Kechasi bilan yashirin poyladim. Keyin qiz notob bo'lib qoldi, bundan ham xabarim bor... Yormat eski mijozim ham chin musulmon odam. Kambag'al bo'lsa ham, insofi bor, aqli bor, nomusi bor. Qancha yil mandan kunjara oldi. Darrovunga xabar bermoqchi bo'ldim. Lekin, yana o'ylab, arqonni uzun tashlab qo'yay, dedim. Bugun kunduz xabar berdim. Ammo kun qorayganda kel, man uydaman, hovliqmasang bo'ladi, dedim. Nimaga? Kuppa-kunduzi eshigimda g'alva zo'raymasin dedim, to'g'rimi?.. Ha, barakalla. Mana ish silliq chiqdi. Haromi Yo'lchi bo'lganda edi, bir to'polon yasardi aniq...

Parpixo'ja yog'chi payloqchilik, chaqimchilik ishining muvaffaqiyatidan g'ururlanib, ko'z uchi, qulog'i bilan to'plagan ma'lumotini so'zlab borarkan, ellik boshi uni to'xtatdi.

- Xayr, rahmat,- qadamini tezlatdi.

U to'g'ri kelib Mirzakarimboyga yo'liqdi. Qiz bir o'rtog'inikiga o'ynagani borib, u yerdan bir oz uchinib-qoqinib kelgani uchun, nikohni yana uch-to'rt kun keyinga surishga to'g'ri kelganini so'zlabi, Zavq-safoni tezroq totishga intilgan Mirzakarimboy e'tiroq qilsa ham, nihoyat, qabulga majbur bo'ldi. Olimxon qizning sarpasini ertagayoq Yormatnikiga chiqarishni ta'kidladi. Boy uni bir oz hangamalashib o'tirishga qistasa ham, bir ishni bahona qilib ko'chaga chiqdi. Chunki Yormatga ba'zi gaplarni uqtirishni istadi: jumladan, qizning boyvachchalar haqida so'zlaganlarini tamom ma'nosiz, "uydirma gaplar" ekanimi isbot qilish va qizni qanday asrash to'g'risida ba'zi choralar ko'rsatishni lozim topdi. Bundan boshqa, o'z qo'liga qo'ndirgan chiroyl qizdan ayrilgan Yo'lchi achchiqlanib, mahallada biron to'polon ko'tarmasligi uchun, agar uning qorasini ko'rinsa, tezda bir chora ko'rish uchun, ko'chada yurishni zarur bildi. Boyning darvozasi oldida u yoq-bu yoqqa yurib, Yormatga qanday isbot qilishni o'ylarkan, boyning yo'lagida oyoq tovushi eshitilib, odam ko'lkasi chiqdi.

- Salimjonmi?B'T"dedi astagina Olimxon.

- Yo'q, man.

Ellik boshi Tantiboyvachcha bilan uchrashganiga sevindi. Darrov uning qo'lting'iga kirib, bir necha qadam nari olib borib, to'xtadi.

- Kelinimiz topildi, inim Mirishoq,- dedi shivirlab ellik boshi.

Tantiboyvachchaning nafasi ichiga tushib ketdi, lekin bu o'ng'aysiz, chatoq ahvoldan qutulish uchun yana o'zini bilmaslikka soldi va sekingina dedi:

- Qaerda ekan u daydi qiz?

- Boyvachcha,- kinoya bilan kulib shivirladi ellik boshi,- to'g'risini aytalmi, sizlar bu ishni eplay olmadinglar. Bunday ishga, benihoyat uquv, chapdastlik, xo'sh, yana muhokama va mohirlik kerak. Endi Salimjonga kirib aytin, bunday ishdan qo'lini tiysisin! Bu bir, so'ngra hovliqmasin, xafa bo'lmasin. Biz bu to'g'rida "churq" etib og'iz ochmaymiz. Aybni kimga o'tkazishni bilamiz. Ammo maning yaxshiligidan unutmasin. Bu axir yomon gap...

Tantiboyvachcha indamay qoldi. Papirotni labiga qistirib, bir qancha gugurtni chaqa-chaqa bazo'r yondirdi. Gugurt olovida ellik boshi uning yuzidagi sarosimani, titroqni ko'rib, zaharxanda qildi. Boyvachchalarining tuzog'idan qizni Yo'lchi ilib ketganligi va boshqalarni aytishni, o'z mantiqiga ko'ra, lozim topmadidi. Taitiboyvachchaning bu haqdagi savollariga "bir chaqqon yigit" deb javob berdi.

- Olimxon aka,- dedi yalingan tovush bilan Tanti,- Salim o'z dadasi bilan hazillashmoqchi bo'ldi. Man ham, to'g'risi, bu hazilni ma'qul ko'rdim. Xudo haqqi, bu narsa hazil edi. Ammo bir oz qo'pol hazil bo'lib chiqdi. Salimni qizartish yaxshi emas. So'zingizda turing...

- Yaxshiligidan unutmasin, so'z bitta!- deb ellik boshi Tantining qo'lini qisdi.

O'n to'rtinchi bob

I

Gulnor o'z uyida ota-onaning tergovi ostida uch kun qamalgandan so'ng, Mirzakarimboyga uzatilganiga bir oyga yaqin bo'ldi. Kelin ichki-tashqi dang'llama hovlida, saroyday hashamatli, boy bezakli uyldarda uni hech narsa qiziqtirmas, bu xonodonning

odamlari ham, narsalari xam dushman, yet, sovuq ko'rinar edi. Yo'lcha bilan bir kecha-kunduz birga yashadigi u hujra, Shoqosimning uvadalari bilan to'la, qorong'i tor hujra Gulnor uchun, garchi u yerda ming tahlika, qo'rquv ostida qamalib o'tirishga, nihoyat, tutilishga to'g'ri kelgan bo'lsa ham, go'zal, shirin tuyg'ular, u yerda Yo'lchi bilan kechirgan soatlar umrining eng mas'ud, eng unutilmas, eng yorqin damlari, umr tunida porlagan nodir yulduzlar edi.

Gulnor butun yuragi bilan Yo'lchiga maftun, uning ko'ksini baxtsiz sevgi hasrati va ayriliq lim-lim to'ldirgan. Uning xayolida yolg'iz Yo'lchigina uchadi, fikran u bilan so'zlashadi, go'yo yigit uning sochlarni silaydi, kuchli, keng ko'kragiga uning boshini olib erkaklaydi, ishq, yoshlik nuri to'la ko'zlar bilan unga termuladi, go'yo yuragidagi chin, yolqinli muhabbatni so'z bilan ifoda qilolmay, boqishlari bilan bayon qiladi...

Bu dardli hayotda Gulnorga yagona baxt - Yo'lchining singlisi Unsin bo'ldi. Bu, o'n besh-o'n olti orasida bo'lgan, qoramtil, lekin toza, sog'lom yuzli, ko'zlar bolalarcha o'ynoq - sho'x, jingalak sochli, bo'ychan, qishloqcha sodda, samimiy bir qiz edi. Gulnor uning burnini, peshanasini va ba'zi harakatlarini Yo'lchiga o'xshatdi. Oldi-keti bolalar bilan to'lgan Tursunoy, Sharofatxon Unsinni cho'riga aylantirdilar. Qiz ularning bolalarini boqadi, kirlarini yuvadi, uy-joylarini yig'ishtiradi va har qanday yumushni so'zsiz bajaradi. Unsinning xo'raniishi, og'ir yumushlarni bajarishi Gulnorga qattiq ta'sir qildi. Kelinlarning achchiqlanganini sezsa ham, har vaqt Unsinning chaqirib, o'z yonida uzoq olib o'tirishga tirishadi. Gulnor qiz bilan gaplashganda uning qishlog'i, uy-joy, tirikchiliklari, onasi - u bechora xotinning vafoti va shuning singari narsalar to'g'risida so'z ochar edi. Yo'lchi to'g'risidagi qizning so'zlarini chuqur diqqat bilan, yurak to'lqini bilan tinglar, ixtiyorsiz quyulib kelgan qaynoq ko'z yoshlarini, Gulnor ba'zan zo'rg'a yashirir, ba'zan yashirishdan ojiz qolar edi.

Hech nimadan xabarsiz Unsin, ba'kjzi vaqt: "Nega akamni ko'rmayman, tog'am qayoqqa yuborgan?" deb Gulnordan so'raydi. Gulnor esa titraydi, qanday javob berishini bilmay, boshqa gapga chalg'itadi. Ba'zan yuragi toshib, butun dardini, yaralarini Unsinga ochishni istaydi, lekin yetim qizni qayg'uga botirishdan qo'rqadi. Chunki qizga sevikli akasining baxtsizligi qattiq ta'sir qilishi Gulnorga ravshan edi.

Kechga yaqin. Qor shiddat bilan yog'adi. Tumanlangan deraza oynalarida yirik qor parchalari oq kapalakday urinadi. Bolalar hovli sahnida qishning toza oq momig'ida yumalashib o'ynashadi. Gulnor bilan Unsin tanchada o'tirib, bir-biriga mehribon egachi-singiday so'zlasharkan, bolalardan biri yugurib keldi. Sovuqdan qizargan barmoqlarini og'ziga tiqib, puflab Unsinga dedi:

- Yo'lchi akam chaqiryapti, yo'lakda.

Gulnor, go'yo Yo'lchi uni ham chaqirgan kabi, naq Unsin bilan baravar o'rnidan sapchib turdi. Akasining daragini eshitib yuziga tabassum yoyilgan Unsin, yalt etib Gulnorga qaradi. Uning yuzida parishonlik, sarosima, ko'zlarida chuqur dard sezdi. Gulnoring gavdasi yuragida qo'z'g'algan hislar bo'ronida nozik novda kabi qaltirar edi. Unsinning nash'asi uchqun kabi bir onda so'ndi.

Gulnor esa oyoqda turishga ojiz, tinkasi qurigan bir xasta kabi, umidsizlik bilan yana sekingina o'tirdi va taajjublangan qizga shivirladi:

- PÿPµP· C‡PëT>PëPSPi, P°PeP°PSPiPëP· ...

Yo'lchi bundan bir yarim oy ilgari kechqurun, o'z hayot quyoshi Gulnorni Shoqosimning hujrasida qoldirib, ulov qidirishga ketgan edi, Qoratoysa yo'liqdi, qiyinlik bilan bir aravani baylashdi, Gulnor uchun qalin kiyim, paranji, kavush topishni, aravani yarim kechada keltirishni Qoratoysa topshirib, o'zi soat o'narda qaytdi. U to'ppa-to'g'ri hujraga otildi: "Gulnor, Gulnor!" deb qorong'i hujrada o'z yorini qidirdi, tovushiga yori javob bermagach, butun ichi qaltirab, juvozxonaga yugurdi, hayajonlanib Shoqosimni chaqirdi. Do'sti ikki bukilib, qorong'i juvozxonadan chiqarkan, uning ikki qo'lini tutib, bo'g'ilib so'radi: "Qiz qani? Nima bo'ldi?" Shoqosim uzun bir "uh" tortib, butun fojeani - Yormat bir amaldor odam bilan to'satdan yetib kelib, eshikka yopishganligi, u qarshilik ko'rsatarkan, xo'jayin uni urib ko'chaga sudraganligini, noiloj qolib, Yo'lchi yo Qoratoysi topish uchun ko'chama-ko'cha yurganligi, nihoyat, qaytgach, bu yerda hech kim qolmaganini so'zlatdi. Yo'lchi otxona ustuniga suyalgancha yarim soat qadar jim qotdi. So'ng, bu sirni Yormatga kim topshirishi mumkinligini so'radi. Shoqosim "hamma baloni xo'jayini Parpixo'ja yog'chi, boshlab kelganini" taxmin qilganini shivirladi. Yo'lchi, kimgadir, tahdid qilgan kabi, mushtumini siqib ko'chaga otildi.

O'sha kunlar unga yolg'izgina g'azab va kin hokim bo'ldi. Kin va alam bilan sug'orilgan fikrlari eng keskin chorala, eng dahshatli mojarolarga undadi. Lekin ellik boshi Yo'lchining' iziga qorovul, hatto mirshab tushirganligidan xabardor bo'lgan va bu kunlarda urinishning foydasizligini yaxshi bilgan Qoratoysa, Yo'lchining tadbiralarini ma'qul ko'rmadi, har bir fikrining behuda ekanini tushuntirishga tirishdi.

U kunlardayoq Mirzakarimboy dargohidan tamom chekilgan Yo'lchi bir oy har yerda darbadar kezib, bu kun singlisini ko'rgali kelgan edi.

Unsin xizmatkorxona eshigida mag'rur, lekin g'amli, o'ychan holda turgan akasini ko'rish bilan yugurib borib, uni quchoqladi. yigit singlisining boshini silab, dardli tabassum bilan termildi:

- Aka, nimaga jim bo'lib ketdingiz? Tobingiz yo'qmi? Ozibsiz-a... Man sizni juda sog'indim. Har kun tushimda ko'raman...- dedi qiz.

Yo'lchi singlisini xizmatkorxonaga olib kirdi. Ikkisi ham namatchaga o'tirishdi. Bir necha minut so'zlashgandan so'ng Yo'lchi so'radi:

- Unsin, bu oila qalay? Ketasanmi, yo bu yerda qola turasanmi?

Unsin javob bermadi, bir lahma o'ylagandan so'ng o'zi savol qildi:

- Siz-chi?

- Man bu yerdan ketdim,- ko'zini yerga tikdi Yo'lchi.

Unsin onasidan yodgor qolgan va yagona ziynati bo'lgan yupqagina eski kumush bilaguzukni aylantirib gapirdi:

- Man ham qolmayman, aka. Yumushlari og'irdir, deb o'ylamang, yumush mayli, o'zim xohlamayman,

- Nimaga?

Unsin akasining ko'zlariga g'amgin, lekin chuqur mehribonlik bilan boqdi va ko'zlariga to'lgan tomchilarni bazo'r tutib javob berdi:

- Bu yerdagilar sizni xafa qilmagan bo'lsalar, siz birdan ketib qolarmidingiz? Siz xafasiz, yashirmang, aka.- Unsin bir oz to'xtab, so'ng yana davom etdi:**»**"Man bu uyda Gulnor opam uchun sochim oqarguncha xizmat qilishni istar edim. U mani tug'ishgan opadan afzal sevadi, shunday yaxshi juvon bo'ladi? Mani naq kichkina qizday quchoqlaydi, ovinadi, yonimdan ayrligusi kelmaydi. Baribir, man bu uyda turmayman. Gulnor opani unutmeyman sira, uni qo'rgali, tez-tez kelib turaman..."

Gulnor Unsinni chuqur sevishiga va bu qiz bilan so'zlashib yupanishiga Yo'lchi shak qilmas edi. U o'z singlisini Gulnordan ayirib, uni zolim tanholik quchog'ig'a otishni istamaganidan, yana bir necha vaqt Unsinni bu yerda qoldirishga - agar xo'jayinlar ma'qul ko'rsa moyil edi. So'ngra, Unsinning yashashi uchun muvofiq bir oilani hali ko'zlagani yo'q edi. O'zi boshpana topa olmas ekan, yosh qizni qaerga o'rnatshiradi?

- Nimaga xohlamaysan, yolg'iz man ketganim uchunmi? Xo'jayinda mening haqim turibdi hali, san bu yerda tekin ovqat yemaysan, singlim.

- Qo'rqaman bu yerda,- Unsin boshini egib, qo'li bilan ko'zlarini yashirdi.

- Kimdan? Nimadan?- sergaklanib so'radi Yo'lchi.

- Salim akadan. Yolg'iz ko'rsa, tegishaveradi. Yomon gaplar gapiradi...- Unsin boshini yerdan uzmadi va yuzi bir lahzada olovlandi.

Yo'lchi tishini qisib, indamasdan o'rnidan turdi. Unsining qo'lidan ushlab turg'izdi. Uni erkalab boshini, yelkasini siladi:

- Jonim, ichkariga kirib tayyorlan. Chaqirganda chiqasan, ketamiz, o'ksima...- dedi-da, Yo'lchi ichidagi og'riqning zarbiga chidolmaganidan, tishini tishiga bosib qisirlatib ko'chaga chiqdi. Boyning darvozasi oldida to'xtadi.

Qor kuchli yog'ardi. Ko'chalar, tomlar, devorlar, daraxtlar oppoq. Sokin, g'arib qish oqshomi. Qor kapalaklari Yo'lchining qoshlariga, kipriklariga qo'nadi, yuzlariga yopishib tomchilanadi. Yo'lchi uzoqda, machit minorasi ustida qor bilan yana ko'proq qappaygan bo'sh laylak uyasiga termiladi. Nechundir, ko'ngli buziladi. G'arib, sokin bir qish oqshomi... Egni yupun odamlar dildirab, boshlariin ikki yelka orasiga siqib chopadilar. Mana Barat supurgichi! Bozordan supurgisini chaqa qila olmay, yana orqalab qaytayotir. Ana uzun, arvohday gadoy, u Barat supurgichining eshidigan non tilaydi. U "haq do'st yo Ollo!" deydi. Ovozi atrofga yig'i kabi tarqaladi...

Mana ko'chaning boshida Salimboyvachcha ko'rindi. U olifta tikilgan qora movut chakmonga o'ralib, bir qo'lida zontik ushlab, hech qayoqqa nazar tashlamay, gerdayib keladi.

- Qay go'rga yo'qolding, yalinamizmi? Senga-ya!- yomon qarash bilan Yo'lchining oldidan o'tdi.

- Boyvachcha!- G'azab bilan qichqirdi Yo'lchi. Salimboyvachcha qonsiz yuzini asabiy burushtirib, darvoza yonida bordan qotdi.

- Baqirma, ablah! Qulog'im bor...- boyvachcha zontigini yopib, Yo'lchiga o'graydi.

- San ablah! Ko'zingni olaytirma!- boyvachchaning tumshug'iga kelib qichqirdi Yo'lchi va uning bilagidan mahkam siqdi.- Shoshma!..

Salimboyvachchaning ko'zları ola-kula bo'lib, yuzidagi go'shtlari pirilladi, bu qanday gap? Bir xizmatkor unga kichqirsin, "san" desin, "ablah" desin! Xizmatkorlardan qullarcha mutelikni, har qanday og'ir haqoratga "lom-mim" demaslikni talab qilgan boyvachcha bunga chiday olmadi. Yo'lchining yuziga urmoq uchun zontikni ko'tardi. Yo'lchi u qo'lini ham ushlab, siltadi. Zontik yerga tushdi.

- Uyatsiz! Yosh qizga tikkan ko'zlarining o'yib olaman!

Salimboyvachcha labini tiryajtirib zaharxanda qildi.

- Qo'limni qo'y, baqirish shungami! Singling kim? Podshoh qizimi? Juda oltin bo'lsa ham... Yo'q, tuzim, nonim sani quturtirgan, it!- O'dag'ayladi Salim.

Yo'lchi tishini qayrab, boyvachchaning ko'kraviga zarb bilan bir musht tushirdi. Boyvachcha gandiraklab uch-to'rt qadam narida qorga yiqildi. Yo'lchi etigi bilan uning dumbasiga yana bir tepdi. Faqat, shu onda Yormat yugurib chiqdi: "Hoy, Yo'lchi, esingni yedingmi? Uyat!" deb yigitga tirmashdi. Namozdan kelayotgan odamlar ham yugurishdi. Yo'lchini quchoqlashib bazo'r chetga surishdi, har kim o'z bilganicha nasihat qila boshladni. Boyvachcha ko'kragini ushlab, enkayib qalt-qalt titradi, so'kishni ayamasa ham, Yo'lchiga yaqinlashuvga botina olmadi. Yormat uning kiyimini qoqib qo'llitig'iga kirib, uyga yetaklar ekan, u tahdid qildi:

- Shoshma hali, peshanangdan otib, yerga cho'ziltirmasam, odam bolasi emasman.

- Chiyillama!- dedi hayqirib Yo'lchi.- Olib chiq o'sha temir sopqoningni!

Yo'lchining javobiga odamlar sekingina kulishib, "ajab qildi" deganday, bir-birlariga ma'noli qarashib olishdi. Boyvachchaning qorasini o'chgach, Qodir suvoqchi Yo'lchining yelkasini qoqdi.

- Bolam,- dedi u,- ehtiyoj bo'l. Zamon kimniki - boyniki! Odam otish ham bularga hech gap emas. Bularni pul quturtirgan, bular yomon odam: ilondon chayon tug'ilgan-da! Kambag'alning tirigi nima edi, o'ligi nima bo'ladi, shunday o'ylaydi bular. To'g'rimi gapim? B'T"odamlarga qarab qo'ydi suvoqchi. Ba'zilar "to'g'r'i" deb bosh bilan tasdiqlashdi.

- Tokaygacha ezilamiz, ota! B'T"Yo'lchi mushtumini siqdi.

- Voy xuvori Yo'lchi, bu gaping ham ma'qul, tokaygacha-a? B'T"dedi Qodir suvoqchi. Xalq tarqaldi.

II

Atrofni qorong'ilik bosdi. Yo'lchi jimjit ko'chada tanho aylanib yurib, boynikiga qaytdi. Odatda Mirzakarimboy o'tiradigan mehmonxonaning derazasida chiroq yarqirar edi. Yo'lchi uy eshigini ochish bilan ko'zları boyning o'qraygan ko'zlariga uchrashdi. Lekin u loqaydlik bilan tiz cho'kdi. Ular bir-ikki minut sukut qilib bir-birlarining g'azabli ko'zlaridan ma'no qidirishdi.

Mirzakarimboy yonboshidagi katta par yostiqni bir tomonga itarib, tasbehni sandalga qo'ydi.

- Qaer dasan, haromi? Bu yodda shuncha ishni buvingga tashladingmi? Senday yigitni asragandan ko'ppak asragan yaxshi!..

- Baqirmang,- dedi xo'mrayib Yo'lchi,- shu vaqtga davr eshitdim, chidadim, endi-chi? Yo'q!

Mirzakarimboyning ko'zlarida zahar yonib ketdi:

- Sanga bu tilni qaysi qiztaloq berdi!

- Zulmingiz berdi!

- Zulm?- boy yelkasini qisdi va quturib baqirdi,- san nonko'rsan, man sani tuqqanim, jigarim, dedim. Ovqat byordim, kiyim berdim, bu - zulm emish! Juvonmarg bo'l, nodon!

- Bekorgami? B'T"Yo'lchi Mirzakarimboyna tomon gavdasini cho'zib qichqirdi:- Sizda ikki yarim yil ishlab yelkam yag'ir bo'ldi. Soqolingizda bitta qora tuk yo'q-ku, yolg'on gapirasiz, uyat! Kiyim deysiz, qanaqa kiyim? Etik, chopon va boshqalarni qo'yaveray, biron ta yangi do'ppi kiyganim yo'q bu ostonada! Mana ust-boshim... Ovqat deysiz, qanaqa ovqat u? Moyli qoobnni o'zingiz qaynatgansiz, bizlarniki ma'lum, ovqat ham emas, yuvindi ham emas. So'zni cho'zmayman: men sizdan ketdim. Haqimni bersangiz bas!

Mirzakarimboy o'siq qoshlarini chimirib, sukut qildi. Yo'lchidagi bu keskin o'zgarish uning avvalgi fikrini ta'kidladi: u Yo'lchining qishloqdan qaytib, birdan g'oyib bo'lishi bilan o'zining Gulnorga uylanishi o'rtasida bir bog'lanish borligiga qanoat hosil etgan edi.

Chunki Yo'lchining Gulnorni sevishini bilar edi. Lekin, u bunga ahamiyat bermay, "arazi ko'pga cho'zilmas, yana qaytib xizmatimni bajalar" deb o'ylagan edi. Ammo hozir ish o'ylagancha chiqmadi. Yo'lchining qarori qat'iy ko'rindi. Uning mehnatidan rozi bo'lgani uchun, bunday "azamat qulni" qo'ldan chiqarishga achinsa-da, yangi va'dalar, avrash-alashlar bilan uni olib qolish mumkin emasligini sezdi, itni haydagan kabi, qo'lini silkib baqirdi: "Ket!"

- Man o'zim ketganman, haqimni bering!- dedi so'ng sovuqqonlik bilan Yo'lchi.
- Qanaqa haq?- ko'zlarini olaytirdi boy.
- Rosa ikki yarim yil ishladim. Shu muddatda, hammasi bo'lib qirq so'mga yaqin pul oldim. Haqim shumi? Va'dangiz qalay edi?
- Va'da... Hm. Nodon. Xo'jayin degan xizmatkorni qiziqtilish uchun va'da qilaveradi-da, har qanday va'daga ishonaveradimi odam!
- Xo'p, manga ortiqcha to'lamang, taomilda qancha bo'lsa, shuncha to'lang.
- Qirq so'm pul emasmi? San nonko'rga bir tiyin bermayman. Da'vo qil kuching yetsa agar,- dedi-da, boy yostiqqa yaslanib oldi. Mirzakarimboyning bunday muomalasi Yo'lchiga tahqirli bo'lsa ham, ammo kutilmagan bir hodisa emas edi. Shuning uchun u tomirlarini to'ldirgan g'azabini yenga oldi. Faqat o'zining soddadilligiga, aldanganligiga chuqur afsuslandi. Kambag'al Yo'lchiga pul g'oya emas, ayniqsa Gulnor kabi hayot quyoshidan ayrilib, eng go'zal, eng porloq umidlari singach, pulning ma'nosi qoladimi? U nimaga yaraydi? Yo'lchida o'z kuchiga ishongan, qadr-qimmatini baland tutgan kambag'al yigitning, odamlilikning g'ururi kuchli edi. Uning uchun, hozir uning nazarida olamda eng past va razil ko'ringan Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan xirillashishni, yoqa bo'g'ishni o'ziga or bildi. Sachrab o'riidan turib, boyning oldiga bordi. Masxara va kinoyaning zahrini ko'zlarida yondirib qichqirdi:

- Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, keksa tovuq!

Boy vaziyatini o'zgartmadidi. Lekin, yuzi allaqanday yomon burushib, qizarib ketdi. Yo'lchi eshikni qattiq yopib, tashqariga chiqdi. Uzun, qorong'i yo'lakdan chiqqach, Unsin to'xtadi. Qo'lidagi tugunni bir eski paxtalik nimcha, bir chit ko'yak, onasidan yodgor qolgan eski shol ro'mol,- akasiga berib paranjisini tuzatarkan, hazin tovush bilan:

- Gulnor opam yig'lab qoldi. Quchoqladi, o'mdi. Akangiz sizni uzoqqa olib ketmasin, tez-tez kelib turing, dedi.- Unsin bir lahza jim qolib, so'ng shivirladi. Sizga salom dedi, unutmasin dedi. Ha, yana ko'p gaplari bor ekan, keyin aytaman dedi, sho'rlik... Yo'lchi ko'krakni qisib, parchalamoqchi bo'lgan qayg'u to'lqini ostida, butun vujudi bilan chuqur xo'rsind. So'ng majolsiz, horg'in tovush bilan:

- Yur, singlim!- dedi.

Yangi qorni yumshoqqina bosib borishadi. Qor yorug'i bilan kecha nim qorong'i; hamma yoqni jimpitlik bosgan. Ko'cha muyushida Yo'lchi to'xtadi. Qaerga borishi mumkin? "Qish o'chog'i tor, tur, uyingta bor!" degan maqolni eslaydi u. Uni tanholik, g'ariblik, yo'qsillik iztirobi kemiradai. U ikki yarim yil boyning bo'yinturug'inu sudradi. Nima oldi! Oqibat mana shu! Unsin sovuqdan tinchsizlana boshlaydi. Oyoqlarini yerga urib, qo'llarini puflaydi va hayron bulib akasiga tikiladi. Yo'lchi bordan: "Yur, jontim!" dedi-da bir yoqqa yura boshladi. Lekin, nima uchundir, qadamini juda sekin bosgani, dam to'xtab dam yana yurgani uchun, uning izidan ketayotgan Unsin bu taraddudga tushuna olmaydi, soddadillik bilan o'ylaydi: shunday katta shaharda joy topilmaydimi?.. Rahmatli onasi nimalarni orzu qilar edi! Boy tog'agnikida ishlab, Yo'lchi ko'p pul orttiradi, uy-joy qiladi, yer oladi... qani? Yo'lchi Shokir otaning do'konxonasi eshigini astagina ochib boqdi. Chunki aksar qish kechalari mahalladagi bekorchilardan bir nechasi bu yerga to'planib, "Ahmad zanchi", "Rustam Doston" kabi jangnomalarni bironta savodli odamga o'qitib tinglashar edi. Hozir Shokir otadan boshqa hech kim yo'q. U singlisini boshlab kirdi.

- Kel, qo'zim!- har vaqtqidacha muloyim qarshi oldi chol. Lekin yigitning orqasida turgan paranji-chachvonli Unsinga ko'zi tushib, "yana nima hangama?" degan kabi, hayrat bilan Yo'lchiga qaradi.

- Ota, bu singlim,- tabassum bilan dedi Yo'lchi,- qishloqdan olib kelganimni eshitgandingiz. Boynikida yashashini ma'qul ko'rmadim.

- Yaxshi qilibsan: "Kabutar ba kabutar, jins ba jins". Ma'nisini tushunasanmi? To'g'ri, ular qarindoshing. Lekin ular sani o'z jinsiga qo'shmaydi. Ular pul jinsidan. Durustmi?.. Ha, o'zing totib ko'r dang-ku. Unday qarindoshlardan yetti yet begona yaxshi. O'zi yo'qning ko'zi yo'q; san yo'qsan, bu qizni xo'rlaydilar...

Chol odatda birov uning so'zini kesmaguncha gapirib, ishlayverar edi. Yo'lchi unga yaqinlashib, suyak yelkasini asta qoqib:

- Quloq soling, ota, co'zingiz to'g'ri. Singlim hozir cha siznikida tursa qalay bo'lari ekan?- dedi.

Shokir ota ishni yig'di, ko'zoynagini olib qo'ydi.

- San o'g'limsan,- Yo'lchiga mehr bilan tikildi chol,- bu ojiza B"qizim. Bir parcha yer hammadan qoladi, o'g'lim. Hech kim qabriga orqalab ketmaydi. Qabr o'zi boshqa bir dunyo!.. Xudoga shukur, ko'rpa yostig'im ham yetadi. Dam iliq, dam sovuq tancham bor. Yo'qni yo'ndiramiz, bu ayni maslahat... Kampirimga yo'ldosh, yetim go'daklarimga bosh bo'ladi bu qizim... Yo'lchi bu qashshoq, bu alamdiyda cholning olilianobligi qarshisida o'z minnatdorligini qanday ifoda qilishni bilmay qoldi. Uni quchoqlab o'pgusi, har bir tolasi og'ir mehnat, alam bilan sug'orilgan oppoq soqolini ko'zlariga surtgusi keldi. Darrov Unsinning qo'lidan tutdi:

- Ol chachvoningni! Mana otang B"bobong. Qadriga yet,- deda-da, Yo'lchining ko'zi namlandi.

Unsin chachvonini olib, uyalinqirab yerga qaradi va sekingina, lekin juda samimiy ravishda dedi: "Chin qizingiz bo'laman, ko'nglim bilan xizmatingizni qilaman, otajon!"

Chol kalavlanib o'rnidan turdi:

- Yura qol, qizim, man sani kampirga topshirib chiqay. U ham odamshavanda...

Yo'lchi Unsinni eshik oldida to'xtatdi:

- Singlim, o'z uyingday ko'r, tortinma. Kampirning yumushlariga qarash. Otam yolg'iz qo'l, unga ip tayyorlab ber, mahsiga shon qoqish, pardoz berish, shunga o'xshash ishlarni tez o'rganyab ol. Men o'zim tez-tez xabar olib turaman. Xayr.

Unsin akasini quchoqlab, har kun kelishga undan so'z olib, quvonch bilan chol orqasidan ketdi.

Yo'lchi ivrisiq do'konxonada yolg'iz qolarkan, o'zini, Unsinni boqish uchun ertadan boshlab biron ishga urinish zarurligiii o'yladi. Chunki boydan olinajak haqning shamolga uchganiga ishonar edi. So'ngra, belbog'idan hovli pulini chiqarib sanadi. Ayab-tejab xarajat qilgani uchun yonida yana o'n besh so'm qolgan ekan. Shokir ota chiqib ishga o'tirgach, pulning hammasini uning yoniga qo'ysi-da, o'rnidan turdi. Chol qaddini ko'tarib koyidi:

- Ol buni. Nodonliging qolmaydi-da. Yigitga pul kerak bo'ladi. Bir qoshiq yovg'onimni qizimdan ayaymanmi? Ol, belingga qistir! Yo'lchi pulni olmadi.

- Topgan-tutganim sizniki, Unsinniki, ota! Pulni nima qilay?- dedi.

Chol undan bu kun shu yerda qolishini astoydil so'rasha-da, ko'nmadi. Ert-a-indin kelishga va'da berib, chol bilan xayrashdi.

O'n beshinchi bob

I

Hakimboyvachcha Farg'onadan qaytgan kuniyoq, bir yumush buyurishga Yo'lchini so'radi. Yormat unga Yo'lchining ko'pdan buyon ishlamasligini, bir hafta avval bir ko'rinish berib, o'sha kun aloqasini tamom uzib ketganligini so'zladi. Hakimboyvachcha ko'zini katta ochib, buning sababini surishtirdi. Yormat butun voqeadan yaxshi xabardor bo'lismiga qaramay, tabiiy, aytmadidi: "Sira xabarim yo'q, Hakim aka. Uni birov aynatdimi, yo o'zi mehnatdan sovib, g'ururlik, sayoqlik yo'liga tushdimi, bilmayman", dedi. Hakimboyvachcha uchun Yo'lchi sinalgan, azamat bir malay va bir chekkasi qarindosh edi ham. Shuning uchun bu ishni surishtira boshladi. Bu to'g'rida nima eshitganligini o'z xotinidan so'radi. U qishloqdan singlisini keltirib, o'zi birdan g'oyib bo'liganligini, keyin to'satdan paydo bo'lib, Salimboyvachchani odamlar orasida urganligini va hokazolarni so'zlab berdi. Boyvachcha achchiqlandi. Lekin umuman ayollarning so'ziga inonmagani uchun, Salimboyvachchaning o'ziga murojaat qilishni lozim topdi. Salim ham butun aybni Yo'lchiga ag'darib, o'zini quruqqa tortdi. Uning "axloqsizligi" to'g'risida birmuncha gaplar to'qidi va dadasi haqorat qilganligi, haqimni yeb ketdi boy, deb ko'cha-ko'yda boyni qoralab yurganligini aytadi.

Hakimboyvachcha ilonday to'lg'andi. Bu qanday sharmandagarchilik? Uning ukasigab**B**" Salimboyvachchaga bir xizmatkor musht ko'tarsin! Mirzakarimboyni qoralasin!.. "U itga saboq berish uchun biron chora ko'rmanligidan" ukasini koyidi. Chunki Hakimboyvachcha "or-nomus"ni biladigan va uni qo'reqlaydigan kishi, u o'zining va oila a'zolarining ustiga chang qo'ndirishni istamas, oilasi bilan hech qanday oilani tenglashtirmsi edi. Mirzakarimboy xonadoni! Bu qanday ulug'vor, toza, dongdor oila!.. Bundan bir qancha yil burun, Hakimboyvachchaning yaqin do'stlaridan bir kishi, qandaydir bir o'tirishda Mirzakarimboya orqavarotdan til tegizganini eshitib, u bilan uzoq zamon olishgan, sudlarga qatnagan, uning boshiga ko'p kulfatlar keltirib, nihoyat, ko'pchilik orasida uzr aytishga uni majbur qilgan edi!

Hakimboyvachcha Yo'lchiga jazo berishga qaror qildi. Ikkinci kun peshindan keyin ellik boshini chaqirtirdi. Mehmonxonada qabul qilib, bir katta xitoy laganda uyligan qirg'ovul, kaklik go'shti qovurmasi bilan ziyofer qildi. Taom ishtaha bilan yeysilgandan so'ng, rang-barang qimmatbaho mevalar, qaymoqqa qorilgan nonlar bilan to'la dasturxon yozib, achchiq choyni quya boshladi. Naq Olimxon ellik boshining ko'nglidagiday ziyofer: jihozlarga boy, go'zal, naqshkor mehmonxonada o'tiradi, yana nodir taom, nodir mevalar, achchiq xushbo'y choy, dongdor boyvachcha bilan suhbat! Olimxon yashnab ketdi. Boyvachcha o'zining farg'onalik do'stlari bilan bo'lgan o'tirishlaridan, har turli ziyoferlardan so'zladi, uning do'stlari bo'lgan farg'onalik ikki boyning yaqinda "kim o'zarga" qilgan o'g'il to'ylarini, bu to'ylardagi bazm, uloq va har xil o'yin-kulgilarni, umuman, ovozali to'yarda bo'ladigan dabdabalarni hikoya qildi. Olimxon diqqat va maroq bilan tingladi. Keyin so'z jahon urushiga ko'chdi. Urushda oqpodshohning qo'li baland emasligidan boyvachchaning ko'ngli xira bo'ldi. Ammo, ellik boshi urush nihoyatida oqpodshoh g'olib kelishimi isbot qilishga tirishdi. U buning uchun shunday mulohaza yurgizdi: "Tarixda, ya'ni odam alayhissalom zamонидан to shu damgacha uch odil podshoh bo'lgan: No'shiravon, Horunil Rashid ham hozirgi podshohi a'zam Nekalay. Adolatli podshoh hech vaqt mag'lub bo'lmaydi. Adolat shunday zo'r bir narsa, biz Turkiston musulmonlari hamiyat kamarini belga bog'lab, oqpodshohga ko'proq yordam bersak, dushmanlar tezroq tor-mor qilinadi, zafar qulayroq va tezroq keladi..." Ellik boshining mantiqiga Hakimboyvachcha e'tiroz qilishdan ojiz qoldi. Bir oz o'ylab:**B**"Shu aytganlarinigiz to'g'ri chiqsin", dedi-da, suhbatni o'z maqsadi tomon burdi. Bu zamonda yomonlarning ko'paygani va hokazo haqida shikoyat qildi. Misol uchun Yo'lchini oldi. Ukasi Salimga u "nonko'r"ning musht ko'targanini eshitib tepa sochi tikka bo'lganini, nihoyat, unga bir jazo berishga jazm qilganini so'zladi.

- U beg'ubor yigit emas,- ayyorcha tabassum qilib, ko'zlaridagi ma'noni yashirish uchun yerga tikildi ellik boshi. - Mahalladagi yigitlarning bari manga maKjum. Yurish-turishi, ko'kragidagi dardi, diliga tukkan ginasi - oynaday ravshan. Bilish mening ishimda. Birovning moli yo'qolsa, o'g'risi bu yoqda qolib, to'g'risini yoqlaymanmi? Ba'zi ellik boshilar bo'ladi, yolg'iz nomi ellik boshi, ular mahallani tanimaydi...

- Olimxon aka, sizga hammamiz qoyilmiz,- dedi boyvachcha,- asli risoladagi ellik boshib **B**"siz. Ammo, sizga bir darra yetishmay turadi-da, mahalla fuqarosi ancha hushyor bo'lib qolardi...

- Hali ham shakalojni ishga solib qo'yamiz.- Ellik boshi panjasini yoyib kului va so'zini davom ettirdib**B**" Fuqaroda norozilik zo'raydi, boyvachcham.. Faqirlikka bo'ysunmaydi, qimmatchilikni Ollodan ko'rmaydi. Bir ko'pi boylardan ko'radi. O'g'ri, muttaham, daydilarning soni yo'q. Yaxshiki o'ris to'ralari, politsiyalar - ishbilarmon, hokimlikka usta odamlar. Ular goh qamchin bilan, goh qilich, goh to'pponcha va miltiqni ayamay ishlatib, xalqni bosib turishibdi. Bo'lmasa, xudo ko'rsatmasin, xalq allaqachon bosh ko'targan bo'lardi.

Bu so'zlar Hakimboyvachchada kuchli ta'sir qoldirdi. U yurtdagi tinchsizlikning sababini dinning susayganidan, ulamolarning xalqqa rahbarlik qilmaganidan ko'rni. Ellik boshi bu fikrni juda ma'qulladi va u ham bu xususda ancha ma'lumot berdi. Fikr olishuv natijasunda ular shunday qarorga kelishdi: Hakimboyvachcha onasining arvohiba "xatm qur'on" qiladi. Bunga Toshkentning mashhur ulamo va mudarrisleri, jadid toifasidan ham ko'zga ko'rigan shaxslar da'vat qilinadi. Ziyofat, albatta to'kin-sochii bo'ladi. Mana shu yerda xalqni tarbiya qilish, insof va tavfiqqa, sabr-qanoatga chaqirish, machitlarda namozdan so'ng xalqqa diniy va'z-nasihatlar so'zlash masalalari muzokaraga qo'yiladi...

- Boyvachcha,- jiddiy ravishda gapira boshladi ellik boshi,- bu tadbiringiz ko'p yaxshi samaralar beradi. Birinchidan, xalqqa nuqul foydali ish, chunki siz xalqni to'g'ri yo'lga boshlaysiz, ikkinchidan, yurt tinchiydi, uchinchidan, nomingiz ko'tariladi... Katta o'ris hokimlarimiz eshitsalar, juda xursand bo'lislari aniq, sizning xizmatingizni, hamiyatingizni hech vaqt unutmaydilar...

Hakimboyvachcha juda taltayib ketdi. Ayniqsa sersavlat, gerdaygan rus hokimlariga yaqinlashuv orzusi uni mast qilib, hatto Yo'lchi masalasini ham unutayozgan edi, ellik boshi yodiga tushirdi:

- Anov haromi Yo'lchini nima qilmoqchisiz?

- Ha, aytganday,- peshanasini qashib gapirdi boyvachcha,- nima qilamiz, hayronman. Durust odam bo'lsaydi u, sudga berardim, yo o'zini chaqirib, o'xshatib so'kardim. Bu narsalarga u arzimaydi. Shuning uchun qamatsak, deyman. Qalay?

- Bo'ladi. Ko'zdan yo'qolgani yaxshi...- dedi ellik boshi.

- Olimxon aka, oling shu ishni.

Ellik boshi mug'ambirlarcha jilmaydi, achchiq choyni maza qilib ho'plab-ho'plab o'yladi: "Boyvachchalar har bir ishni birov orqali bajarishni yaxshi ko'rishadi. Bu ish o'zi uchun ham oson. Manga ham qiyin emas. Mahkamaga borib Hakimboyvachchaning obro'sini dastak qilaman. To'ralarning og'ziga urish uchun pulni boyvachcha beradi. Mandan nima ketadi, qabul qilaveray; ukasi Salimboyvachcha qo'limda. Endi katta boyvachchaning ham kichkina bir sirini qo'lga ilay. Bundan qanday foydalananishni o'zim

bilaman... Ammo ellik boshi og'ir masala qarshisida qolganday, bir vaziyat oldi, yuziga mashaqqat ifodasini kiydi va taraddud bilan so'zlay boshladи:

- Boyvachcham, bu juda mushkul ish. Durust, Yo'lchi yomon bola. Ammo, biz uni orqasida qopi bilan, qo'lida tuguni bilan yoqalaganimiz yo'q, pichog'iда hali qon ko'rmasid. Mahkamadagi o'ris to'ralarini qo'lg'a olish, Yo'lchini biron narsada ayplash kerak bo'ladi. Bu narsa hazil emas! Lekin kamina sizning iltimosingizni yerda qoldirishdan ko'ra, har qanday mashaqqatni o'z zimmasiga olishni a'lo ko'radi...

Hakimboyvachcha o'z tashakkurini bildirdi, bu masaladan ko'nglini tinchitib, yana so'zni ulamo va jadidlar bilan bo'lajak majlisga ko'chirdi.

II

Qahraton qish. Nima ko'p - ishsiz ko'p. Ish topish qiyin. Mardikorlik, dala ishlari yo'q.

Yo'lchi uzoq o'ylab o'tirmadi. Ikki quloch arqonni belbog' ustidan boylab, hammollik qilish uchun bozorning eng qaynoq joyiga bordi. Bir tomon chinnifurushlik, bir tomonda attorlar rastasi. Bir tomon esa har xil shirinliklar va boshqa mollar sotiladigan "gul bozor"... U yerda otlar, aravalar, tuyalarning shovqini, aravakashlarning so'kishlari, novvoylarning qichqirishlari bir-biriga qo'shilib, allaqanday ma'nosiz, boshni aylantiradigan doymiy bir g'ovur-g'uvur yasaydi.

Yo'lchi, loy yo'lkada oyoqlarini solib o'tirgan qator hammollar yoniga suqildi. Uning oldidagi hammol, yomon nazar bilan yer ostidan qarab, yuzini teskari burdi. Yo'lchi ahamiyat bermay, o'z kasbdoshlarini bir-bir ko'zdan kechira boshladи. Bu yerda yigirmaga yaqin hammol o'tiradi. Oralarida o'n to'rt-o'n besh yoshli, xasta kabi rangsiz, oriq bolalar; yuk ko'tarish u yoqda tursin, aftidan, o'zini bazo'r eplab yuradigan tinka-madorsiz, yelkasi chiqiq, beli buzik chollar ham bor. Hammasingning belida, yelkasida eski-tuski narsa, uzuq-yuluq arqon, kiyimlari juldur, iflos; ko'plari chopon o'rniga jun qopga o'ralgan. Yo'lchi diqqat bilan tikilib, hech birining oyog'ida etik ko'rmadi: kimda poxol tiqilgan yaramas kavush yoki tushib qolmasin uchun kanop bilan oyoqqa chandib bog'langan eski kalish, yo shunga o'xshash bir narsa. Ba'zilari esa oyoqlarini churik lattalar bilan o'raganlar. Sovuqdan ko'kargan loy, kir barmoqlari churiklar orasidan mo'ralab turadi.

Hammollar o'zaro gaplashmas edilar: hammasingning notinch ko'zlarini yuk qidiradi. Mabodo bir kishi hammollardan biri oldida to'xtasa, hammalari birdan turib, uning atrofini qurshaydilar...

Yo'lchi bu yerda ikki soat qadar o'tirib, biron yukka ilinmagach, keyin bozor aylanish uchun turib ketdi. Qor erib rastalarni juda ifloslagan, hamma yoq pilch-pilch loy, balchiq suv... Bozorda yurgan xalq - fuqaro ham kir, yupun, isqirt, g'azabli; shoshadi, turtinadi, urinadi, so'kadi. Ularning ko'zlarida ifodasi qiyin allaqanday mashaqqat, kambag'alchilik dardi, turmush kechirish g'ussasi yotadi. Osonmi? Narx-navo kun sayin ko'tariladi. Xalqda pul yo'q. Xalqning aksari ishsiz. Dehqonning yozda topgani qishga yetmaydi, kosibning bir haftalik ishiga bir xalta don kelmaydi...

Yo'lchi rastalarni aylandi. Mol ham ko'p, pul ham ko'p. Lekin bular boylarniki!.. Boylar katta-kichik, sersavlat, savlatsiz do'kon va magazinlarda gerdayib o'tiradilar. Mol ham, pul ham shularniki! Urush hammaning tinkasini quritgan, qursog'ini bo'shatgan bo'lsa, ularning boshidan zar sochib, qursoqlarini yana qappaytirgan, ularning biri - un, yigirma bo'lgan! Ba'zi do'konlarda, yerdan shipga qadar qalangan mollar orasida o'n ikki-o'n uch yashar jajji bolalar o'tiradi, savdo qiladi, cho't qoqadi.

Yo'lchi birinchi kun bozorni aylana-aylana kechga qadar uch-to'rt yerga yuk orqaladi. Keyingi yukni "Ko'kcha"ga eltilib, shomda qaytdi. Jami bo'lib bir so'm yetmish tiyin pul ishlagan edi. Bir so'mga o'zi non-choy olib ichdi-da, och qornini bir qadar ovitdi, qolganini "Unsinning nasibasi" deb belboqqa tugdi.

Shunday qilib Yo'lchi hammol bo'ldi. Har kun bozor aylanib, ertadan-kechgacha tentiradi, shaharning turli tomonlariga - uzoq, yaqinda yuk tashidi. Ba'zi kunlar ko'mirsaroya tushib, ko'mir, tappi, xashak keltirgan qozoqlarning tuyalarini xaridorning uyiga yetakladi. Kuchi, g'ayrati orqasida har kungi topishini o'zi va Unsin uchun, g'oyat qiyinlik bilan bo'lsa-da, amal-taql qildi. Ba'zan har kun, ba'zan kun oralab, kechqurun Unsinni ko'rgali Shokir otanikiga keldi. Bozordan keltirgan narsalarini Unsinga berib, qizning ko'nglini yupatib ketdi. Ba'zan Qoratoyning ishxonasida, ba'zan choyxonada tunab yurdi.

Yo'lchi Gulnordan ayrilgach, yuragida ishq alangasi yana kuchaydi. Uning fikri, uyqusi, butun borlig'i Gulnor xayoli bilan band; tanho qolgan choqlarda jinni kabi, o'zi-o'zi bilan gaplashadi, haqiqatda esa, Gulnor bilan hasratlashadi...

Hammolchilikning o'ninchi, o'n birinchi kuni bir mo'ysafid kishi kappondan bug'doy ko'tartdi. Yo'lchi "Qoryog'di" mahallasiga kelib, chol orqasidan yangi, sirlangan bir eshikka kirdi.

Bu - atrofi yangi uylar bilan o'ralgan qutichaday hovli edi.

Yo'lchi oshxonadagi bordonga bug'doyni ag'darib, hovlida choldan haqini olib turarkan, qarshidagi uydan iljayib Abdishukur chiqdi. Yo'lchi shoshib salom berdi va:

- Bu hovli siznikimi, mulla aka? БЭ" dedi. Abdishukur boshini qimirlatib "ha" dedi.

- Qiziq,- kulib so'zladi Yo'lchi,- siz bilan uchrashish kimning yodida bor edi? Xo'jayinlarnikiga borib turasizmi?

- Ba'zan borib turaman,- dedi Abdishukur yaqinlashib, so'ng tikilib so'radi,- xo'sh, gapirchi, nimaga hammol bo'lib qolding?

- Shu ish qulay ekan,- dedi piching bilan Yo'lchi,- mana hozir boboyning chaqasini oldim. Ketaman. Hech kim tagimdan tutmaydi. Loaqla kechalari tinch bo'laman-ku...

Abdushukur "shu ham gapmi" deganday, labini burdi.

- To'g'risini ayt, nima? Chiqisha olmadingmi?

- Zulimga, jabrga chiday olmadim, mulla aka. Chin so'z shu... Men ham odam farzandi, tokaygacha tepki yeyman. Nimasini surishtirasiz, mulla aka, xo'jayinlar orasidan epaqaga keladiganini qidirish anqoning tuxumini qidirish bilan baravar ekan.

Ularning basharasi, ishi boshqa-boshqa bo'lsa ham, yuragi bitta bo'lar ekan. Ko'rdik, sinadik, mulla aka,- dedi-da, Yo'lchi xayrashib jo'nar ekan, Abdishukur uni to'xtatdi. Chunki sodda, o'qimagan, Abdishukurning ta'biricha "ko'zini jaholat pardasi qoplagan" bu yigitning so'zlarini unga ta'sir qildi ham bir tatar ulamosining islomni isloh qilish to'g'risida yozgan ilmiy asarini hozirgina o'qib bitirgani uchun vaqtি bo'sh edi. So'ngra Mirzakarimboy va uning o'g'llari bilan aloqasi yaxshi bo'lganidan, bu yigitning ular to'g'risidagi fikrini bilishni istadi. Yo'lchini uyg'a boshlab kirdi. Etigi loy bo'lganidan, Yo'lchi tanchaga o'tirmay, namatning uchini qayrib, pastroqqa cho'kkaladi.

Uy kichkina, lekin yorug' va toza edi. Tancha ustida gazetalar, tokchalarda kitoblar qalashib yotar edi. Qarshidagi devorda ikki kishining surati ko'zga tashlanadi: ikkisi ham harbiy kiyimda, ikkisining ham boshida "hoji do'ppi", biri sersoqol, u qilichga suyalib turadi. Ikkinchisi, yoshrog'i, buralma mo'ylovli, qotmagina. Ikkisining ham ko'zlarini o'qrangan. Bu uyning shuning kabi "bezaklari"ni Yo'lchi bir muddat tomosha qildi. Hovliga chiqqan xotinlarga yigitning ko'zi tushmasin, degan andisha bilan bo'lsa

kerak, Abdishukur o'nidan turib ikki derazaning ham pardasini tushirdi. Keyin tanchaga bemalol o'tirib, gazetalarga ko'z yogurtdi va Yo'lchiga dedi:

- So'zla, nima uchun Mirzakarim otamning uylaridan ketding, u kishi senga qanday zulm qildi? Biz ham picha eshitaylik. Kim haqli, kim nohaq, aql mezoni ko'rsatadi...

Yo'lchi o'z yuragini har kimga ochavermasdi. O'z ahvoldidan shikoyat qilishni ham yomon ko'rари edi. Lekin u hozir so'zlashga ichki bir ehtiyoj sezdi. Chunki, Abdishukurni dunyodan xabardor, o'qimishli odam deb bilgani uchun, u ma'noli bir kengash berar, to'g'ri yo'l ko'rsatar, bosh qotiruvchi savollarga javob qaytarar, deb o'yldi va shu umid bilan ikki yarim yil ichida kechirgan turmushning ba'zi tomonlaridan ma'lumot berdi, hatto baxtsiz sevgisiniig ba'zi sahifalarini ham unga ochdi. Keyin boshqa xo'jayinlarda ishlovchi xizmatkorlar, qarollar, chorakorlarni ahvollari o'zinikidan durust emasligini hayajon bilan so'zlab ketdi. Abdishukur gazetalarni ehtiyoj bilan taxlab bir yoqqa qo'ydi. Ko'rinishda Yo'lchining so'ziga oz diqqat qilganday bo'lsa ham, lekin uning biron so'zini tushirib qoldirmas edi. Yo'lchi so'zini bitirgach, Abdishukur iljaydi, sinovchi bir qarash bilan unga tikildi.

- Shumi? Jabr qani? "Yolg'iz so'z bilan emas, ko'z-qoshlari bilan ham savol qildi Abdishukur va davom etdi,- shu narsalarga arazlab, boynikidan ketding, hammollikni afzal ko'rding? EVOH holimizga! EVOH zavolli Turkiston!..

Yo'lchi uning xitoblari qarshisida bir minut taajjublanib, so'ng javob berdi:

- Mulla aka, hammollik ish emas. Man yer haydashni, ketmon chopishni yaxshi ko'raman. Yerni yashnatishga ham ancha mohirman. Lekin, qani bir parcha yer? Qishlog'imda ham yo'q, shaharda ham yo'q! Hali dedim-ku, xo'jayinlarning yerida ketmon chopmayman. Qarol, xizmatkor bo'lib ishlashga tavba qildim, Kishi bir marta aldanadi-da. Yer kuch bilan, ter bilan unum beradi. Man kuchimni, terimni to'kay, foydasini soyaparvar boyalar ko'rsin, man ikki qo'limni burnimga tiqib qolaveray! Qani insof? Yana buning ustiga haqorat, xo'rash, mensimaslik...

Abdushukur bir muddat xomush o'tirdi, so'ng bosh barmog'imi tishlab o'ylanib dedi:

- Uka, menimcha, g'aflatdasan, o'qimaganlikdan bo'lsa kerak, fikring ko'p nimarsalardan hali g'ofil...

- Siz tushuntiring. Men yoshlikdan otamga qarashdim, poda boqdim, mashoq terdim. Har kimning yumushini qilib o'sdim. Qishlog'imizda mакtab ham yo'q edi.- O'tmishni xotirlarkan, Yo'lchi og'ir xo'rsindi.

- Menimcha,- qaddini rostlab olib, jiddiy gapira boshladи Abdushukur,- G'aflating shundaki, san boy, kambag'al, yana xo'jayin, xizmatkor deysan. Qaerdan chiqdi bu gap? Bu ayni nodonlik emasmi? Manimcha, boy, kambag'al, xo'jayin, xizmatkor yo'q! Manimcha, faqat biz turkistonliklar, ya'ni turk musulmon bolalari bor, xolos. Hammamizning vazifamiz - qo'lni qo'lga berib, o'rtadagi nizolarni yo'qotib, yo u nizolardan ko'z yumib, yaktan ishslashdir.

Musulmonlar orasiga fitna solish qadar katta gunoh yo'q. Saning har bir so'zing fitna tuxumi, tushundingmi?

Yo'lchi ikki-uch minut hayrat va sarosimada qoldi. Abdishukurning so'zlarini yana bir marta o'ylab chiqdi. Keyin "Mulla aka"ga qarab, kinoya bilan qoshlarini chimirdi.

- Man xo'jayinlarning bo'yinturug'iga kallamni tiqay, ishlay, ular obdan moyimni shilsin, keyin mani "husht!" deb haydasin, man gadoy bo'lay, isiriqchi bo'lay! Siz o'z qo'lingizni birovga berib: "Surga, anov chuqurga itarib yubor!" deysizmi?.. Xo'p. Nega boy yo'q, kambag'al yo'q deysiz? To'g'ri, hammamiz musulmonmiz, bir yurtda yashaymiz. Ammo Mirzakarimboy boshqa, man boshqa! Xo'jayinlar bor, malaylar bor. Oyni etak bilan yashirib bo'ladi? Xo'sh, nega maning haq gapim fitna bo'ladi?

- Tushun,- bo'g'ilib, qo'llarini harakatga solib gapirdi Abdishukur,- tushunsang-chi axir, boy kimniki? Xo'jayin kimniki?! O'z boylarimiz, ya'ni musulmon boylari emasmi? O'zimizdan boylar, xo'jayinlar ko'paysa yomonmi?.. Musulmon boylari quvvatlansin, savdosi rivoj topsin. San buni arzu qil, yigit! Dinimiz nizoni emas, ittifoqni buyuradi. Tushunasamni bu so'zlarga? Xudoga shukur, boylarimiz orasida saxovatli odamlar ham bor. Ular faqirlarga zakot beradilar, yalang'ochlarni kiyintiradilar. Boylarimiza qarshi adovat - nodonlikdan kelib chiqadi, uka! "Abdishukur xumor bo'lganday darrov papirosga yopishdi.

Yo'lchi boshini qimirlatib, ko'z uchi bilan boqdi-da, zaharxanda qildi.

- Saxovatli boylar!- achchiq kulib davom etdi Yo'lchi.- Ular qani? Man ko'rmadim, mulla aka. Balki topilib qolar bitta-yarimta shunday bema'ni. Lekin ularning u ro'zadan bu ro'zaga beradigan sadaqasi daryodan tomchi emasmi? Boyning zakoti bilan kun kechiradigan bitta oila bormi?.. Yo'q. Boylar kambag'aldan shilishga usta. Xayr ishiga beli og'riydi. Boylarning "hiylai shar'iy" degan o'ynlari bo'lar ekan. Man buni o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bunday nayrangga hali ham hayron qolaman. Mana: o'tgan yil ro'zada bir kun kechqurun Mirzakarimboy Yormatga izvoshni qo'shtirdi. Keyin mahallaning so'fisini chaqirtirdi. So'fi, kambag'al odam, keldi. Mirzakarimboy: "Mana bu ot-arava sizniki, sizga berdim, qani, o'tirib bir javlon qilib keling", dedi. So'fi kulib izvoshga o'tirdi.

Yormat haydar ketdi. Bir ozdan keyin, aftidan, katta ko'chani bir aylanib, qaytib kelishdi. Boy, izvoshdagи so'figa yaqinlashib, bir o'n so'mlik qog'ozni ko'rsatdi, sekingina shunday dedi: "So'fi, ot-aravangizni bizga soting. Mana bahosi". O'n so'mni so'figa qistirdi. Man hech narsa tushunmadim bu hangamadan... Ertasi Yormatdan so'radim. U har baloni biladi. "Hiylai shar'iy" zakot berish degani shu dedi u. Hammasini tushuntirdi, ot-arava besh ming so'm turadi. Boy uni go'yo so'figa berdi, keyin o'n so'mga yana sotib oldi. Shu bilan boy ikki yuz ming so'm uchun beradigan zakotdan qutuldi... Buni qarang, ikki yuz ming so'm uchun o'n so'm zakot! Yana shunaqa hiylalar bilan hamma zakotdan boy qutuladi, lekin bu yilgi hiylasi juda antiqa bo'ldi, deb Yormat ham taajjublandi. Abdishukur aka, buni ko'zim ko'rmasaydim, ishonmasdim. Ammo, ko'rdim. Xo'p, bordi-ku hamma boylaringiz zakotini to'g'ri beradigan bo'lsin, lekin sadaqa bilan yashagandan ko'ra o'lgan yaxshi emasmi? Siz butun xalqni gadoy, tilanchi qilmoqchimisiz?!" Yo'lchi kinoya, istehzo bilan Abdishukurga tikildi. Abdishukur boshini bazo'r ko'tardi va sekingina ming'irladi:

- Tabiiy, boyonlarimizda ham jaholat zo'r. Ko'plari hali o'z vazifalarini tushunmaydilar, xalqqa ota bo'lishni, homiy bo'lishni bilmaydilar. Ammo sekin-sekin ularning ko'zlarini ochish, yurt otalari ekanliklarini tushuntirish mumkin bo'ladi. Gap ittifoqda, bahamjihat bo'lishda, ukam. Oraga fitna solish yomon narsa. So'ogra har kim o'z vazifasini bilishi kerak: Yaralarimiza, dardlarimizga malham qidirgan va olamdan xabardor, ko'zi ochiq odamlarimiz bor. Yurt qayg'usiga ular chora ko'radi. Sanga nima? San o'z tirikchililingni qil. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarma! Zavolli Turkiston uchun boylar kerak!

Yo'lchi g'azablanib, "Bitta o'qimishli sizmi?" deb qichqirmoqchi ham bo'ldi, lekin lozim topmadi. Tishini qisib, sabrsizlik bilan o'rnidan turdi. Hali u bu uyga kirarkan, boydan haqini talab qilish uchun "mulla aka" dan yo'l- yo'riq so'rash, mumkin bo'lsa, bir ariza yozdirish fikri boshiga kelgan edi. Endi, barchasidan voz kechdi va o'z ichida shunday o'yladi: "Boylarning jarchisi ekan. Boylar, boyvachchalar anoyi emas, unga o'z mehmonxonalaridan joy berib, ziyofat qilishlari beziz emas ekan. Boylar yurtning otalari emish! Ular ishining rivojlanishini orzu qilishim kerak emish-a! Kallami, oshqovoqmi? Essiz shuncha gazet, essiz shuncha kitob.." U eshitilar-eshitilmas ovoz bilan "xayr" dedi. Yo'lchi bu so'zni Abdishukurga aytib, u bilan xo'shlashdimi, yoki bu

so'zni "mayli" ma'nosida ishlatib, o'z-o'ziga dedimi,- bilish qiyin edi. Abdishukur o'rnidan turish-turmaslikni bilmay, bir qo'zg'alib qo'yib, yana o'tirib qoldi.

Vaqt kechga oqqan edi. Yo'lchi yana bozorga qaytishni istamadi. Choyxonalaridan biriga kirdi. Ustunga suyanib, taxta karavotda oyog'in uzzatib o'tirdi. Choy chaqirdi. Choyxonada uzun bo'yli, uzun ko'lohlal qalandar ko'zlarini yumib, qalin, yangroq ovozini baland qo'yib, Mashrabdan g'azallar o'qiydi. Paxtalik choponi ustidan uzun eski oq yaktak kiygan, boshiga kattagina salsa o'ragan, o'n-o'n ikki yashar yumaloqqina bola tiyrak ko'zlarini javdiratib, chinqiroq tovush bilan qalandarga jo'r buladi. Ular odamlardan chaqa yig'ib g'oyib bo'lgach, Yo'lchi choyni ohista ho'plab Abdishukurning so'zlarini esladi, dam achchiqlanib, dam kinoya bilan iljayib fikran Abdishukur bilan bahslashib o'tirkaran, birov uning yelkasini qattiq turtdi. Yo'lchi alanglab qaradi: choyxonada hamma tik turadi, qo'llar qovushtirilgan, ko'zlar qo'rquvli, notinch. Yo'lchi o'zidan bir necha qadam narida xo'mrayib, hammaga razm solgan shop mo'ylov, yumaloq, sariq politsiya boshlig'ini ko'rib qoldi. Bu to'ra "sartlar" to'plangan joylarda birdan paydo bo'lar, g'azab chaqmog'in chaqib, o'z hokimiyatidan "sartlar"ni ogohlantirib, yana yo'qolar edi. Ayniqsa, urush boshlangandan buyon bunday "kezishlarni" va zug'umini kuchaytirgan edi. Yo'lchi ilgari, hamma kabi, noilojdan unga salom berib yurar edi. Hozir uning zaharli nazari ostida, sekingina yerga tushdi, lekin qo'l qovushtirmadi, qandaydir xomushlik, beparvolik bilan jimgina turdi. Politsiya boshlig'i unga tomon keskin qadam tashladi, pishiq o'rilgan charm qamchini bilan Yo'lchining ochiq ko'kragini va bo'yinni uzib oldi. Yo'lchi seskanmadni, ko'zlariga g'azab quyulsa ham, vaziyatini o'zgartmadni. Qamchi uning badanini emas, ko'nglini tilganday bo'ldi. Politsiya boshlig'ining ko'zlarini ko'k olov bilan yonib ketdi, bo'g'ilgandan yuzi qizarib tirishdi. Shu vaqtida katta sallali, tetikkina bir chol qo'llarini ko'kragiga qo'yib yalindi: "To'ram, taqsir, man binovat. Pajaliska, pajaliska. Bola paradkani sapsem bilmaydi. Kechiring, to'ra!..." Yoshimni hurmat qil, deganday, ko'rkm, oq soqolini ko'ssatdi. Politsiya boshlig'i yarim ruscha, yarim "sartcha" so'kislarni bilan cholni jerkib tashladi. Bu holiga Yo'lchining yuragini ezdi.

- Ota,- dedi Yo'lchi cholga borib,- rahmat sizga, lekin zaharini solgan ilonga yalinish yaramaydi!

- Uzr ayt, bolam. Zolim bilan tenglashma!- dedi chol.

- Nima gunoh qildim? Qamchiga uzr so'raymanmi!- dedi-da, Yo'lchi sekingina o'z joyiga o'tirdi. Qo'ydek yuvosh "sart"dan bunday muomalani sira kutmagan politsiya boshlig'i achchig'idan tutaqdi. Yo'lchining yuz-ko'zi aralash yana qamchi soldi. U qimir etmadni, faqat chaqqonlik bilan qamchinning uchini ushlab qoldi. Politsiya boshlig'i keskin siltab tortdi, lekin yigit qo'yib yubormadi. Politsiya boshlig'i chala-yarim bilgan "sart"cha so'kislarni qalashtirib, yongan ko'zlarini atrofga, boshqa odamlarga olaytira boshladi, Yo'lchining bu jasoratib T"shu yerdagi hamma "sartlar"ning ishi emasmi, degan bir shubha unda tug'ilgan edn. Yo'lchi buni payqadi-da, bir zumda odamlarga qarab chiqdi. Ba'zilarning ko'zida zulmga nafrat, ba'zilarida yolg'iz qo'rquv ko'rdi. Eshikka yaqin turgan odamlarning qochishga mo'ljallayotganini sezdi. U o'z tufaylidigan bir ko'p odamlarning ayylanishi mumkinligidan qo'rqi. Qamchini asta qo'yib yubordi-da, sekingina o'rnidan turdi. Ammo, qo'l qovushtirmay, yana loqayd qoldi. Bir qo'lida chilim, bir qo'lida choynak ko'tarib, yo'l ustida choyxonachi yugurdagi turadi, u qo'rqqanidanmi, yo Yo'lchiga achinganidanmi ko'zlaridan mo'l-mo'l yosh quyadi.

Hammanning tili kesik, faqat shipga osilgan bedanalar urinadi. To'rqovoq yorig'idan bir qancha tariq va qush tezagi politsiyaning shop mo'ylovi, ko'kragiga to'kildi. Lekin u sezmadni buni. Odamlarga o'tirish uchun qo'polgina ishorat qildi. Keyin to'xtovsiz so'kib, jahl bilan Yo'lchiga ruschalab bir nima dedi. Yo'lchi boshini silkib, tushunmaslenginn bildirdi. Orqadagi bir keksa mirshab: "Otingni, dadangning otini ayt!.." dedi. Yo'lchi aytishi bilan politsiya boshlig'i va mirshab bir-birlariga ma'noli qarashdi. Mirshab Yo'lchining qo'lidan tutdi va o'qraygan holda, bobilladi: "Rosa qo'lga tushding! Uch kundan beri qidiraman sani!" Yo'lchi sababini surishtirmadi. Tishini qisirlagib dedi: "To'pning og'ziga qo'yib otib yuboringlar mani, qonxo'rlar!" Politsiya boshlig'i choyxonachiga nima to'g'risidadir baqirib, eshikka chiqarkan, Yo'lchini turtdi: "Ayda, yomon odam!" Yo'lchi orqaga burilib, butun achchig'i bilan hayqirdi: "San odam emas, cho'chqasan!" U qamchini, Yo'lchi esa cho'qmoqday mushtini ko'tardi...

O'n oltinchi bob

I

Zangori bir nur bilan porlagan tiniq samoda balandlanib, mag'rur turnalar allaqachonlar uchib o'tdi. Yana bahor... Quyosh kundan-kun kuchliroq qizdiradi. Churik bo'g'otlari osilgan, qish bo'yish shiplardan suv siljib tomchilab, odamlarni burchak-burchakka qisilishga majbur etgan eski uylarning tomlari chetida maysalar ko'karadi. Keyinroq, bu maysalar, ko'katlar orasida lolaqizg'aldoqlar qon-olov rang bilan yona boshladi. Yarmidan ortig'i sotilgani uchun, Shokir otaning tumorcha shaklli kichkina hovlisidagi nokning yo'g'on, egri, chirik tanasida qaqqaygan ikki katta butoq gul bilan qoplangan.

Yer oluvchining orzusi va rejasiga muvofiq, rahmsiz ravishda kesilib, tumorcha shakliga kirgan, keksa nokli, faqir hovlida Unsin ikki yarim oydan buyon yashaydi. Chol ham, kampir ham uning ko'nglini ko'tarishga har vajh bilan tirishadilar. Ularning biri olti yashar, biri to'rt yashar yetim nabiralari Unsinni sevadilar. Unsin kelgandan buyon kasallarga kinna solish, tuqqan xotinlarga doya bo'lish uchun kampir bemaolroq yura boshladi. Kampir yo'q chog'larda Unsin bolalarni o'z bag'rida olib o'tiradi, ularni yuvintiradi, eski-tuski kiyimlarini yamab-yasqab, butun qiladi. Kechqurun dekchani qaynatib - qora sho'rva, atala-umoch, moshxo'rda kabi kambag'alcha ovqatlarni pishirib, Shokir ota boshliq hammalari o'rtada baham ko'rishadi. Lekin qiz bularni yumush hisoblamaydi. Xalfa-shogirdsiz, yolg'iz o'zi ishlagan Shokir otaning qashshoqligini yaxshi biladi. Haqiqatan, chol u haftadan bu hafta bir necha just bachkana mahsi tayyorlay oladi. Buni sotib, charm, ip, sirach, mum singari kosibchilik uchun kerakli ashyolar oladi. Bir qancha tanga orttirib qola bilsa, ro'zg'orga xarjlaydi. Ba'zi haftalar bozordan qaytarkan, eshikdan alanganib kiradi, bo'sh xalta-xultalarni uloqtririb, kuyib-pishib so'zlaydi:

- Teri tag'in sakrabdi, oldiga yo'lab bo'lmaydi, oziq-ovqat-chi, qayda! Mosh, gurunch tugul, so'k ham ololmadim. So'k oshini ham xudo ko'p ko'rdi. Qimmat bo'lsa ham noiloj olar edim-a, lekin puldan hemiri ortmadni. He, bu urush boshga bitgan balo bo'ldi-da. German ham qursin, xalifai ruyizamin ham qursin, oqpodshoh ham qursin. Enasining mahrini talasharmikan!..

Unsin uning ishini yengillatmoq istaydi. Dastlab ip eshib, mumlab beradi. Ichkari uyda o'tirib mahsilarga shop qoqadi, shondan tushiradi, pardozlaydi. qoragul, lak surkaydi. Ammo, bu bilan ish u qadar yengillashmaganini bilgach, Unsin mahsi tikuvi o'rgatishni choldan so'raydi. Shokir ota dastlab bu talabni eshitgisi ham kelmasa-da, keyincha, qizning qistoviga bo'y sunib, o'rgatishga majbur bo'ladi. Chol unga so'zon - bigiz tutishni ko'rsatadi. Ziyarak qizning qo'li darrov kelisha qoladi. Tagiga kichkina kursi qo'yib, oyoqlariga dazgil chalmashtirib, epchil quloch tortadi. Chokni pishiq tikishi bilan bиринчи kunlardayoq eski usta Shokir otani hayron qoldiradi. Bundan so'ng ular o'rtasida ish taqsim qilinadi: chol do'konxonada o'tirib, ish pichib beradi, Unsin ichkari uyda tikadi. Shunday qilib, cholning ishi ancha qulaylashdi. U endi vaqtining ko'pini har kim keltirgan yamoqlarni yamash bilan o'tkaza boshladi...

Bunday hayot bir qarichlikdan yo'qchilikka, mehnatga ko'nikib o'sgan qizni sira bezdirmadi. Lekin, koshki akasi Yo'lchi bo'lsa.. Unsin yolg'izgina Yo'lchini yo'qlaydi, yuragi uning hasrati bilan to'la; qo'llari ish tikarkan, ko'zlaridan oqqan qaynoq tomchilar quyulib, uning go'zal yuzini kuydiradi...

Yo'lchi qanday mehribon aka edi! Hammollik kunlari deyarli har kun oqshom kelar, Unsinni chaqirib hol-ahvolini so'rар, ko'nglini yupatar va albatta, pul berib ketar edi. Qiz bu pulni Shokir otaga berib, uni quvontirar, mo'l-mo'l duolar olar edi. Qani u sevikli aka, qaerda, qaysi zindonda yotadi?!

Yo'lchining to'satdan g'oyib bo'lishi, qizni va chol-kampirni ancha tashvishga soldi. Chol bir necha kun yursa ham, tursa ham boshini chayqab: "Bu nima gap, qizim? Aqli, hushli kap-katta yigit birdan qorasini ko'rsatmay ketsin!" der, ba'zan, qizni yupatish uchunmi, yoki chindanmi, shunday deb qo'yari edi: "Ha, yigit maxluq shunaqa bo'ladi. Yo'lchining ayni olov vaqtida, biron ta o'z tengi bilan birga baxt qidirib ketdimi, xuvori!"

Chin xabarni esa keyinroq Qoratoy keltirdi.

Shundan buyon Unsin yig'laydi. Shokir ota: "zolimning zulmidan asra!" deb Yo'lchi uchun qay g'uradi.

Do'stining dom-daragini surishtirish uchun Qoratoy temirchi yelib yuguradi...

Unsin Mirzakarimboynikida yasharkan, akasining hayotida dahshatlari voqealari kechganligini sezsa-da, bu narsa unga dastlab chuqrir bir sir kabi ko'rindi. Keyinroq, Gulnor bilan har kun so'zlashish natijasida, boyning bu yosh va chiroyli xotini va Yo'lchi bir vaqtlar bir-birlarini sevishganliklarini gumon qildi. Faqat, Shokir otaning uyida yashay boshlagach, Unsin hamma voqeani - akasi bilan Gulnorning sevgi ertagini kampirdan to'la eshitdi. Tabiiy, Yo'lchining baxtsiz sevgisi yosh qizning xayoliga g'oyat kuchli ta'sir ko'rsatdi, uning yuragida chuqrir yara ochdi. Buning ustiga Yo'lchining qamalishi!.. Yuragidagi shuncha g'am-g'ussani ko'tarib, yana singlisiga onaday, otaday mehribon va gamxo'r akadan ayrilish!.. Unsin yig'laydi va o'ylaydi: "Nega u shuncha baxtsiz? Shunday chiroyli, shunday kelishgan, shunday aqlli, ko'ngli ochiq va shunday mard yigitni nega buncha qiyinaydilar!" Qiz Mirzakarimboylarni, hokimlarni, to'ralarni qarg'aydi, ularga o'lim tilaydi. Qarg'ishdan boshqa narsaga kuchi yetmaydi.

Unsin Gulnorni butun ko'ngli bilan sevar, Gulnorning xayoli yolg'iz Yo'lchida ekanini, Yo'lchi uchun doimo iztirobda ekanini yaxshi bilar edi. Lekin Mirzakarimboy uyidan nafrat qilgani uchun, bir mahallada bo'lishiga qaramay, Gulnorni bolalaracha sog'inishi va Gulnor ham unga ko'z tikib o'tirishini bilgani holda - siyrak qatnar edi.

Bahor quyoshining nurlari ko'k dengiziga sig'may toshadi. Keksa nok daraxtingullari oppoq qorday uchqunlanadi. Unsin tumorcha shaklli hovliga namat yozib, kursida o'tirib mahsi tikadi. Yupqa devor bilan hovlidan ajralgan do'konxonada Shokir ota ishlaydi. Ba'zi vaqt uning qo'shig'i Unsin qulog'iga yetadi. Chol xasta ovoz bilan kuylaydi. Ovozini bir qo'yib, yana to'satdan jum bo'ladi: "Puf-puf' Б" teriga suv purkaydi va ko'va bilan do'q-do'q urib, charmni tekishaydi... So'ng birdan yana kuyni boshlaydi. Ammo, uning qo'shig'i, yig'i kabi, yuragining bir parchasini o'lim uzib ketgan, g'arib, dardkash odamning yo'qlashi kabi tuyuladi. Unsin diqqat bilan tinglab, mana shu misralarni uqib oladi:

Ko'rmasaydim bu umr sahrosini,
Chekmagaydim ko'kka o'tlik ohini.

Pora-pora yirtdi ko'ksimni stam,

So'rg'uvchi bormi ko'ngilning zorini?..

Kampir uyda yo'q. Bolalar o'ynab kelgani ko'chaga chiqib ketgan. Qaerdadir chumchuqlar chirqillashadi. Tanho Unsin mahsi tikish bilan ovora. Mahsining choki pishiq bo'lzin uchun, mumli yopishqoq ipni har qatimda barmoqlari bilan "qir-qir" tortib qo'yadi. Tikishga yangi boshlagan chog'larda, mumlangan ipning barmoqlarga yopishuvi va tortgan vaqtida quruq "qitirlashi" qizning g'ashini keltiradi. Endi bu narsa bilinmaydi.

Qiz mo'ljallangan ishni bitirib, o'nidan turdi, tomlarga qaradi, bahor, kelgandan boshlab, tomlarda yosh-yosh qo'shni qizlar ko'rinish qolar edi. Ular jamalaklariga tol bargaklarini taqib kezishar, Shokir otaning tomi labiga qator tizilishib, bu "mahsido'z qiz" bilav bijir-bijir so'zlashib ketishar edi. Hozir ular ham yo'q. Unsin tumorcha shaklli hovlida aylanadi, tanholik va hasrat uning yuragini ezadi. Onasini, qishlog'ini eslaydi. Akasining dardi bilan to'lgan qalb uchun, yaqindagina o'lgan onanining motami o'z keskinligini bir darajada yo'qotgan edi. Ammo, hozir uning qalbida ona hasrati birdan to'lqinlanadi. Qani u, bolalarini o'stirib, orzusi ko'ksida ketgan shafqatli ona? Uni ko'rish, quchish mumkinmi? Qiz butun vujudini to'satdan qoplagan og'riq bilan onasini xotirlaydi, uning ko'zlarini, yurish-turishini, odatlarini, jonli ovozini va butun siymosini dahshatlari bir sog'inish bilan ko'z oldiga keltirishga tirishadi. Lekin, tepalikdagagi xarob qishloq go'ristonini va onasining do'mboq qabrigina butun chinligi bilan uning ko'zlariga qadaladi. Qiz chuqrir, ichdan kelgan bir xo'rsinish bilan xo'rsinadi. Yo'lchi Toshkentdan borgan vaqtida, uni ona qabriga boshlab chiqqan edi. Qalin qor bilan qoplangan qabrga boshini qo'yib, Yo'lchi tovushsiz, lekin butun o'g'llilik muhabbat bilan uzoq yig'agan edi. U chog' go'riston qor edi. Hozir, albatta, bahor ko'katlari bilan to'shalgan... Uzoqda baland, past tog'lar yashnaydi, tepalar, adirlar rang-barang gullar bilan yasanadi, soylikda suvlar toshib hayqiradi. Lekin bularning barchasini ona ko'rmaydi sira! Qishloqdan chiqarkan ikkinchi akasi Ergashga yalingan edi: "onamga fotiha o'qib yuring, payshanba kunlari kechqurun, albatta, sham yoqing". Ergash akasi buni bajardimi, yo'qmi - O'ylar ekan, paranjini qiyishi yopinib, kampir kirib keldi. Unsinni yuzida har vaqtdagidan ko'ra o'tkirroq dard sezib, bu kuyunchak qiz yoyilib kelsin uchun, qo'shnilarikiga chiqishga buyurdi va o'z tengi qizlari bo'lgan bir necha hovlini ko'rsatdi. Ammo Unsinni ko'ngli o'yin-kulgini ko'tarmas, shodlik unga begona edi. Uiga dardlarini o'rtoqlashuvchi sirdosh - qayg'udosh lozim edi. Kampir, har qancha mehribon bo'lmasin, Unsinni ko'ngliga, o'ylariga, kechinmalariga yaqinlasha olmas edi. U to'ylardan, azalardan, kir ro'molning uchiga tukkan chaqasi kabi, esiga mahkam joylab keltirgan "mish-mish"larni har vaqt ezmaliq bilan so'ylar edi: "Falonching xotini o'lgan ekan, go'ri sira qazilmabdi. Go'rkov ketmon ursa, yer naq toshday, ketmon yuzini qayiribdi... Bilasanmi, u xotin tirikligida nuqul "burma ko'yak" kiyar ekan, mana jazosi! Falonching kelini to'rt oyoqli bola tug'ibdi, peshonasida ham bir ko'z bor emish, yo qudratingdan o'rgilay! Falonchi odam yong'oq tagida uxbab yotgan ekan, ajina chalib ketibdi. Falon yurtda odamlar ya'juj-ma'jujni ko'rishibdi. Oxir zamon yaqining o'xshaydi, qizim". Bunday gaplarni deyarli har kun eshitganidan, Unsin ishonmas va tinglashdan ham bezgan edi.

Kampirning qistovi bilan qiz paronji yopindi, lekin qo'shni qizlarnikiga emas, Gulnor bilan dardlashgani ketdi.

Mirzakarimboyning hovlisi eshigida to'xtab, ichkariga mo'raladi. Hakim va Salimboyvachchalarining xotinlariga ko'zi tushdi. Ular derazalari lang ochiq turgan qarshidagi bir uyda yasangan-tusangan yosh ayollar bilan chaqchaqlashib o'tiradilar. Ularning chag'ir-chug'ur aralash qahqahalari hovlini yangratadi. Gulnorga tegishli to'rdagi bir uy, bir ayvon jumjit. Unsin bu tomoniga ikki-uch minut razm soldi. Uy ichidan deraza orqali Gulnorning ko'lankasi ko'ringach, hovlining chetidan chaqqon yugurdi.

Gulnor shoshib-pishib uydan chiqdi, Unsinni zinada qarshi oldi. So'zsiz, lekin butun yurak tuyg'ularini ifoda etgan ko'zlar bilan termilib, qizni uzoq quchoqladi Uyga kiritgach, samimiy ravishda shikoyat qildi:

- Bilasiz-ku meni, bu yerda tanhoman. Orasi yaqin bo'lishiga qaramay, bu g'arib opangizdan tez-tez xabar olmaysiz. O'zim chiqib kelay desam, iloj topolmayman: ostonani boshishga haddim yo'q...

Unsin: "Men bu uyni yomon ko'raman" deb Gulnorni battarroq xafa qilishni istamadi. Uning shikoyati qarshisida bir qadar taraddudlanib, so'ng yumushlari ko'pligini, kampir bir qancha kundan beri bo'limgani uchun, bolalarni tashlab chiqolmaganini bahona qildi.

Gulnor deraza ostiga ko'rpačha solib, qizni o'tqazdi va o'zi ham yaqin o'tirdi. Ko'zlarini bir-birlaridan bir on bo'lsin ayirmay, sekin-sekin dardlasha boshladilar. Gulnorning yuragi yana yaqinroq, hasrati yana chuqurroq ko'rindi Unsinga, shuning uchun bechora qiz akasining taqdiri to'g'risida so'z ochmaslikka tirishdi. Ammo, Gulnorning butun mayjudiyati u yigitning xayoli bilan band bo'lganidan, u, har vaqtligi kabi, Yo'lchi haqida so'zlay boshladidi. Faqat, hovlida kimningdir qadam tovushini eshitib, darrov jum bo'ldi.

Dahlizda Salimboyvachchaning xotini Sharofatxon ko'rindi. U ichkari kirmadi, uzoqdan soxta tovush bilan cho'zibgina gapirdi:

- Gulnoroy, yuring bu yoqqa, mehmonlar xafa bo'lishadi-ya, ular sizni deb kelishgan. Ham obro'li odamlarning xotinlari, siz mensimaganga o'xshaysiz...

Gulnor o'rnidan turib, Sharofatxon tomonga ikki-uch qadam qo'ydi va yumshoqlik bilan so'zladi:

- Ularga bir ko'rinish berdim. O'zlarining juda xursand bo'lib o'tiribsizlar, mana menda ham mehmon bor.

- Ey... Hammasi bahona. Shu ham mehmonmish! He-he-he... Siz boring, Gulnor. Unsin picha yumush qilsin.- Sharofatxon o'shshayib goh Unsinga, goh Gulnorga kinoya bilan qarab davom etdi.- Unsin, shumtaka akangdan darak bormi? Jazzasi... O'ris amaldorga tegajaklik qilishni unga kim qo'yibdi? Kambag'al narsa chorig'iни sudrab, tinch yursa bo'lmasmadi?! U endi qamoqda chiriydi. Jazzasi...

Gulnor indamay yerga qaradi. Keyin qayrilib Unsin yoniga o'tirdi.

- Xafa bo'lman, Unsin,- titrab gapirdi Gulnor,- akangiz chiqqan kun siz kelib, kelinoyingizni uyaltirasiz...

Sharofatxonning so'zi Unsinga qattiq tekkanidan, rangi o'chib, yerga qarab qoldi. Lekin Gulnorning so'zi unga dalda berdi.

Qaddini ko'tarib, jasur boqdi Sharofatxonga:

- Kelinoyi, akam birovning tomomi teshib qamalgan emas, yo birovning haqini yegan emas. U kambag'al bo'lsa ham, yalinchoqlikni bilmaydi. To'g'rilikdan, mardlikdan qamalgan...

- Mardmish! Qishloqi bo'lsang ham bir mahmadonasanki...- dedi-da, Sharofatxon lab-lunjini burib ortiqcha kibrli yurish bilan chiqib ketdi.

Gulnor bir "uh" tortib:

- Ko'rdingizmi?- dedi-da, Unsinga qaradi. Go'yo u birgina so'z va boqish bilan bu uyda va bu odamlar orasida kechirmoqqa majbur bo'lidi hayotning butun og'irligini ifoda qilmoqchi bo'ldi.

- Qiyin,- dedi peshanasini tirishtirib Unsin. Gulnor dasturxon yozdi. Hovlidan bir choynak choy keltirdi. O'zi hech nimani istamasa ham, qiz tortinmasin deb undan-bundan yemoqqa urindi va mehmonini undadi, bunga qaramay Unsin ikki piyola choy ichib, dasturxonni yig'dirdi.

Gulnor deraza orqali hovliga ko'z tashlab, Unsinga yana yaqinroq o'tirdi va shivirladi:

- Unsinoy, ancha vaqtan buyon o'zimcha bir narsani o'layman, shuni sizga aytay. Bu o'yim to'g'rimi, yo'qmi, siz gapiring... Unsin butun diqqatini tuyg'un ko'zlariga to'plab, Gulnorga tikildi.

- Bu zamonda,- davom ettirdi so'zini Gulnor,- kim boy bo'lsa - uning og'zi katta, tili uzun. Bilasizmi, boylardan bittasi o'rtaga tushsa, akangizni qamoqdan bo'shatish oson bo'ladi. Shuning uchun siz Hakimboyvachchaga yo'liqib, unga yalinsangiz, Yo'lchiboyning arzimagan narsaga qamalganini, yot yerda yoppa-yolg'iz qolganingizni aytib bersangiz... Shoyad sizga rahm qilsa... O'ris amaldorlardan uning gunohini tilasa... Men o'ylab-o'ylab shundan boshqa iloj topolmadim. Bular, har nima bo'lmasin, sizga qarindosh-ku. Hakimboyvachcha ukasiga ham, dadasiga ham o'xshamaydi, rahm qilsa ajab emas. Lekin,- Gulnor nafasini rostlab, yana atrofga ko'z tashlab, davom etdi,- man bu narsani anchadan buyon o'layman-ku, akangiz qamoqdan chiqib, bizdan xafa bo'ladi deb qo'rqaman. U bularning hammasini yomon ko'radi. Boshqa iloj yo'q. O'zi qutulsa, bas emasmi? Lekin Hakimboyvachcha hozir boshqa shaharda, u kelsin.

Unsin chakkasiga qo'lini tirab, g'amgin vaziyatda, bir daqiqa o'yladi... Keyin birdan yengillanib, past ovoz bilan so'zladi.

- Mayli, Gulnor opa, akam mandan xafa bo'lsin. Hammasini o'zim qildim, deyman... Lekin, bir nima chiqarmikan, shunga hayronman: axir, akamning ustidan chaqiq bo'lgnamish-ku? Boylarning chaqiq'i bilan Yo'lchining ishi og'irlashdi, dedi Shokir ota.

- Chaqiq? B'T"taajjubandi Gulnor.- Bilmadim. Balki Salimboyvachcha chaqqandir. Akangizdan kaltak yegan u. Mana xotinini ko'rdingiz-ku, nimalar dedi?

Unsin Gulnorning so'zlariga e'tiroz qilolmadi. Lekin Hakimboyvachchaga ko'rinishga taraddudlandi.

- Man bu yerda yashaganimda u kishi yo'q edi,- dedi Unsin,- undan keyin ham sira uchratganim yo'q. Otini eshitaman, xolos, qanaqa odam, bilmayman. Ham boshqa shaharda deysiz, qachon qaytadi, kutib turamizmi?.. Mirzakarimboy tog'amdan so'rasam, qalay bo'larkan? Uni... xush ko'rmasam ham, u, til uchidanmi har vaqt manga "jiyanim" deb, shirin gapiradi. Bir unga yalinib ko'ray, nima deysiz, Go'lno opa?

Gulnor boshini egib, chuqr suktunga botdi, bir lahzada yuzini iztirob ko'liasi qopladi. U o'z ichida o'ylab qizni Hakimboyvachchaga yalintirishga majbur qilishni istamadi ham uning qay vaqt qaytishini bilmas edi: balki bir oy, balki ikki oydan so'ng... Ammo, o'zining chol eriga hech kimning yalinishini istamaganidan, ikkilanib qoldi. Boydan shuncha jabr ko'rgan, shuncha haqoratlangan yigitning singlisi yana undan tilasin... "Qiz hali yosh. Akasining boshidan o'tgan voqealarni yuzakigina bilsa kerak. Balki, sho'rlik qiz, akasini bir kun ilgariroq ko'rishga intilgani uchun bunga rozidir"... deb o'yladi-da qizning boshini siladi va indamasdan, sekingina hovliga chiqdi.

Unsin o'z so'zining Gulnorga qattiq tekkanini sezdi, afsuslandi, ko'ngli allanechuk parishon bo'ldi: "Xo'p. Hakimboyvachcha kelsin, unga yalinay, Gulnor opaning aytgani bo'lsin..." dedi o'z ichida qiz.

Tokchalari har xil qimmatbaho asbob-idishlar bilan to'la bo'lgan, taxmonlarida ipak, atlas ko'rpalari shipga qadar taxlangan, qo'sha-qo'sha gilamlar yashnagan bu uy Unsin yolg'iz qolarkan, allaqanday sovuq tuyuldi. Boshqa vaqtda, boshqa yerda ko'zni beixtiyor tortuvchi buyumlar hozir qizning ruhini siqdi. U Gulnor orqasidan chiqmoqchi bo'lгanda, Gulnorning nozik va nafis qomati dahlizda ko'riniq qoldi. U uyga kirib, tik turgan holda, yoniq, yig'lovchi tovush bilan dedi:

- Unsin, boshqa yo'l yo'q. Choldan so'rang. U har baloni biladi, har ishning uddasidan chiqadi. Man hali rozi bo'limgandim. Unsin, mayli, so'rang, yalining. Siz yalinasiz, ammo akangiz yalinmaydi, bulardan o'chini oladi. Yaxshi bilaman buni. U qamoqdan

qutulib chiqsa, uni bir ko'ssam, nima qilish kerak, man o'zim aytardim... Uh, shu bugun so'rang, shu yerda, mening qoshimda so'rang... U, rahm-shafqatni bilmaydi. Mayli, yana bir marta sinaymiz!

Gulnorning butun qat'iyat va hasrat bilan aytgan so'zлari va qo'llashga majbur bo'lдigi tadbir, uning, Yo'lchi uchun qanday kuchli qayg'урганligini qizga yana chuqurroq sezdirdi. Unsin chol kechga qolmay kelsa, uni kutishini so'zladi.

Mirzakarimboy namozasrga yaqin keldi. Unsin o'rnidan turib, qo'l qovushtirib, bir chekkaga suqildi. Boy sala-choponini yechib, xotiniga berdi, qoziqdan do'ppisini olib kiyib, ko'rпachaga o'tirdi-da, Unsinga qaradi:

- Jiyān, shundamisan? O'tir-o'tir...

Chol har vaqtagi kabi jiddiy sukutga botdi, so'ngra soatiga qaradi.

- Hay, kim,- Gulnorni shunday chaqirdi u,- ovqatni tezroq qilinglar.

Gulnor eshitilar-eshitilmas bir nima deb javob berdi va tokchadan asbob olmoqchi bo'lib, qizga yaqinlashdi-da, ko'zлari bilan unga imo qildi: "So'zlang!" Unsin bir necha minut so'z topolmasdan iymanib, ikkilandi. Nihoyat titroq tovush bilan dedi:

- Tog'a, man sizni kutib o'tirgan edim.

- Manimi?- chol boshini ko'tarib qizga qaradi.- Hali ham anov... mahsido'znikidamisan? Akang tentak yigit, ko'p noqobil chiqdi.

- Yaxshimi-yomonmi, u sizga jigar bo'ladi. Ham sizda shuncha yil ishladi. Tog'a, man bu yerda yolg'izman. Onam bo'lsaydi, qishlog'imga ketardim. Tog'a, sizga yalinib keldim, Yo'lchi akamni qamoqdan chiqarishga ko'maklashing. Sizni hamma taniydi: o'ris to'ralari so'zingizni yerda qoldirmaslar, ikki og'iz so'zingizni bizdan ayamang. Onamning arvoхini xursand qilasiz, tog'ajon! B'T"qiz so'nggi so'zлarni yig'i aralash, bazo'r so'zladi. Boy bir-ikki minut jim qoldi.

- Akang juda tentak, juda bo'lmsiz yigit,- dedi nihoyat po'ng'irlab boy,- axir, amaldoरlarimiz, hokimlarimiz bilan hazillashib bo'ladi?! O'ris amaldoрlariga nechog'lik ta'zim bajo qilsang, shuncha yaxshi. Ulardan hech bir kishiga yomonlik kelmaydi, ular yolg'iz tartibni, tavozeni talab qilishadi. Chunki ular hokim, biz fuqaro. Man o'zim har bir amaldorga qo'l qovushtiraman, man-a, man! Akang-ku bir yalangoyoq narsa.

- Akam yoshlik qilgandir ham o'zi uncha-muncha gapni ko'tarmaydigan yigit, ilgaridan fe'li shundoq. Onamning arvoхi uchun, man uchun yordam qiling, tog'a!

- Qadimdan qolgan bir gap bor, jiyan: "Olato'g'anoq og'ir bo'lsa ham qarchig'aydek bo'lmas", - zaharxanda bilan so'zladi chol.- Uning qo'li qaerga yetadi? O'z qishlog'ida, o'z tenglari orasida har noma'qulchilikni qilsa o'taveradi. Bu yer shahri azim, bu yer Toshkent. Xo'sh, u tentakni qutqazib nima qilasan, jiyan? U tuzalmaydi. Qamoqda ezilsa, mulla mingan eshakday bo'yнini solib, bir kunmas-bir kum balki chiqib kelar, qo'yaverish kerak, jiyanim, Unsin...

Unsin bunday muomalaga, bunday zahar tilga qarshi qanday javob berishni bilmay g'azabdan qaltiradi. Boyning so'ziga dahlizda qulqoq solib turgan Gulnor chiday olmadi, uyg'a kirib, Unsinning yoniga cho'qqayib o'tirdi va dadil gapirdi:

- Shu yetim, shu g'arib qizning ko'z yoshlariga achinmaysizmi? Sizdan boshqa kimi bor? Hammalarining yuraklarining toshmetindan ham qattiq ekan... Jilla bo'lmasa yaxshi so'zlang, dalda bering bu qizga...

Mirzakarimboyning rangi o'chdi, ko'z oqlari dahshatlari ravishda o'ynab ketdi. Jahldan duduqlanib, Gulnorga baqirdi:

- San-sanga nima? Ab-ablah!.. Kimga achinaman? Uning bir muttaham temirchi do'sti bor. Shokir ezma degan bir otasi bor. Ular qutqarsin. San bu ishga ikkinchi marta qorishma!..

Gulnor keskin harakat bilan o'rnidan turdi: "Sizlar odamgarchilikni bilmaysizlar!" dedi-da, qaltirab dahlizga otildi. Uning orqasidan Unsin chiqdi, entikib-entikib dedi:

- Akamni shuncha yil ishlatib, haqini bermadingiz. Endi qamoqda chiritmoqchimisiz? Xudo sizga ham ko'rsatar!

Qiz dahlizda, eshik orqasida kuchli hayajon va sarosimada turgan Gulnorni quchoqladi, sekin shivirladi: "Qayg'urmang, opajon. Qora kunlar o'tar, yorug'likka chiqarmiz. Man sizni sira unutmayman". Keyin tezgina paranjisini yopindi. Hayajonini, ko'zlaridan oqqan yoshlarni hovlida boshqalar ko'rmasin uchun, shu yerdoyoq chachvonini tutdi, "xayr" deb yugura ketdi...

II

Bir oy o'tdi. Bu oy - Gulnor uchun ayniqa chuqur qiyinalish oyi bo'ldi. U erta-kech o'z-o'zini koyidi, o'zining soddadilligi, ishonuchanligidan achchiqlandi: "Esimni tanigandan buyon boyning, uning o'g'il-qizlarining yomonligini bilib, ko'rib keldim. Laqma bo'lmasam, Yo'lchining qamoqxonada chirishini istagan odamlardan uni qutqarishni umid qilarmidim? Bechora Unsin... G'amiga g'am qo'shildi. Ilgari akasining tez kunda chiqib qolishini kutar edi. Endi-chi? Boyning achchiq so'zлari, yaramas niyatları uning yuragini chil-chil qilgandir..."

Unsinni ko'rishga intildi, sog'inchi har kun zo'raydi. Lekin qiz biron marta ham ko'rinish bermadi. Gulnor buning sababini, albatta, yaxshi biladi. Unsin unga achchiq qilishi, undan arazlashi mumkin emas. Unsinning yuragi, akasining yuragi kabi. Gulnorga nisbatan toza ham samimiy. Qiz Mirzakarimboy ostonasini bosishni istamaydi, xolos... Shunday bo'lsa ham, Gulnorni har xil mulohazalar, andishalar, gumonlar bosadi. Uning baxtiga, bu oy ichida tez-tez og'rib turdi. Betoblik unga yaxshi bahona bo'ldi: tabib chaqirishni esga keltirmasdan, "kinna" soldirish uchun Shokir otaning kampirini chaqirtiraverdi. Har gal kampir bilan yolg'iz qolarkan darrov qizning holini so'radi. Birinchi marta gaplashuvda Unsinning mahsi tikishini, Shokir ota oilasida hukm surgan qashshoqlikni eshitdi. Yuragi ezildi. Qiz mahsi tikishini, yo'qchilik, muhtojlik ichida yashashini Gulnordan yashirgan edi. U bilan so'zlashganda, tirikchilikka oid hech nimadan zorlanmagan edi. Haqiqat ravshan bo'lgach, Gulnor boshi og'riguncha o'yildi.

Kampir ketish oldida uch kiyimlik atlasni bir ro'molga o'rab, uning qo'yniga qistirdi. "Sotib ro'z'orga xarajat qiling. Jon buvi, aslo Unsinga bildirmang. Uning ko'ngli buzilmasin..." deb kampirga tayinladi. Bir haftadan so'ng "kinna" bahonasi bilan kampirni yana chaqirtirib, o'z kiyimlaridan bir nechasini berdi.

Kundan-kun havo qizidi. To'rt tomoni baland uy, ayvonlar bilan o'ralgan hovlida nafas bo'g'ilan boshladidi. Hakim va Salimboyvachchalarning oilalari boqqa ko'chishdi. Bu kun Yormat qizining ko'chi uchun arava keltirdi. Mirzakarimboy kechqurun izvoshga o'tirib, boqqa borishini bildirib, erta bilan do'konga jo'nadi. Hozir katta hovlida Gulnordan boshqa hech kim yo'q. Yerga urib sindirishni istadigi sanoqsiz asboblar, idishlarni pala-partish yig'ishtirib, sandiqlarga joyladi. Boqqa olib ketishi lozim bo'lgan buyumlarni bir yoqqa ayirdi. Bu ish juda ma'nosiz ko'rindi, tinkasi quridi.

O'zining parishon xayoliga berilib, kimsasiz hovlida keza boshladidi. Nechundir bu tanholik va bu jimmxitlik unga yoqdi. O'z mayliga berilib, g'ayri shuuriy ravishda tashqari hovliga ham chiqdi. Atrofga g'isht yotqizilib yulka qilingan tep-tekis, chor burchak hovli quyoshda qizib jimgina ustaydi. Qaysi bir kavakda chumchuq bolalari chirqillarydi, tomdan kaptarlarning o'ksiz "hu-g'u, hu-g'u"lari eshitilib qoladi. Damma mehmonxonalarining oynavon naqshli, bo'yоqli eshiklari va derazalari bekik, qalin pardalar bilan qoplangan. Gulnor tentirab yurarkan, ko'zi xizmatkorxonaga tushdi. Hovlining bir burchagiga tiqilgan bu kichkina, ko'rimsiz

uyning shalaq-yupqa taxta eshigi ham, o'yinchoqday bachki, siniq derazasi ham ochiq edi. Gulnor kirdi. Quyoshga ters, burchakka tigilgan bu uychadan hali qish nafasi o'chmagan, vaxkashlik va chirik havo nafasga uradi. Devorlari, shiplari o'rgumchak inlari, ipir-ipir qora islar bilan qoplangan. Qoziqqa osilgan, chang bosgan eski do'ppidan boshqa hech iima yo'q. Gulnor do'ppini olib qoqli, yoruqqa tutdi. Yo'lchining do'ppisi! U, dunyoda eng qimmatli, eng nodir buyumni topgan kabi, hadsiz sevindi. Ter, moy va changni yillarcha shimgan, jiyagi charmday qotib, kirdan yiltiragan bu do'ppini yana tozaladi, qoqli, ko'zlariga surtib o'pdi. Yuragida dard to'lqini birdan kuchli chayqalib ketdi. Uy ichi Yo'lchi xayoli bilan to'ldi. O'tmishev ravshanlik bilan ko'z oldida jonlandi. Mana, bir qish kechasi qanday dahshatli qo'rquv, tahlika ostida bu uyga kirib, qorong'ida Yo'lchi bilan bir necha minutgina so'zlashishga jur'at qilgan edi! Og'riqqa borib yetgan kuchli bir orzu uning butun vujudini hozir egallab oldi. Yo'lchining kuchli, erkak nafasini, dudoqlarida uning bo'sasining jonli olovini bir lahma sezdi. Derazaga suyaldi, xayol va kechinmalar sehriga soatlarcha berilib qoldi. Tashqarida kaptarlarning "hu-g'u"si, chumchuqlarning chirqillashidan boshqa govush yo'q...

Gulnor birdan cho'chib ketdi: qornida bir nimaning ancha sezilarli ravishda urganini tuydi... Darrov angladib "u homilador! Shu onda qaltilagan, oyoqlarida qitday kuch qolmagan kabi, yerga yiqlayozdi. Bir qo'li bilan derazaning dastagini ushladi. Ko'z oldi qorayib, butun ichini, borlig'i og'riq-alam siqib oldi. Ko'zlarini chirt yumdi. Boshida horg'in, parishon fikrlar uchdi. "Baxtsiz bola! Tezgina dunyoga qadam qo'yib, dadangning nabiralari va evaralari ketidan pildirlab yugurmoqchimisan? Agar sen Yo'lchining bolasi bo'lsang edi, men unga allaqachon sendan xabar berar, undan sevinchi olib quvonar edim. Sen dunyo yuzini ko'rib, chaqaloq ovozing jaranglagen kun, sodda qishloq xotinlari bilan uyimizda kichkina bir to'y yasar edik. Mana, men - onang, seni unutibman. O'z borligingni o'zing bildirding. Mirzakarimboyning bolasi, uning evarasidan ham kichik bolasi!..."

Gulnor yo'lak tomondan dadasining ovozini eshitdi. Do'ppini qo'lting'iqa tiqib, ko'z yoshlarini arta-arta, kalavlanib ichkari hovliga chopdi.

- Qayoqda yuribsan? Bu yoqda shuncha narsa yotibdi, eshiklarin lang ochiq. Juda beparvosan-da, qizim! - norozilandi Yormat. Gulnor indamadi. O'z uyiga kirib, qutilardan birini olib, kiyimlari orasiga haligi do'ppini joylashtirdi.

Yormat terlab-pishib yuklarni aravaga tashishga boshladi. Uy ichidan uni-buni olib chiqishga, yuklarni orqalatishga qizini ham majbur qildi. Yuklar oz qolgach Gulnor Shokir otanikidan Unsinni chaqirib berishni so'radi. Yormat nosvoyini tuplab, so'lagini soqollariga oqizib, qichqirdi:

- Qanaqa Unsin?

- Bilmaysizmi? Bilasiz...

- Ha, taniqlik yetim qiz... - qovog'ini solib, chiqib ketdi Yormat.

Gulnor ayvonda quruq bo'yra ustida o'tirib, mahsi kiyish bilan ovora ekan, Unsin kirib keldi. Mahsini oyoqlariga nari-beri ilib, hovliga tushdi, qizni quchoqladi.

- Ko'chishlaringni sira bilmay qoldim. Hamma yuklarni man o'zim saranjomlab berardim, - deb Unsin yumush qidira boshladi. Gulnor qizni uy ichiga olib kirdi. Katta uysa, dahlizda, katta-katta po'lat sandiqlar, qutilar, uyum-uyum gilamlar, ko'rpa-yostiqlar, har xil asbob-idishlar tartibsiz qalashib yotar edi. Unsin qarashmoqchi bo'lib so'radi:

- Bular ham ketadimi?

- Shuncha buyum qayoqqa sig'adi! Ichki-tashqi uylarda eng kami yuz ellik arava mol bor emish, dadam shunday dedi. Kerakli narsalardan kecha besh arava ketdi. Bugun bir arva ketadi. Unsin, hammasi ortiqcha narsa. Bularning hammasidan manga bir eski do'ppi qimmat...

Unsin qoshini chimirib yalt etib Gulnorga qaradi, lekin so'ngi jumlaning ma'nosini, nechundir, so'ramadi. Gulnor esa, qizning ko'nglidagi yaralarni chuqurroq ochishdan qo'rqib, bu to'g'rida izoh bermadi. Ikkovlari bir sandiq chetiga yonma-yon o'tirib, har vaqtdagi kabi, sekin-sekin so'zlashdi. Gulnor agar Yo'lchidan biron xabar eshitilsa, yo qamoqdan chiqsa, unga bildirishlari kerakligini va o'zi har xil bahona bilan onasini shaharga tushirishni, ba'zi so'zlarni onasiga aytish mumkinligini uqtirdi. Yormat bir necha marta qichqirib Gulnorgi chaqirgach, ular suhabtni noiloj uzishga majbur bo'ldi, ikkisi ham chuqur samimiyat va do'stlik hissi bilan quchoqlashishdi. Ikkisining ham ko'z bulog'i qaynab toshdi. Gulnor oddiy qizil tosh ko'zli kumush uzukni cho'ntagidan olib, Unsinga ko'rsatdi.

- Buni yosh qiz vaqtimda, hu, mundan qancha yil ilgari, oyim sotib olib bergandi, - madorsizlanib, yig'i aralash so'zladi Gulnor, - shundan buyon har vaqt taqdim. Endi, sizga topshiraman, taqib yuring, keyin... agar akangiz chiqsa, unga bering, yonida saqlasin... - Gulnor uzukni qizning qo'liga berib, yana uni quchoqladi.

Ular paranji-chachvonlarini yopinib ko'chaga chiqishdi. Yormat hamma eshiklarni qulflab, qizini aravada olib jo'nadi. Unsin ham ularning orqasidan bordi, arava ko'zdan g'oyib bo'lguncha, qarab, kuzatib qoldi.

O'n yetinchi bob

I

Issiq, lekin sokin go'zal kun edi. Chaman-chaman gullar, har xil ekinlar, bog'lar, suvlar quyoshda yashnab, yonib tovlanadi. Hovuzning bo'yidagi supada, daraxtlarning ko'lankasida, atrofga suvni qalin septirib, Salimboyvachcha yotar edi: boshida oppoq katta par yostiq, tagida shohi ko'rpana. Bugun juma bo'lgani uchun Hakimboyvachcha va Mirzakarimboy o'z ulfatlarinikiga gapga ketishgan. Salimboyvachchaning ulfatlari bu hafta mashhur bir boyvachchaning dalasida to'planishlari kerak edi; o'tirish juda qiziq, juda xushchaqchaq, bazm juda qiyqiriqli bo'lishini bilib, bugun har haftadagidan ko'ra ertaroq saman yo'rg'ani egarlatib qo'ygan edi u. Ammo, otni akasi minib ketdi. Izvoshga esa Mirzakarimboy o'tirib, qari-qartang boylarning "ulug'vor gapi"ga jo'nadi. Salimboyvachchaga, yaxshi va yurishli bo'lsa ham, ko'rimsizroq bir ot qolgani uchun achchiqlanib, bir-biridan takabbur, bir-biridan kekkayan boyvachchalarning oldiga bu otda borishni o'ziga ep ko'rmay, dam jo'nashga qaror qilar, dam yana aynar edi.

Sharofatxon qo'rg'oncha eshididan qarab, erining jo'namaganiga tushuna olmay, supaga keldi.

- Eldan burun otlangan siz edingiz-ku, mana endi kun yonib ketdi.

- Choy olib kel! - boshini yostiqdan uzmay buyurdi Salimboyvachcha.

Sharofatxon tezda bir choynak choy keltirib, piyolaga quyib, erining yoniga qo'ydi va o'zi ham supaning chetida o'tirdi, oq shohi ro'mol bilan yelpinib, issiqlik shikoyat qildi. Bir ozdan keyin, eri "ket" deb haydamaganiga sevinib, uy ichida yumushning ko'pligidan, Gulnorning "uchchiga chiqqan takabburligi", hech kimni nazarga ilmasligi va kasali to'g'risida vaysadi.

- Kasali nima, ozib ketibdi kelinchak onamiz? - piching bilan so'radi Salimboyvachcha.

- Hammasi mug'ambirlik, erkalik, noz! Dadangizga noz qiladi. Kecha cho'ri, bugun hammaga onaboshi bo'lib qoldi! Bizlarga: istasang shu, istamasang katta ko'cha, deydi. Tilida aytmasa ham, dilida aytadi.- Sharofatxon bir zum to'xtab, atrofga qaradi, so'ng tovushini pasaytirib davom etdi,- to'g'ri, ba'zi xotinlar ikkiqat bo'lganda darmonsizlashadi, boshlari og'riydi... buni kasal deb bo'lmaydi, Gulnor ikkiqat bo'ldi-yu, noz ustiga noz qo'shdi, uyatsiz o'lgu...
- Nima deysan? B'T "Salimboyvachcha hovliqib boshini ko'tardi. Xotini zaharxanda qildi va qornini do'mbira qilib chaldi.
- Rostdaimi?
- Nega yolg'on gapi ray! Man allaqachon bilgan edim. Hozir o'zi ham yashira olmaydi. Yashirib bo'ladimi, qorni qappayib qoldiku...

Salimboyvachchaning rangi o'chdi, burun kataklari kerildi, piyolani jahl bilan turtib yana yastiqa tashlandi. Xotini o'rnidan turib:

- Shoshmang, u hali birinchi qaldirg'och, keyinroq orqa-o'ngingizni ukalar, singillar bilan to'ldiradi u,- dedi-da, so'zini eriga ma'qullatgani uchun g'ururlanib, semiz, katta oyoqlarini dadil bosib qo'rg'on tomonga jo'nadi. Salimboyvachcha ichini ilon chaqqanday, toqatsizlandi. Dadasining uylanmoqchi ekanini eshitgan hamon, fikrini uzoq bir vahm kabi bosgan narsa, endi mudhish bir haqiqatga aylanib, butun vujudini kemira boshladi. U ko'zlarini hovuzdag'i turg'un ko'kimdir suvg'a tikiib o'yadi. "Gulnor o'zi kim? Uning tufaylidan dadam bilan achchiqlashdim, uni qochirish uchun qancha qiyonaldim. Oxirida bu sirning ochilmasligi uchun pochchamga besh ming so'm, ellik boshiga ming so'm pul berishga majbur bo'ldim. U ochko'zlar bundan so'ng ham meni qo'yishmaydi, albatta. Yaqinda pochcham katta summa zarur bo'lib qolganini so'z orasida qistirib o'tdi. O'zi kelmasa, erta-indin opamni yuboradi. Ular oldida har vaqt tilim qisiq. Gulnor umrimga egov bo'ldi. Yana u Mirzakarimboy xonadoniga boshliq bo'lib kekkaysin, hech kim bilan so'zlashmasin, tug'sin, boylikning nishabini o'z tomoniga to'g'rilas!.. U juda shayton xotin. Uning hiyla-makrining bir tomchisi endi ko'rindi! Qolganini o'g'ilchasi tug'ilgandan keyin ko'ramiz. Yosh, chirolyi xotin dadamning boshini shunday aylantsinki... Mushuk quvlagan sichqonday biz qochgali kavak topa olmay qolaylik..."

Salim shunday o'ylarga berilib, to'lg'anib yotarkan, katta darvoza og'ir gulduros bilan ochildi. Ikki g'ildirakli yangi izvosh - aravaga qo'shilgan otni yetaklab kuyov Fazliddin kirib keldi. Ot darvozadan bir necha qadam ichkarida to'xtagach, Nuri duxoba paranjisini yig'ishtirib, ehtiyoj bilan aravadan tushdi. Salimboyvachcha ildamlik bilan ularga yugurdi. Singlisidan ahvol surab, kuyovning qo'lini siqdi. Nuri qip-qizil va semiz yuzidan oqqan terni yupqa shohi dastro'mol bilan artib, paranjisining changini qoqdi, qo'rg'on ichidan yugurishgan bolalarni o'pib, quchoqlab ichkariga kirib ketdi. Fazliddin otni ildam chiqarib, daraxtga bog'ladi, yangi shohi to'nini yechib qoqdi. Salim bilan birga supaga kelib o'tirdi.

Dasturxon ustida ular so'zlasha boshladilar. Fazliddin shu atrofdan, "Qurbaqaobod" mavzuidan tayyor bir bog' qo'lga kirganini va uni ko'rishga kelganini bildirdi. "Mevalari oldin-ketin pisha boshlab, ekinlar ekilib, oldingilari tayyor bo'lgan paytda, qaysi ahmoq bog'inisotadi", deb Salimboyvachcha hayron qoldi.

- Zaruriyat, noilojlik,- tushuntira boshladi Fazliddin.- Mahallamiz odamlaridan bir kambag'al bizdan qarzdor edi, uch yuz so'mga yaqin. Ammo, u bir necha yildan buyon to'lay olmadid. Biz ham qattiq talab qilmadik. Shu bahorda o'zi o'lib ketdi. Qo'llidan ish keladigan bitta yigitsha o'g'li bor, qolganlari churvaqa. Kecha Abdulla akam yigitchani tutib, ota qarzini uz, deb mahkamroq ushlabdi. Keyin hisoblab qarashsa, yigitchaning gardaniga pirsant bilan rosa sakkiz yuz so'm pul tushibdi..

- Hoy, nodon odamlar!- kuyovning so'zini kesdi Salimboyvachcha.- Birini uch qilib to'laydi endi. Bilishmaydiki pul bolalab turadi, indamasdan tug'adi, chaqaloqlari ingalamaydi. Eh, befarosat odamlar!..

- Bizning "sartiya" juda beg'am,- qizil chillakini ishtaha bilan yeya turib, so'zni davom ettirdi Fazliddin,- bir ko'p odamlar oyog'idan qarzga ilinadi. Hech nima bo'lmaganday, do'ppisi yarimta! Halqumigacha qarzga botganini o'zi sezmay qoladi.

Sirtmoqni bo'yndan solib tortasiz, burni bilan yerga munkiydi. Oyog'iga ilingan ip yo'g'on arqonga, ingichka sim - yo'g'on zanjirga aylanadimi, holiga voy?! Shunday, Salim aka, haligi yigitsha esankirab qolibdi. Sakkiz yuz so'mni siz bilan biz pul demaymiz. Chindan ham pul emas. Ammo yonida qora chaqasi yo'k odamga bu - jahannamning qil ko'prigiday mudhish narsa. "Borib ko'ring, ma'qul bo'lsa bog'imni oling" debdi yigitsha. Pulni undirish uchun akam shoshmas edi, bir parcha bog' bizga unchalik kerak emas. Uning lekini bor: yigitsha yaqinda mardikor bo'lib urushga jo'nashi mumkin. Undan qachon qaytadi, qaytiib keladimi, yo'qmi - bilmaymiz. Shu sababdan shoshdik.

- Tayyor bog' bo'lsa, olganlaring yaxshi. G'animatda,- dedi Salimboyvachcha.- Xo'sh, aytin-chi, podshohning mardikor olishiga nima deysiz? Mana farmon oliy chiqdi...

- Farmon chiqishi bilanoq xalq orasiga g'ulg'ula tushdi. Hozir qaerga bormang, shu gapni eshitasiz. Dehqon, kosib xalqi notinchlanib qoldi, albatta, ularning bolalari ketadi-da. Farmonda mardikor deyilgan, ammo, Salim aka, menimcha, bu narsa bir siyosat, bir aldov bo'lsa kerak. Yigitlarni eltib, to'ppa-to'g'ri o'q tagiga haydaydilar, mana keyin eshitib qolarmiz...

Salimboyvachcha andak mulohaza qilib, so'zlab ketdi:

- Unchaligni keskin ayta olmayman. Ammo, farmonga bo'y sunish, albatta zarur. Yigitlarimizga akop qazdiradilarmi, yo miltiq ushlatib qirg'inga haydaydilarmi - bu narsa oq podshohning ixtiyorida. Turkiston musulmonlari shuncha yildan bo'y on oq podshohning qo'l ostida tinch yashab keladi. Endi adolatga qarshi xiyonat qilish yaramaydi. Turkiston musulmonlari mana shu tanglik zamonida fidokorlik ko'satsa, hukumatga yordam qo'lini cho'zsa, oqibati chakki bo'lmas. Dushmanlar yengilgandan keyin hukumat oldida Turkiston boylarining yuzi yorug' bo'ladi. Podshoh, ehtimol musulmonlarning huquqlarini kengaytirib yuborar. Lekin, bundan qat'i nazar, hukumatga yordam berish - bizning birinchi vazifamiz bo'lishi kerak!

- Siz juda tarafdar ko'rinasiz, Salim aka. Menimcha, bu xususda andak sabr qilib, oqibatni o'ylash kerak bo'ladi,- dedi ikkilanib Fazliddin.

- Masala ravshan,- dedi Salimboyvachcha.- Biz hammamiz oq podshohning fuqarosimiz. Shundaymi? Bu to'g'rida tixirlik qilsak, xiyonat qilgan bo'lamic. Bu narsa yolg'iz mening fikrim emas. O'tgan kun kechasi xuddi shu yerda katta majlis qilindi, yigirmaga yaqin odam to'plandi. Jadiqlar, ulamolar, yana Hakim akamning obro'li bir necha do'stlari bo'ldi. Bu masalani yarim kechagacha xo'p maslahatlashib, nihoyat, haligi men aytgan fikrga kelishdi. Endi qo'lni qo'lga berib, mardikor olish to'g'risida chiqqan farmonni xalqqa tushuntirish, uning kerakligini, foydasini uqtirish qoladi.

- Abdulla akam ham shu fikrda,- dedi Fazliddin,- ammo manga baribir, Salim aka. Qay tomon yengsa man o'sha tomonda. Lekin dini islomga daxl qilinmasa, savdoga rivoj berilsa, bas. Bizga yana nima kerak? Yurtni savdo obod qiladi. Din, islom kishilarni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Shu ikkisi lozim xolos...

Salimboyvachcha bunday lokaydlikka qarshi e'tiroz qildi. Suhbat qizib ketdi.

Quyosh uzoqdagi daraxtlar orqasiga tushdi, shafaqning tiniq oltin olovi hamma yoqni tutdi. Daraxtlar katta alangada qoldi. Lekin havo dim. Fazliddin oldinroq moyli somsani ko'proq yeganidan, mantini oz yedi, achchiq choyni bosib ichib qoniqqach, izvoshni

qo'shdi. Bir qadar shamollab kelish uchun Salimboyvachcha o'z kuyoviga hamroh bo'ldi. Ular bilq-bilq tuproqli ko'chada chang ko'tarmaslikka tirishib, otmi sekinroq haydashdi. Katta yo'lga chiqish oldida Salimning bog' qo'shnisi, charchab changga botib kelayotgan Abdixoliq ota uchradi. U ko'chaning chetiga o'tib, to'xtash uchun ishorat qildi. Izvosh undan bir oz nariroqda to'xtadi.

- Ha, nima deysiz?- to'ng qichqirdi Salimboyvachcha. Abdixoliq yaqinlashib, yuzidan chang va terlarini artib, harsillab gapira boshladi:

- Shaharga tushgan edim, boyvachcha. Mahallamda, hey o'q, be yo'q, o'g'lim, Abdisamatni askarlikka mo'ljallab qo'yishibdi.
- Kim mo'ljallaydi? B'B"teskari qarab so'rada Salimboyvachcha.
- Mahallaning kattalari. Man juda dovdirab qoldim. Axir, ko'zimning oqu qorasi bittagina o'g'lim bor, sadag'ang ketay.- Abdixoliq ko'zlarini Fazliddinga tikdi.- Usiz, man qanday tirikchilik qilaman? Sizlar oq-qoran, yo'l-yo'riqni tanigan odamlar" B'B"manga bir yo'l ko'rsatinglar, iima qilay? Chirog'im Salimjon, sizga yalinaman...
- Ota,- dedi Salim jerkib,- bu narsa ko'pga kelgan to'y. O'g'lingiz nihoyati bir necha oy ishlab qaytadi. Nimasiga qayg'urasiz? Uzoq yurtlarni ko'rib keladi. Siz duo qilib o'tiravering. Man nima qila olaman? Hammamiz oq podshohga fuqaromiz, uning olyi farmoniga so'zsiz bo'yusunishimiz kerak.
- Ko'pga kelgan to'y deysizmi?- kinoya bilan iljaydi chol,- be! Mahaldamda uch o'g'illilar, besh o'g'illilar bor, norg'ul-norg'ul yigitlar bor. Hammasi tip-tinch. Kattalarning ko'zi mening chumchuqday o'g'limga, yana bir qancha og'zi bo'sh kambag'alga tikilibdi. Yo'q, bunda gap bor. Nohaq ishga kuyaman. Boy, kambag'al, mulla, eshon demasdan hammaning bolasiga bir tekis qaralsa, otamga la'nat o'g'limni yubormasam...

- Ota,- cholga enkayib, muloyim gapirdi Fazliddin,- muysafid ekansiz, qari bilganini pari bilmas, deyishadi eskilar. Besh qo'l baravar emas, buni ham tushunsangiz kerak. Shunga o'xhash birov unday, birov bunday. O'zingizni biling, o'zga bilan nima ishingiz bor? Hamma o'z o'g'lining etagiga yopishsa, xizmatga kim boradi?

Abdixoliq bu ikki boyvachchaning so'zlariga esankirab, alanganlib, so'zlashga mo'ljallar ekan, Salimboyvachcha kuyovini tutdi... "Haydang otni!"

Ular "Qurbaqaobod" mavzuiga yetib, odamlardan Normatxo'janing bogini surishtirdi. Kichkina zambil eshik oldida aravadan tushishdi. Eshikni qoqmasdan burun, go'yo ularni kutib o'tirgan kabi bog' egasi chiqdi. U ko'rinishda uyatchan, yigirma yashar yigitcha edi. Boyvachchalarni boqqa olib kirdi-da, o'zi bir to'nkaga o'tirib, yerga qaragan holda dedi:

- Ko'ringlar, ana bog!'B'B"Salim bilan Fazliddin "tomosha bog'da" kezgan singari, sesin-sekin, bog'ning har jihatini ko'zdan kechira boshladi. Quyosh botgan, lekin kun hali yorug', har yoqqa oqshom sukunati cho'zilgan. Daraxtlarning uchlari asta qimirlaydi.

Bog'da sakkiz uzun ishkom, hammasining poyalari yaxshi ishlangan, pushtalari chopilgan. Salimboyvachcha ikki ishkomga kirib, boshdan-oyok, ko'rib chiqdi. Uzum tok bargidan ham mo'l... Fazliddin esa barcha ishkomlarni aylanib, necha xil uzum borligini ham bilib chiqdi. Keyin, jo'xori, sabzi, piyoz ekilgan qismlarga qarashdi. Bog'ning atrofi eski, past, lekin yamalib-yasqlib butunlangan devorlar bilan o'ralgan. Devor bo'ylab har xil mevali daraxtlar: shaftoli, olma, nok, olcha, jiyda. Bu bog'da, Salimcha, oltmis uch tup, Fazliddin hisobicha, yetmish tup mevali daraxt bor edi. Bog'ning sahnini Salim uch yarim tanob, Fazliddin uch tanob mo'ljalladi. Salimboyvachcha sekingina shivrildi: "O'n tanobga arziydi. Hamma narsasi tayyor. Oshni pishirib, qoshig'in solib qo'yibdi egasi, ichaverasiz, Fazliddin".

Boyvachchalar o'z taassurotlarini so'zlashib, yigitcha oldiga kelishda. Uning yonida ukalari bo'lsa kerak, bir-biriga juda o'xhash ikki bolab B'B"biri o'n, ikkinchisi o'n ikki yashar chamasi,- qandaydir yomon shubha va hayrat bilan to'la ko'zlarini javdiratib turishar edi. Yigitcha ishorat bilan ularni jo'natdi.

- Bog' chakki emas, unchalik qiziqarli ham emas, shundaymi, Salim aka? B'B" Fazliddin yalt etib Salimga qaradi va so'ng yigitcha so'zлади. Boshqa ilojimiz yo'q, ukam. Bir jihatdan sizga yengil bo'lishini o'ylaymiz, bu zamonda naqd pul topish o'limdan qiyin. Naqd pul so'rasak, sizga jabr bo'ladi. Shuning uchun bog'ni olishga to'g'ri keladi. Ertaga shaharga tushing, akam bilan so'zlashib, ishni bitirasiz, durustmi?

- Aqlli bola ekansan, uka, ota qarzini uzishga bel bog'labsan. Bir tomondan dadangning arvohi xushnud bo'ladi, ikkinchi tomondan, o'zing jo'ralarin orasida boshingni ko'tarib, xo'rozday yurasan. Qarz kishining boshini bukadi - Keksalarcha jiddiy va salmoqli so'zladi Salimboyvachcha.

Yigitcha o'rnidan sekingina turdi. Allaqanday g'amgin va o'zgargan tovush bilan, yerga qaragan holda so'zлади:

- Tirikchiligidim shu bog' orqasida bir nav o'tib turardi. Yerdan qor ketishi bilan ko'chib kelib, butun oila chumoliday ishlar edik. Yerga qor tushganda yana shaharga ko'chib ketardik. Bu boqqa juda ko'p mehnatimiz singan.- Yigitcha chuqur xo'rsindi, boshi yana quyiroq tushdi.- Oyim bog'dan ayrilsa, bilmadim, nima bo'ladi. Hali u xabarsiz...

- Bog'ingni biz zo'r lab olmaymiz, uka!- koyib "san" sirab dedi Fazliddin.- Sakkiz yuz so'mni sana, ish tamom. Bog'ing o'zingda qoladi, enang xafa bo'lmaydi.

- Bu yilgi ekinlar, mevalar bizniki bo'ladi. Negaki, o'z mehnatimiz bilan yetishtirdik. Yer sizlarga o'tsa ham, kuzgacha bizni bu yerdan qo'zg'atmaysizlar. Shu shart bilan, mayli. Abdulla akangizning do'qidan qutulaman. U kishi tinkamni quritdi juda...- yigitchaning tovushida yig'iday bir nima sezildi.

- Man aytdim-ku,- keskin so'zladi Fazliddin,- ertaga shaharga tush, nima sharting, bo'lsa, o'sha yerda gapir. Meva, ekin deysan. Yer o'tdimi, ular ham hozirdan bizga o'tadi-da. Hammasi yerdan ungan narsalar. Yana akamdan so'ra!..

- Yo'q, Fazliddin,- bilimdon bo'lib gapirdi Salimboyvachcha,- bu yilgi ekin bu yigitchaniki bo'ladi. Jo'xori, sabzi, tag'in qanday ekin bor? Ha, shularning bari bu kishiniki. Daraxtlardagi mevalarchi? Hammasi sizniki bo'ladi, Fazliddin. Agar muruvvat qilsanglar, jilla bo'lmasa bu yilcha mevalarni qoq bo'lasizlar-da.

- Qo'rg'oni ko'rmadik-ku,- yigitga qarab dedi Fazliddin.

- Hovlida bir uy, bir ayvon, yana bir hujra bor. Eski, ammo hali baquvvat...

- Xo'p, ko'rmayman. So'zingga ishonamiz.

Yigitcha kuzatib eshikka chiqmadi. Oqshom qorong'isida daraxtlarning orasida yo'oldi: balki ko'kragini ezgan og'riqning achchig'inii yig'i bilan yumshatish uchun bir yoqqa chekilgandir.

Fazliddin izvoshga o'tirib, Salimboyvachcha bilan xayrashib shaharga jo'nadi. Salimboyvachcha esa katta yo'lga qaraganda ancha qisqa "yolg'iz oyoq" yo'lidan o'z bog'iga ketdi...

Yoz kechasining yoqimli salqini. Ko'kda, daraxtlar ustida g'uj-g'uj yulduzlar yonadi. Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi. Lekin bu musiyqa jimpitlikni buzmas, balki uni quyultiradi. Xotin-xalaj, bolaschaqa orasida o'tirishni yoqtirmagan Salimboyvachcha haligi bog'dan endigina kelib, supada chiroqqa yaqin yonboshlab, tunov kun kechasi majlis qilgan mehmonlar qoldirib ketgan musulmoncha gazetalarga ko'z yugurib o'tirar edi. Nozik rang-barang parvonalar, kapalaklar lampa atrofida aylanar, guldor qanotlarini shishaga urib tipirchilar, gilamga yengilgina qulab, tinar edilar... Orqa yoqdan, qo'rg'on tomondan kavush g'archi eshitildi. Salimboyvachcha beparvolik bilan qaradi. Qorong'ilik ichidan Nuri kelib chiqdi...

- Kel, Nuriy!.. - Salimboyvachcha oyoqlarini yig'ib oldi.

- Bu yoqqa qochibsiz-da. Jilla bo'lmasa, man kelgan kun ichkarida o'tirsangiz bo'lardi. Bu nimasi, shumshayib yop-yolg'iz... Nuri akasining yoniga o'tirdi.

- San yolg'iz emassan,- piching qildi Salim,- Gulnorday onang bor...

Nurining g'azabi tutaqib yonishi uchun har vaqt birgina so'z kifoya edi. U "ih" deb teskari burildi. So'ngra, har vaqtgi bema'ni shikoyatini boshladi. G'azabdan goh ovozini baland qo'yib, goh Salimming ishorati bilan pasaytirib, shivirlab, tizzasiga ura-ura vaysadi:

- Hamma narsaga siz, Hakim akam aybdor. O'sha vaqtida oyoqlaringni mahkam tirasanglar edi, dadam Gulnorga uylanmagan bo'lardi. Bo'sh-bayov ekansizlar. Jilla bo'lmasa, mol-mulkini o'z qo'llaringga o'tkazib olomadinglar. Mana tomosha qiling. Cho'ri qiz boshimizga chiqib, bizlarni oyoq uchi bilan ko'rsatadi. Basharasiga qarasam, dardli ko'rindi. Hammasi yolg'on! Hammasi noz-karashma, odamni mensimaslik... Tavba, bundan ustomonni ko'rgan emasman. U sevinadi. Nima dardi bor? Nimaga muhtoj? Yana it mijoz - darrov bola tug'adi, eshittingizmi? Mirzakarimboyning xazinasi endi Gulnorniki!

- Dadang-chi? Barcha ayb unda emasmi?- bo'g'ilib dedi Salimboyvachcha.

- Dadamni qo'yavering, iloji bo'lsa, yuzini ko'rmasam. Man bu yerga sizlar uchun kelaman.

- Anov qirq ignang kor qilmadimi?!^B"achchiq kulgi bilan dedi Salimboyvachcha.

- Unaqlardan allaqanchasini qildim. Gulnordan ofat qochadi.

Qorong'ilik ichidan kecha qo'ng'izi g'o'ng'illab uchib, o'zini chiroqqa urdi, keyin sachrab Nurining ko'kragini, oq shohi ko'ylagiga yopishdi: bosh barmoq kattaligida qora qizg'ish yoqut kabi... Nuri cho'chib tushdi, ko'ksiga chang solib, qo'ng'izni g'ijimlab, uzoqqa otdi.

- Uh, sho'naqa narsalardai juda qo'rqaman.

Salim yostiqqa yonboshlab, esnadi. Gulnorga qarshi singlisida bo'lgan zo'r kekdan foydalanish kerakmi, yo'qmi, ko'zini yumib o'lay boshladi.

- Salim aka, mana buni o'qib qarang... - bo'shashgan, lekin sirli tovush bilan dedn Nuri.

- Nimani o'qiy,- ko'zini ochdi Salimboyvachcha. Nuri yupqa, yengil ro'mol uchidagi tugunchakni yechib buklangan qog'oz chiqardi-da, akasining qo'liga qistirdi.

- Hali Gulnorning qutisidan topdim, nima xat ekan, deb gumon kilib oldim...

Salimboyvachcha qog'ozni yoyarkan "Eski tintish odating hali ham qolmagan ekan-a", - deb jilmaydi. Lekin xatga ko'zi tushishi bilan yuzi jiddiyashdi, qoshlarining o'rtasi tugunchak yasadi.

- Tovushingizni chiqarib o'qing, men ham eshitay! - Nuri qiziqqandan, o'qishni bilmasa ham, akasiga yaqinlashib xatga tikildi. Salimboyvachcha hatto labini qimirlatmasdan ichida o'qidi. Xatning mazmuni shunday edi:

"Ko'z qorachig'im, dardli yorim Yo'lchiboyga.

Jonim, man muncha baxti qaro yaratilgan ekanmanki, xudo sho'rlik boshimga shuncha kulfatlarni soldi. Koshki tug'ilmasam, koshki sizni ko'rmasam edi. O'shal kuni Shoqosim akaking hujrasida sizni poylab, qishloqqa uchishga qanotlanib o'tirganimda, dadam bilan mahalla ellik boshisi ofatday birdan bosib kelishdi. Dod-faryodimga qulq solmay, dadam qo'limdan sudrab uyga olib ketdi. Qaysi bir rahmsiz, noinsof mal'un biz turgan joyni ularga yetkazganligini bilmayman; bundan keyin ko'rgan azobimni xudo hech bandaning boshiga solmasin. Buni bayon qilishga qalam ham ojiz, til ham ojiz. Bir oy o'n kundan buyon firoq o'tida qovurilaman. Qanotim yo'qli, boyning zindonidan uchib chiqib yoningizga borsam, bu yerda bir mehribonim yo'qli, manga ko'maklashsa. Dunyoda yagona mehribonim, oftobim siz edingiz, baxti qarolik oramizni kesdi. Bundan bir qancha ilgari Unsinoydan ayrildim. Uning ketishini eshitib, ko'nglim yana buzildi, yalinib-yolvorib olib qolmoqchi bo'ldim, ammo qizning ham sizning ra'yingizga to'siq bo'lismi munosib ko'rmadim, ham bu uydagi xotinlar Unsinimi og'ir yumushlarga sola boshladilar, buni ko'rish manga juda og'ir edi. Mayli, Unsinoy siz bilan birga bo'lsin. Yolg'izman, g'arib-benavoman, lekin ko'nglim sizda, fikrim, xayolim sizda. Kecha-kunduz yodingiz bilan yashayman. Botir yorim, bilaman, siz qayg'u daryosiga mandan chuqurraq botgandirsiz. Endi yolg'iz murodim - sizni bir ko'rmoq, siz bilan ikki og'iz so'zlashmoqdir. Agarda bu baxtsiz do'stingizni unutmagan bo'lsangiz, xatni o'qittirgandan so'ngra Unsinoyni yuborib, bu to'g'rida o'z fikringizni bildirarsiz. Dardli ko'nglimni xushnud qilg'aysiz. Gulnoringizdan salom. Ushbu nomani yozib berguvchi ko'zi yoshli, ko'ngli nolon bir qizdan ham Yo'lchiboy akaga salom, qitmir-qitmir..."

Bu xatni bir vaqtlar haqiqatan Gulnor yozdirgan edi. U bilan bir yoshda bo'lib, bir mahallada o'sgan o'rtog'i Zaynab, o'z zamoniqa ko'ra, yaxshi savodli, eski kitoblarni ko'pgina o'qigan qiz, bir kun Gulnorni ko'rgali boynikiga kirgan edi. Gulnor o'zining Yo'lchiga bo'lgan muhabbatini va ular orasida kechgan ishq sirlarini yolg'iz shu qizga so'zlab yurar edi. Zaynabning ham yuragi yarali edi: uning to'yi yaqinlashgan vaqtida sevikli kuyov yigit - ikki kungina xastalanib, o'lgan. Zaynabning otasi qalin pulini yeb qo'ygani uchun, endi Zaynabni haligi yigitning ukasigab^B" Zaynabdan ancha kichkina va oyog'i oqma bir bolaga berishga majbur bo'lib, kuyovning bir oz ulg'ayishini kutar, qizni saqlar edi.

Gulnor o'z do'sti, sirdoshi Zaynab bilan maslahatlashib Yo'lchiga xat yozishga qaror qilgan va so'zlarini yaytib turgan; otin qiz esa Gulnor so'zlarini silliqlab qog'ozga ko'chirgan; ammo Gulnor bu xatni qay tariqada Yo'lchiga yetkazishni o'ylar ekan, bu orada Yo'lchining qamalganini eshitib, xatni qutilardan biriga tashlab qo'ygan edi.

Yoshlikdan boshlab kelinoyilarining sandiqlarini, qutilarini tintib o'rgangan Nuri, bukun Gulnor uyini xoli topib, kalidi burnida unutilgan bir qutini ochdi. Uning maqsadi, Gulnor qutisida qanday narsalar bor, dadasi yashirinchha qanday qimmatbaho buyumlar keltirganligini bilish edi. Natijada bu xat uning qo'liga tushdi.

Salimboyvachcha xatni o'qib, asta bukdi. Hayrat bilan boshini chayqadi.

- Qanday qilib bu narsa qo'lingga tushib qoldi? Qiziq xat. Agar san bir xum oltin topsang, bunday sevinmas edim.

- Oldin siz aytib bering, nimasi qiziq, kimga yozgan, kim yozgan?^B"Hovliqib so'radi Nuri.

- Bunday xatni buzuq xotinlar yozadi, yozdiradi. Xatning ma'nosi shu... - Salimboyvachcha qog'ozni qo'lida mahkam siqib, g'urur bilan davom etdi, b'T"bu narsa qo'limdami, har bir ishni qilaman, hech kim biron aybni bo'yninga qo'ya olmaydi. Bu xat jinoyatni savobga aylantiradi. Har yerda, har kim oldida meni oqlaydi. Endi ko'rasan Nuri.

Salimning so'zлari bu xatga Nurining maroqini hadsiz oshiradi. "Buzuq xotinlarning xati" degan izohga qanotlanmay uni boshdan-oyoq o'qib berishni akasidan so'rab, hech kimga aytmaslik uchun og'ziga kelgan qasamlarni valdiray boshladи. Ammo, naq shu asnoda Mirzakarimboy gapdan qaytib, to'ppa-to'g'ri supaga kelaverdi. Ular bir zum jim qotib, bir-birlariga imo bilan tikilishdi. So'ng Nuri, o'rnidan turib, dadasi bilan sovuqqina ko'rishdi. Boy Nurining kelganiga quvongani uchun, supaga chiqib Salimboyvachcha uzatgan yostiqqa bemalol yonboshlab, qizi bilan har to'g'rida gaplashmoqqa urindi. Nuri, akasi bilan qilayotgan ajoyib sirli subbatning kesilganiga ichidan norozi, es-hushi u xatda bo'lsa ham, dadasi bilan so'zlashmoqqa majbur bo'ldi. Salimboyvachcha so'zga aralashmadи, bir ozdan so'ng o'rnidan turib ketdi-da, sokin qorong'ilikda tanho qezdi, xatning kuchiga suyanib, nima qilishini o'yaldi.

Hozir hamma voqeа unga ravshan: Gulnor Yo'lchini sevadi va qattiq sevadi. Olib qochilgan Gulnorni qutqarib, uni sharmanda qilayozgan noma'lum yigit - Yo'lchi ekan! Gulnorni sevgan va u bilan til biriktirgach bir yigitning mavjudligini o'sha vaqtarda bilgan bo'lsa ham, uning xotiridan Yo'lchi sira kechmagan edi. Noma'lum yigitning kimligini bilib, Gulnorning axloqsiz qiz ekanini o'sha vaqtida fosh etishga jazm qilgan bo'lsa-da, bu fikridan darrov voz kechishga majbur bo'lgan edi. Chunki u yigit ham, Gulnor ham hamma aybni buning ustiga ag'darishlari qulay edi. Salimning fikricha, yigit der edi: "Salimning yomon niyatidan xabardor bo'ldim, qizni o'limdan qutqardim". Qiz der edi: "Men bu yigitni tanimas edim. Meni qutqardi, men unga ko'ngil berdim". Mana shu mulohazalar orqasida o'sha, vaqtida Salimning nafasi ichiga tushgan, hatto u yigit o'zini bildirgan taqdirda, unga yalinishga majbur bo'lishini bilgan edi. Endi-chi? Hozir ish boshqa, Yo'lchi qamoqda. Eng muhimi - mana bu xat. Kerak bo'lsa, dadasiga, akasiga ko'rsatadi. Eski sir aslo qo'rqinchli emas: "Gulnorni ilgaridan bilar edim. Buzuq qizni dadamga munosib ko'rmaganim uchun shunday qilishga majbur bo'lgan edim", deb javob beradi.

Salimboyvachcha uyga qaytib, ko'rpaga kirganda ham har xil o'y va xayollardan ancha vaqt qutula olmadi.

III

Bir oqshom Salimboyvachcha do'kondan qaytib, qo'rg'on ichida, o'z ayvonida yonboshladи. Qo'rg'onda shahar uylari tarzida solingen bir uy, bir ayvon, buniki, qarshi tomonagi shuning siigari bir uy, bir ayvon Hakimboyvachchaniki edi. Bunga yopishgan va ustiga bu yil bahorda yangi shiypon qilingan eskigina bir uy Mirzakarimboyga qarashli bo'lib, u Gulnor bilan aksar vaqt shiyponda yashar edi.

Hozir qo'rg'on ichi tinch. Nuri bilan Hakimbyvachchaning xotini Turusunoy kechki salqinda kezish uchun boqqa chiqib ketgan. Esli bolalar ham ko'rinxaydi. Go'daklar esa beshikda, daraxtlar orasidagi belanchaklarda uxlab yotishadi...

Sharafatxon, semiz qo'y go'shtidan pishirilgan, serpiyoz sho'rvadan bir katta kosada keltirdi. Salimboyvachcha dadasini so'radi. Xotini, Fayozxo'ja boyning bog'iga Sayid Fozilxon eshon kelgani uchun, hozirgina u yerdan kishi kelib, boyni birga olib ketganini bildirdi. So'ng u ham, Nuri bilan birga g'iybat qilish uchun bo'lsa kerak, boqqa yugurdi. Salimboyvachcha uyga kirib tokchadagi idishlar orqasiga yashiringan bir shisha kon'yakni olib chiqdi. Ezilib pishgan yog'liq go'shtni ishtaha bilan yeb, shishani yarimlatdi. Boshi, badani qizib ketdi. O'rnidan turib, hovli sahnida yelpinib kirdi. Gulnor tomonga ko'z tashlab uyda ham, shiyponda ham hech kim yo'qligini bildi.

Shu vaqtida Gulumbibи, betob, ishtahasiz qizi uchun o'z hovlisida, o'z dekchasida tayyorlangan bir kosa serqatiq xo'rda oshni avaylab ko'tarib, eshikdan kirib keldi. Gulnorning uyiga mo'ralab, keyin shiyponga chiqib, kosani qo'yib tushdi. Usti ko'k sirli katta chelakni yulib sigir soqqali og'ilxona tomon ketdi. Hovlida kezib yurgan mast Salimboyvachcha, o'zicha, fursatni va tasodifni juda qulay topdi. Sekingina shiyponga chiqdi. Ichki cho'ntagidan qog'ozga o'ralgan zaharni olib, titroq qo'llari bilan oshga sepidi va qoshiq bilan ildam aralashtirdi. Hovliqib pastga yugurdi. Zinadan endi tushgan choqda, Gulnor bilan qarshilashdi; betob, darmonsiz Gulnor bu kun yuvilib, oftobda qurigan bir quchoq yozlik kiyimlarni allaqayoqdan yig'ishtirib kelar edi. Gulnor bir oz chetlanib yurib, zinaga oyoq qo'ydi.

- Dadam qayqanda-a?.. sarosimalik bilan so'radi Salimboyvachcha.

Gulnor orqaga qayrilmay, "yo'qlar" deb javob qaytardi. Mirzakarimboy Gulnorga uylangadan buyon, ularning birinchi daf'a gaplashuv'i edi...

Salimboyvachcha o'z ayvoniga qaytib, yana konKiyak ichdi. Lekin mast ko'zлari shiypon tomonga beixтиyor javdirayverdi. So'ng, butun a'zosini titroq bosib, tashqariga otildi. Bu yerda besh-o'n minut aylanib yurdi. Titroq o'sdi Ammo, bu titroq vijdon azobidan emas, balki jinoyatni shoshib bajargani, o'z fikricha, yana nozikroq bir yo'l, yana ham qulayroq bir fursat kutmagani uchun, fosh bo'lish vahimasidan tug'ilgan edi. Attorlik rastasida eng qorong'i, eng kichkina bir do'konda minglarcha xalta-xultalardagi shubhali dori-darmon va har nav zahar-zaqqum orasida o'tirgan bir mo'ysafiddan bu kun zahar sotib olarkan, buni qachon va qanday qo'llashni aslo o'ylagani yo'q edi. Zahar qo'lga kirgach, jinoiy fikr o'sdi, butun yuragini, butun borlig'ini chirmab oldi...

Salimboyvachchaning butun diqqati qo'rg'on ichida bo'ldi. Har on, har lahma falokatni kutdi. Go'yo Gulnor hozir oshni ichadi-da, darrov baqiradi. Uyda hech vaqt ko'rilmagan, vahimali bir qiyg'os ko'tariladi... Ammo Salimning kutgani chiqmadi, qo'rg'onda avvalgiday tinchlik, jimgitlik. Bu hol uni yana ezdi. Oxirga qadar kutishga kuch va to'zim sezmadи o'zida. Nihoyat, qo'lini silkidi: "Nima bo'lsa bo'ldik." Hali shahardan minib kelib, daraxtgta qantarib qo'yg'an saman yo'rg'ani mindi-da, ko'chani changitib, do'stlaridan birining bog'iga, uzoq joyga jo'nab ketdi.

Gulnor ikki tomoni ochiq shiyponda yolg'iz o'tirib, kiyimlarni nari-beri taxladi. Onasi tayyorlab chiqqan xo'rda oshni odatda juda sovitib ichishni yaxshi ko'rgani uchun, chetga olib qo'ydi. Shiyponning panjarasiga yaqin kelib uzoqliklarga tikildi. Quyosh botgan. Lekin uning olov daryosi turli ranglar bilan tovlanib, cheksiz bir parda kabi, ufqlarda mavjilanar edi. Bog'chalarni bir-biridan ayirgan devorlar ko'rinxas, ishkomlar, mevazorlar, ekin dalalari tutash yashil manzara yasaydi. Har yoqdan ko'tarilgan tutunlar yupqa ko'k bulut kabi, havoda sekin-sekin eriydi. So'l yoqda, Dadaxon boyning yerida koranda chaylasи oldida ham tutun burqiydi. O'ng tomonida, Mirzakarimboining yeri oxirida baland, to'g'ri o'sgan, uchlari bir-birga tutashgan qator teraklar jimgina titraydi. Bir yoz kechasi to'lın oyning sehrli nurida, mana shu teraklar ostida Yo'lchina kutmagannimi? U shu kecha dadasi tashqarida, boyning mehmonlariga xizmat qilish bilan ovora ekan, onasi shu qo'rg'onda o'choq boshida kuymanar ekan, u oy nurida cho'milgan teraklarning mayin musiqasini sevikli yigit bilan uzoq tinglamaganmidi?.. U chog'larda yuraklari yoshlik, muhabbat, uchrashuv va kelajak baxti bilan to'la edi. Ularning orzu va umid gullari yuksalib, yulduzlarni o'pmoq tilar edi. Endi-chi? U gullarga yovvoyi pechak chirmashdi, rang-nurlarini so'ndirdi, qovjiroq xazonlari ko'ngillarga to'kildi...

Qorong'ilik, Gulnorning qayg'usi kabi quyuqlasha bordi. Unda-bunda yulduzlarning oltini yaltiradi. Qo'rg'onda xotinlarning, bolalarning shovqini kuchaydi. Hakimboyvachchaning tovushi eshitildi. U, samovar qaynatishni buyurib kimgadir qichqirdi. Boyvachcha ko'chada xalq orasida qanday bo'lsa, uy ichida ham shunday gerdaygan, zug'umli edi. Gulnor uydagi yumushlarning hammasiga kuchi yetgancha aralashar edi. Bunga qaramay, kelinlar unga avvalgiday har yumushni qo'pollik bilan buyura olmaganlari uchun, Gulnorni boshqalarga yomon ko'rsatish maqsadida "nozik", "takabbur" kabi yuzlarcha laqablar to'qib ayblashar edilar.

Gulnor o'rnidan qo'zg'aldi, darmonsizlikdan oyoqlari titrab pastga tushdi-da, hovlining burchida samovar qo'ya boshladi. Butun oila bir ayvonga to'plangan. Nuri Hakimboyvachchaga ezmaliq qilishni istar, lekin bolalarning qiy-chuvi gapni gapga qovushtirmagandan u, asabiyalar, goh bolalarga yalinar, goh ularni jerkar edi. Gulnor piyolalarini yuvib, artib, so'ngra samovarni keltirdi, jimgina o'tirib choy quyushga kirishdi. U tanholikni sevar, bu oiladagi kattalarни yomon ko'rар, lekin bular bilan birga o'tirishga, ayniqsa, ovqat va choy paytlarida birga bo'lishga majbur edi. Choy tamom bo'ldi. Bolalar o'tirgan o'rirlarida to'mpayib, yo turli vaziyatda uzala tushib, birin-sirin uslashdi. Kelinlar o'rin solish uchun qo'zg'alishdi. Gulnor dasturxonni va idishlarni yig'ishtirib, shiyponga chiqdi. Chiroq yoqib, ancha vaqt o'tirdi. Pastda "tiq" etgan tovush qolmadidi. Mirzakarimboyning qaytmaganiga sevinsa ham, birga yotish uchun onasini chaqirmaganiga afsus qildi, hozir esa chaqirish vaqt emas edi. Noiloj o'ren soldi, yotish oldida xo'rda osh esiga tushdi. Ertalabki choydan buyon uyda ikki marta ovqat tayyorlangan bo'lsa ham hech nima totmagan edi. Yana bu oshni ichmasa, ertaga Gulsumbibi, albatta koyiydi. Kosani olib, katta yog'och qoshiq bilan shoshib-pishib ichdi. Kosada osh uch enlik qadar ozaydi. Lekin birdan butun ichi allaqanday yulinib ketdi-da, kosani nari itardi, yonidagi chiroqni "puf" deb o'chirdi, boshini yostiqqa og'ir tashladi. Bir muddatdan so'ng, boshi aylanib, yulduzlar uning ko'zi oldida, qandaydir, tuman ichida chirpina boshladi. Butun vujudiga og'riq va olov yugorganini, dahshatli bir nima butun ichini yulib-uzib mijg'iganini sezdi. "Manga nima bo'ldi? Umrimda bunday holga uchraganim yo'q edi, betoblikdanmi? Yo'q. Boshqa narsa!" deb o'yładi Gulnor. So'ng, o'rnidan turib, shiyponning bog' tomonga qaragan papjarasiga suyaldi, bir necha marta kuchli o'qchidi, o'qchirkan ichki a'zolari halqumiga tiqilib kelganday bo'ldi. Oyoqlarining akashaklana borganini, butun gavdasining tirisha boshlaganini sezdi. Emaklab-emaklab o'rniliga keldi. Qo'rg'onda "tiq" etgan tovush yo'q. Hatto, beshidagi bolalar ham tip-tinch... "Birontasini chaqirmsam, keyin, albatta. masxara qilishadi, kulgi, mazax uchun ularga bahona topiladi", deb o'yładi Gulnor. Lekin minut sayin holi og'irlashaver gach toqatsizlanib qichqirdi: "Oyi, oyi... chaqiringlar oyimni!"

Anchadan so'ng Hakimboyvachchaning xotini Tursunoy chiroq ko'tarib chiqdi: "Qo'rqeddingizmi?. Yolg'iz qolgan odam yarim kechada hammani bezovta qiladimi? Erkalik ham va evi bilan-da!" po'ng'irlab chiroqni Gulnorga yaqin tutib, birdan cho'chib ketdi. "Voy, nima qildi sizga? Nima-nima?.. Nega to'lg'onasiz, chiyon chaqdimi?"

Gulnor javob bermadi. Tursunoy: "Men hozir Hakim akangizni uyg'otaman, Gulsum opani chaqirsin", deb chiroqni qo'yib, pastga yugurdi.

Haykimboyvachcha, Gulsumbibi, Nuri va boshqalar kelgan vaqtida Gulnor o'z-o'zi bilan ovora edi.

- Onang o'lsin, nima darding bor, manga qara, Gulnorim! Gulsumbibining tovushi Gulnorni bir qadar hushyor qildi. Qo'llarini olpi-solpi qimirlatib go'yo onasini quchaqlamoqchi bo'ldi. Keyin oshni ko'rsatdi: "Ichdim, ichimga balo kirdi..." Yana o'qchimoqchi bo'ldi. Ona shoshib mis barkashni tutdi. Gulnoring ko'zları dahshatli ravishda yonib, yuzi, lablari ko'kimtir tusga kirgan edi.

- Zahar! Gulsumbibi.- Qay tig'parronga uchragur, sani zaharlaydi. Sho'rim qursin! Zahar! - Tizzaga urib, qizini quchoqladi ona.

Hakimboyvachcha Gulsumbibini kuch bilan siltab tortdi ko'zlarini piyoladay baqraysitirib bobilladi:

- Bas, uyatsiz maxluq!.. Kim uni zaharlaydi? Bu gapni man ikkinchi eshitmay... Har kasalni Ollo beradi. Zahar emish! Gulsumbibi hansirab atrofga qaradi, Gulnorga tikildi, yer ostidan Nuriga o'qraydi-da. lavom etdi.- Man hozir Yormat akani tabibga yuboraman. Otda g'izillab keltiradi.

Hakimboyvachcha pastga tushib ketdi. Uning orqasidan Nuri ham yugurdi. U birinchi qarashdayoq Gulnoring zaharlanganini, buni Salim akasi bajarganini bilgan va ichida: "Nega muncha shoshmasa... Manga topshirmaydim! Shunday hiyla bilan berardimki, tabiblar barmog'in tishlab qolgan bo'lardi", deb o'ylagan edi.

- Oyi, suv. Suv!- Gulnor dam ko'kragini, dam tomog'ini, dam boshini g'ijimlab eza boshladi.

Tursunoy suv keltirish uchun pastga yugurdi. Gulsumbibi esini yo'qotib, nima qilishini bilmay, esankirab qoldi. Gulnor o'qchib-o'qchib, bazo'r so'zladi:

- Zahar... Salim qo'shgan. Qani u? Bu yerga undan boshqa odam chiqqani yo'q...

- Uni bu yerga chiqqanini ko'rganmiding?- jinnilarcha baqirdi Gulsumbibi va Gulnorni quchoqladi.

- Aniq u... Umrim zaharlangandi. Endi qutulaman. Bular hammani zaharlaydi. U qamoqda!.. Hammani zaharlaydi bular.

Hammani. Oyi, o'laman. Yo'lchini ko'rmasidim. armonim shu. Oyi, kechiring...- Gulnor jim bo'ldi.

Gulsumbibining esiga to'satdan bir "dori" tushdi. Zaharlangan odamga qo'yining qumalog'ini suvg'a ezib, lattadan o'tkazib ichirilsa, tuzaladi, degan so'z bir vaqt qulog'iga chatilgan edi. Zinaga otildi. Lekin zinadan yurib emas, yumalanib hovliga tushdi.

Cho'loqlanib og'ilxonaga yugurdi. Qorong'ida timirskilab, bir hovuch qiyini olib, kosada ezib, shiyponga uchdi. Tursunoy bir qo'lida suv, bir qo'lida qatiq bilan Gulnoring boshida baqraysib qotgan edi. Gulsumbibi qizini quchoqlab qichqirdi. Lekin Gulnoring yarim ochiq ko'zlarida hayot so'ngan edi. Ona qaqshoq qo'llarini qizining yuragiga qo'ydi. So'ng, sachrab turib, o'zini yerga urdi, faryodi bilan kechani zir titratdi...

IV

Bugun Gulnor vafotining sakkizinchı kuni. Kecha, odatga muvofiq, nari-beri "etti" qilindi. Yormat bilan Gulsumbibi Gulnoring qabriga borishdi. Olib kelingan osh-nonni va sham pulini go'rkovga topshirib, "Shayx Zayniddin bobo"dag'i go'ristonda, katta tut daraxti ko'lkasida do'mpaygan yangi qabrni quchib, tuproqlariga yuzlarini surtib, soatlarcha yig'lab, ko'zları shishgandan, tinkalari qurigandan so'ng qaytishdi. Uyga kelgach, Yormat xotinini o'z yurtiga jo'nashga qistadi.

Gulnor o'limining uchinchi kuni Samarqanddan ularning bir qarindoshi, Gulsumbibi opasining o'g'li, sodda dehqon yigit tasodifan kelgan edi. Qarindoshlarning qayg'usiga, motamiga u yigit ham samimiy ishtirot qildi, so'ngra, Yormatning fikrini quvvatlab kampir onasining yoniga dardli xolani olib jo'nashni juda ma'qul ko'rdi. Ammo Gulsumbibi qattiq e'tiroz qildi, qizining butun ma'rakasini o'tkazgandan keyin, qabrga haydasalar ham dadil borishga tayyorligini so'zladidi. Ammo, erining qistovi bilan, nihoyat,

Samarqandga jo'nashga, qizining ma'rakalarini o'sha yerda o'zi o'tkazishga majbur bo'ldi. Yormat "qora kun" uchun o'n yillardan buyon tiyinlab, juda ko'p bo'lsa, bir mirilab yiqqan pulini sanadi: bir yuz qirq uch so'mga yaqin. Pulni qarindosh yigitga berdi. Xo'jayinlardan hech nima so'ramadi, chunki Yormat bu kunnarda ularning basharasiga qarashni istamas edi...

Gulsumbibi jo'nab ketgach, uning dardi yana behad ziyodalashdi. U Mirzakarimboy dargohida yigirma yilga yaqin quldek ishlab, niyoyat, bu kungi vaziyatga tushdiki, bu hodisa uning borligini ost-ust ag'dargan edi.

Gulnorning zaharlanganini Mirzakarimboy va o'g'illari qat'ian rad qilib, ma'sum qurbonning ota-onalarining tillarini do'q-tahdid bilan muhrlashga tirishdilar. Gulnorning o'limini ular g'oyat sovuqqonlik bilan qarshilashga urindilar. Ular: "Gulnor o'z ajali bilan o'ldi. Ajalga davo yo'q!" deyishdi.

Lekin Gulnorning o'lim oldida aytgan so'zlarini Gulsumbibi o'z eriga uqtirgan edi. Yormat uchun bu narsa qilcha shak-shubhasiz bir haqiqat edi.

U butun kun kuyib-yonib, boshi oqqan yerlarda jinnilarday tentirab, xufton vaqtida boynikiga sang'ib kelib qoldi. Katta darvoza oldida izvosh tayyor, yaqinda yollangan haydovchi Egamberdi arava oldida qaqqayib kimnidir kutib turardi.

- Qayoqqa borasan?- dedi Yormat.

- Salim aka Isqobilga jo'narmish. Vokzalga eltilib tashlayman.

- Jo'na, boshqa yumushlarni qil. Man o'zim haydayman, stansada yumushim ham bor, - dedi-da, Yormat haydovchi o'rniga o'tirib oldi.

Bir ozdan so'ng chamadonini ko'tarib, Salimboyvachcha chiqdi. Aravaga o'tirmasdan burun gugurt yoqib papiros tutatar ekan, Yormatga qo'zi tushdi, tilyog'lamalik bilan:

- Sizga bir qadar tinchlik kerak edi, Yormat aka. G'am yomon bo'ladi,- deya izvoshga o'tirib davrm etdi, b'T"eski qadrondonsiz-da, to o'zingiz, jo'natmaguncha, qo'nglingiz tinchimaydi. Shundaymi, otaxon? Xo'p, tezroq haydang, kechikaman.

Yumshoq tuproqda g'ildirak tovushsiz uchdi. Salimboyvachcha shod, tinmasdan so'zlaydi. Iskobilda ikki haftagina o'ynab qaytib, keyin Peterburgga jo'namoq maqsadida ekanini, urush bitgan hamon zagrantsaga sayohat qilmoqchilagini, Yormat eshitsin uchun qichqirib gapirdi. Gulsum opaning tezroq qaytishi uchun Samarqandga xat yozish kerakligini Yormatdan so'radi.

O'n minut qadar yo'l yurilgach, bir tomoni chuqur jarlik ko'chada Yormat birdan otni to'xtatdi.

- Nnma, biron narsa tushib qoldimi? b'T"eparvo so'radi Salim. Yormat javob bermadi, aravadan yerga sakrab, yerdan bir nimani olgan kabi, engashdi va Salimboyvachchaga yondashib, allaqanday yomon ovoz bilan xirilladi:

- Mani qari eshak fahmladingmi? Sher bo'lsang, kuchingni ko'rsat, itvachcha!

G'oyat chaqqonlik qo'rsatib, qattiq zarb bilan Salimning ko'kragiga pichoq urdi.

- Yuragimni zaharlading, yuragingni qiymalayman-da! b'T"yana bo'g'ilib xirilladi Yormat.

O'tkir pichoq Salimning naq ko'kragiga suqilgan edi. Salimboyvachcha bukchaygancha - qimir etmay, qotdi. Qon va o'lik hidini sezgan ot pishqirib, bezovta bo'ldi. Yormat pichoqni sug'urib olib, uzoqqa otdi. Keyin, mudhish sokinlik va sovuqqonlik bilan boyvachchaning etagidan tortib tushirdi, qalin yumshoq tuproqda sudrab, jar yoqasiga keltirdi va jasadni, butun kuchi bilan pastlikka uloqtirdi. Chuqur xo'rsindi. Otni bir chetdag'i daraxtga mahkam boyladi. Qonli qo'llarini tuproqqa obdan surib tozalagan bo'ldi. Ko'zları notinch yonib javdiragan, boshini chayqab, so'lig'ini g'ajigan otni silab-siypab, so'ng qorong'ilikka kirdi.

Qayooqqadir, balki Gulnorning mozoriga, ildam jo'narkan, lablari muttasil pichirladi: "Nima ish qildim? Gunohmi, savobmi? Soqolim oqarganda qo'limni qonga botirdim. Mana, hali ham barmoqlarimga chilp-chilp yopishadi! Yo'q, man qizimdan so'rayman. Ayt, jonim, Gulnorim, ayt! Man yolg'iz saning qarshingda gunohkorman. Eski gunohkorman. San ayt, ma'qul bo'ldimi? Bu qon oz desang, yana to'kaman. Hammasini qiraman. Albatta, bu qon bir tomchi. Bundaylardan mingtasining qoni bir tola sochingga arzimaydi. Bilaman, qizim. Hammasini qiraman, dadang endi qo'rqlaydi. Ular endi xo'jayin emas manga, qizim. Yelkamga xo'p minishdi. Endi bas! Ko'zim ochildi, Gulnor. Lekin bu ko'z qurg'ur juda kech ochildi. Yuragimga zahar yugurganda ochildi. Yuragim san eding, Gulnor. Ko'zim ilgari ochilgan bo'lsa edi, man o'z yuragimni bo'rirlarga yedirarmidim? Tongla mahsharda qay yuz bilan sanga boqaman? Qizim, kechir, bu adashgan, ko'r dadangpi kechir! Gunohimni zarracha kechirishing uchun qo'limni qonga tiqdim. Oppog'im, Gulnor, kechir... Evoh, essiz umr, essiz qizim..."

O'n sakkizinchi bob

I

Yo'lchi tunda kelib kirgan bir tashlandiq tegirmonda, zax yerda bir chimdim uxlab, tong vaqtida tashqari chiqdi. Qorni juda och edi. Lekin unga birinchi galda soch-soqolini qirdirish mashaqqati tushdi. U ko'pdan buyon qo'liga oyna olmagan bo'lsa-da, yuzi qay holda ekanini yaxshi bilar edi. Faqat, kissasida siyqa chaqa ham yo'qligidan anhor bo'yida yerga botgan eski, siniq tegirmon toshga o'tirib, uzoq vaqt bosh qotirdi. Sotish uchun hech nima yo'q. Etikni turmada yo'qotgan. Ustida uvada chopon, buni bozorda yolg'iz eskifurushlar olishi mumkin. Bordiyu, omad kelib, shu atrofdan birovga yalinib sota bildi, u vaqt o'zi yirtiq ko'yakda qoladi... U birdan qo'lini keskin silkidi: "Shunga ham qayg'urishmi!" dedi, manglayini chuqur chiziqlar kesdi, u shu kecha o'zi bilan birga turmadan qochgan ajoyib o'risni - Petrovni o'yldi: hozir qaerda ekan-a? Ishqilib qo'lga tushmasdan, Maskovga yetib olsin-da. Otash arava Maskovga necha kunda eltadi, deb so'ramabman ham... Ha, u yuk tashiydigan vagonda jo'naydi, chiptasiz, boshqasiz yuklarning orasida pisib ketadi... Tutilib qolmasa, kallasi joyida: tegirmonga tushsa butun chiqadiganlardan u. Lekin ovqatdan qiynaladi-da, mendan battar chaqasiz edi.

Yo'lchi turmada yasharkan, unga tug'ishgan og'a-ini singari mehribon bo'lgan Petrov bilan birinchi uchrashuvdai boshlab, to so'nggi damgacha o'tgan hayotini hozir o'z fikridan bir-bir kechirdi. Petrovning uchun yangi, yorqin, ulug' bir dunyo ochgan, unga alangali umidlar bag'ishlagan, uning kuchlariga chin qahramonlik maydonini ko'rsatgan, olmosday o'tkir, quyoshday porloq, ammo shu bilan baravar sodda, har bir mehnatkashning, har bir ezilganning yuragiga yopishadigan fikrlariga sho'ng'ib ketdi.

Qanday ishslash kerak, nima qilish kerak, nimadan boshlash kerak - bu xususda Petrov uqtirgan kengashlarni chuqur mulohaza qildi. Faqat, qalbini to'ldirgan ulug' fikrlarni kimga ochadi va qanday ochadi? Buning uchun so'zamol bo'lish kerak-ku! Ilgari juda qulay bo'lib ko'ringan narsa, endi atroflicha o'ylaganda, hazilakam emasligi ravshanlashdi. "Bunday qilaman,- labini qimirlatib o'z-o'ziga shivirladi! Yo'lchi,- avval shunday odamlarni tortamanki, o'zimga qanday ishonsam, ularning diliga shunday ishongan bo'lay... Ular shunday odamlar bo'lsinki, bolKshevik Petrovning yo'liga kirgandan keyin o'tga ham, suvg'a ham o'zini urishga tayyor ko'rsatsin, joni dili bilan ishga berilsin. Eng yaqinlarimdan, sinaganlarimdan boshlayman. Bu ishda shoshqaloqlik, yengillik yaramaydi. Mana Qoratoy. U jamiki to'ralarga, jamiki boylarga o't bilan suvday. Uning ukasi Jumaboy. Ishchi yigit, tramvay

yo'lini tozalashdan boshi chiqmaydi. Albatta, boyonlarga qarshi. Xo'sh, yana paxta zavodda ishlaydigan "Barat maxorka" bor,- bu sira qaytmaydigan xilidan. O'roz, Qambar, yana qarol, chorakorlardan qancha tanishlar bor! Bularning bari bolKjshevik fikriga intizor, bari bolKjshevik bo'ladijan yigitlar..."

Ko'kragini to'ldirgan ichki tetik quvonchi bilan Yo'lchi qaddini rostladi, atrofga ko'z suzdi. Quyosh chiqib anhor yoqasidagi tollarni oltinlatgan; toza, yorqin havo ko'zni qamashtiradi. Tashlandiq tegirmomonning chirik novidan suv, mayda kumush tomchilarni sachratib, guvillab otiladi. Bu yer pastqam joy bo'lgani, suvning narigi yog'ida, baland qiyalikdagi "yolg'iz oyoq" yo'ldan boshqa ko'chasi bo'limganidan, atrofda hech kim ko'rinxaydi. Yigit muloyim jilmaydi: "Rosa gadoy topmas joyga o'zimni uribman-da", dedi va eski choponining qo'lting'iga puxta yashirgan qog'ozni ushlab boqdi. Bu Petrovning o'z do'stiga, Andreev degan ishchi bolKjshevikkaga topshirish uchun yozib bergen xati bo'lib, unda Yo'lchi yangi dunyoga tavsiya qilingan edi. Petrov bu xatni berarkan, uni yonda saqlamaslik kerakligini, tutilish tahlikasi o'tganligiga ishongan taqdirda ham, kiyim-kechakni, mumkin bo'lsa, basharani ham o'zgartib, g'oyat ehtiyyotkorlik va sergaklik bilan Andreevga topshirish lozimligini Yo'lchiga uqtirgan edi. "Man topgan oltimin. Yo'q, oltin nima! Bu - butun umr-ku..." ichida o'yaldi-da, Yo'lchi, go'yo umid-istakning qudratli qanotlarida ko'tarilgandek, sachrab urnidan turdi va anhor bo'ylab ketdi.

Boylarning chaqiq'i va choyxonada politsiyaga qilgan "beadabligi" orqasida Yo'lchi qamalgach, uch-to'rt kundan keyin temir qafasga bir rus ham o'tqazildi. Dahshatli yolg'izlikdan yurak-bag'ri ezilgan Yo'lchi, u kirib kelganda muloyim, samimiy tabassum bilan do'stona qarshiladi. Koshki til bilsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa!.. Rus birinchi qarashdayoq Yo'lchiga yoqdi. U o'rta bo'yli, keng yag'rinli, quyuq jingalak sochli, qo'llari baquvvat, o'ttiz besh-qirq yosh orasida bir kishi edi. Etigi, shimi, kalta kamzuli eski bo'lsa ham, lekin hali unchalik to'zimagan edi. Uning ko'zlarida, yuzida va butun harakatlarida sokinlik, jiddiyat va kuch yaqqol sezilib turar edi. U eski, yupqa namatdan odyolga o'ralsan tugunni burchakka tashladi-da, bir qo'lida ezilgan shapkani o'ynab, ikkinchi qo'lini shim kissasiga tiqib, Yo'lchiga boshdan-oyoq bir zum tikilib, qalin ovoz bilan "yaxshi" dedi, so'ng haligi tugunga yonboshladi, uzoq vaqt o'ylanib yotdi. Lekin u ko'z qiri bilan yashirinchha tikilib-tikilib qo'yayotganini Yo'lchi fahmladi va o'zini yomon odam emasligini bildirishga tirishdi va o'ylanib dedi:

- Seniki mastiravoy!

U yotgan joyida boshini qimirlatib tasdiqladi-da, so'ng:

- Zavod rabota...- dedi jiddiy ravishda.

- Maniki boyda rabota yasaydi,- jonlanib gapirdi Yo'lchi, yana aniqroq tushuntirish uchun, choponining yirtig'idan jinday paxta uzib yerga tashladi va harakat bilan ketmon chopishni ko'rsatdi. Rus iljaydi va "tushunaman" deganday, ko'zlar bilan imo qildi-da, yana jum o'ylanib yotaverdi. Ertasiga u tugun ichidan qalingina bir kitob chiqarib ko'zini undan uzmay, ichida o'qib yotdi. Faqat eshik orqasidan biron tovush kelsa, yoki biron harakat sezilsa, kitobni chaqqonlik bilan yashiradi, yana qo'lga oladi, soatlarcha ko'z uzmaydi. Bu narsa aqli Yo'lchiga ko'p ma'nob bildirdi, borgan sari rusga muhabbat orta bordi, tashqaridagi shubhali tovush va harakatlardan uni ogohlantirib turdi. Lekin o'z savodsizligidan endi juda chuqur o'ksindi: Mana, bu o'ris kitob bilan dardlashib yotibdi, labi qimirlamasa ham, gaplashayotibdi. Eh, ko'rlik qursin!.." Bugun ular bir-birlarining ism va familiyalarini o'rganishdi. Rusning familiyasi Petrov...

Bir necha kundan so'ng ular chin do'stlik bilan bog'landilar. Bu do'stlik turmada, temir qafasda birga kechirilgan og'ir kunlarning siqintisi ostida tug'ilgan tasodifiy va muvaqqat qadrondonlik emasdi; fikrlari, hislari, istaklari, yuraklari yaqin bo'lgan va bularning ma'khnosini ko'zlar bilan, ichki tuyg'u bilan tuygan shaxslarning o'rtoqligi edi.

Til bilmaslik birinchi haftalarda ularni qattiq qiyndi. Lekin so'zlashuv uchun ularda kuchli orzu, ruhiy zaruriyat bo'lganidan. bu kiyinlik asta-sekin yo'qolaverdi. Ular eng ibtidoiy tilga - harakatlar, imolar bilan fikr uqtirishga murojaat qildilar. Bu ishda Petrov ajoyib mahorat ko'rsatdi, Yo'lchi ham undan ortda qolmaslikka tirishdi. So'ng, asta-asta ikkisi ham "tilga kira" boshladi, so'zlik ko'paydi. Keyingi oylarda esa ularning tillari ochilib ketdi.

Yo'lchi uchun Petrov yolg'iz fikrlari bilangina emas, butun hayoti va kurashi bilan muallim bo'ldi. Unga chuqur hurmat va sevgi bilan qaradi. Shunday odamni sevmaslik mumkimmi, axir!.. Petrov qishloqda, kambag'al dehqon oilasida tug'iladi. Tirikchilik uchun o'n uch-o'n to'rt yoshda oila quchog'idan ayrilishga majbur bo'ladi. Rostov shahriga kelib zavodga kiradi, masterlarning qo'lida shogird bo'lib ishlaydi. Zolim hayotning butun qahr-g'azablariga yo'liqadi. Boylarga, pomeshchiklarga va ularning davlatiga nafrati oshadi va "hamyoni zo'rlar" ning hokimiyatini parchalashga bel bog'lagan kurashchilarga tabiiy bir ichki intilish bilan yaqinlashadi. Ularning yordami bilan o'qish-yozishni o'rganadi, zo'r tirishqoqlik va sevgi bilan kitob mutolaasiga beriladi va mustahkam fikrlarga ega bo'ladi.

1905 yil revolyutsiyasini Petrov qattiq bolKjshevik bo'lgan holda, barrikadalarda qo'lida miltiq bilan turib qarshilaydi. Bundan keyingi hayoti qamalish, qochish, yashirinish bilan, bolKjshevistik ish va kurash alangasi bilan o'tadi. Ikki yil ilgari Toshkentga kelib, temir yo'l masterskoylarida ishlay boshladi. Ishchilar orasida urushga qarshi tashviqot yurgizgani va zabastovka tashkil qilgani uchun qamaladi. Boylarning bo'yinturug'i ostida obdan ezilgan, butun borlig'i ularga qarshi nafrat bilan to'lgan, kurash yo'lini qidirgan bu aqli yigitni boshladi. Yo'lchini Petrov butun revolyutsion ruhi va sevgisi bilan tarbiyalaydi, revolyutsion kurash alangasi bilan uning fikrlarini oydinlatadi. Jamiyatda boylar va ishchi-mehnatkashlar sinfi borligini, boylarning manfaatlari bilan mehnatkashlarning manfaatlari bir-biriga zid ekanini, boylarning oltin-kumushlari mehnatkashlarning qoni, teridan yaratilganligini, butun davlat va uning mahkamalari boylarniki bo'lib, mehnatkashlarni ezish uchun xizmat qilishini tushuntirdi. Boylarning va hamma mulkdorlarning zulmidan qutulish uchun, ozodlikka, baxtga erishish uchun, hamma mehnatkashlar, din, millat farqiga bormasdan birlashib, uyushib, boylar hokimiyatini ag'darishlari va butun ishni o'z qo'llariga olishlari; so'ng baravarlikka asoslangan hayot tuzishlari kerakligini uqtirdi. Yo'lchini savodli qilishga astoydil urindi. Qo'lga bazo'r ilinadigan kichkina qalam bilan (u bu qalamchani yer-ko'kka ishommas edi) maxorka qog'ozlariga yozib, Yo'lchiga ruscha harflarni tanitdi. Natijada Yo'lchi dastlab o'z ismi va familiyasini yozishni o'rgandi, keyin, yirik yozilgan harflarni qo'shib o'qiydigan va yozadigan bo'ldi, har kun terlab-pishib, soatlarcha yozuv mashq qildi. Nihoyat, kecha kechasi ikkisi turmadan qochib chiga bildi. Kuchli hayajon va samimiyat bilan quchoqlasha-quchoqlasha, vaqtincha ayrilishdi...

Yo'lchi anhor yoqasida qalin o'sgan tollar, teraklar, yapasqi o'tlarni oralab ketdi. Bir qancha yurgach, Taxta-ko'prikka chiqdi. Ko'priq qarshisidagi ko'cha unga ko'rindi. Endi odamlar - otliq, piyoda, yosh-qari uchrav boshladi. Ko'plari undan hurkib, shubhali nazar bilan qarab-qarab, chetlanib o'tar edilar. Yo'lchi ularga sira ahamiyat bermay, tanish ko'cha tomon yurdi. Bir ozdan so'ng mahallaning bo'g'ot tomli, past, xaroba uylari orasida gerdaygan, devori oppoq ganch, ikki qavatli imorat ro'baro'sida go'xtab qoldi. Bu imorat Jamolboy paxtachiniki edi. Uning xizmatkorli Jo'ruga yo'liqish uchun darvozaga kirdi. Otxonaga qarshi hujraning eshigini itarib qarab, uydalar hech kim yo'qligini bilib, xomush turgach, otxona ichidan iflos kurak va supurgi ko'tarib, Jo'ra chiqdi va

Yo'lchidan o'n qadam narida kurakka suyalib, hayratdan so'rrayib qoldi.

- Hormang, Jo'ra aka, mendan muncha hurkmasangiz...

Yo'lchi iljaydi. U tomon qadam qo'ydi.

- Hov, qadimgi Yo'lchimisan? Vajohatingdan odam emas, ot ham aravani olib qochadi!..

Mahkam qo'l siqishgandan keyin, hujraga kirishdi. Yo'lchi o'z sarguzashtini so'zlarkan, baqrayib tinglagan Jo'ra, sabrsizlanib so'radi:

- Endi tamom bo'shattilarmi sani?

- Bo'shatish qayoqda! Qochdik...

- Turmadan? B'Tko'z oqlarini o'ynatib so'radi Jo'ra. Yo'lchi voqeani aytib berdi.

- Endi ehtiyyot bo'l, sani qidirishadi,- tahlikani qo'l harakati bilan ishorat qildi Jo'ra va davom etdi.- Lekin xafa bo'lma, inim. San shuncha narsani bilib, ko'rib chiqibsan. Bu vaqt ichida man nima ko'rdim? Bo'ynim bog'liq ham emas, yechiq ham emas. Qamoq bo'lmasa ham, qamoqqa o'xshaydi. Erta-kech yumush. Hemiri yonga tushmaydi. Qimmatchilik. Yana bular yetmaganday, oq podshoh degan xunasa farmon chiqarib, xalqdan mardikor so'rab qoldi. Urushda qo'li baland emas shekilli. Hammaning yuragi taka-puka...

- Mardikor olish? Bu qanday hangama?- qoshini chimirib Jo'raka tikildi Yo'lchi.

Jo'ra bu to'g'rida bilgan-eshitganlarini to'kib soldi.

- Yana kambag'allarning sho'ri qaynaydi, deng,- dedi Yo'lchi g'azablanib.

- Otangga rahmat!- O'rnidan irg'ib turib dedi Jura.

- Eldan burun manga xaridor topildi: xo'jayin o'z jiyani o'rniga mani yubormoqchi!.. Sanlar uchun mani tuqqan enam o'lsin, dedim.- Jo'ra bir minut yerga boqib sukut qildi. So'ng, sekingina dedi:- Yumushlarim ko'p. San bemalol o'tiraver... e, soching? Man hozir...

U bir o'spirin sartaroshni boshlab keldi. Kursi bo'limgani uchun Yo'lchi hujraning baland ostonasiga o'tirdi. Sartarosh pastga tushib, ildamlik bilan ishini bajardi. Yo'lchining qo'liga kichkina to'garak oynani tutqazdi. Yigit unga boqib, mo'ylovini chimirib, sartaroshga rahmat aytdi. Jo'ra kissasini kavladи, sartaroshning haqini berib, jo'natdi. Keyin Yo'lchiga non qo'ydi, samovar-qumg'onдан bir oz sovugan choy damladi. Kechga qadar shu yerdan qo'zg'almaslikni uqtirdi. Yo'lchi anhorda cho'milmoqchi ekanini so'zladi. Jo'ra do'stlarcha koyib-koyib, hujraning besh tiyinlik chaqaday qulfini ko'rsatdi-da, yo'qoldi.

Yo'lchi choydan so'ng qog'ozday yupqa, chang bosgan bir parcha sovunni tokchadan topib, haligi anhorga bordi. Yechinib suvning mayin, yoqimli, sovuq to'lqiniga ko'mildi, chuqur joyga yetganda, bir sho'ng'ib oldi. Keyin yana past joyga qaytib, yupqa sovunni boshga va badanga bir surib chiqdi, sovundan kir aralashgan ko'pikdan boshqa bir iz ham qolmadi. Qo'llari bilan gavdasini kuchli ishqarkan, shunda o'zining ozganini, yirik suyaklarining qavarganini sezdi.

Anhor, suv og'ushida keng-mo'l yayarshga u qadar imkon bermasa-da, yigit qulochini katta otib, suvni "shaq-shaq" savalab, qirg'oq bo'ylab uzunasiga suzdi, gavdasi, qulochi bilan suvni ko'pirtirib, kuchli chayqatdi. Uzoqda, suvni hatto jimirlatmasdan, sekin va mayin sirpanib suzgan oq, olachipor o'rdaklar hurka-hurka g'ag'illashib, har tomonga ildam qochishdi. Yo'lchi suzgan sayin o'zini yengil sezar, tomirlari kengayar, naylari yoyilar, ularga kuch to'lib, butun gavdasi rohatlanar edi. Atrof tinch. O'tkinchilar oz. Anhor yoqasida, tollar orasida, ikkita oq echki o'tlab yuradi, ba'zan soqollarini serkillatib Yo'lchiga qarashadi-da, so'ng boshlarini yana maysaga uzatishadi. Quyosh ancha ko'tarilgan. Lekin uning daraxtlar orasidan siljigan shu'lesi bu yerda kuydirmaydi, aksincha, badanga g'oyat yoqadi.

Yo'lchi kiyinib, yengilgina yurib ketdi. Jo'raning dim, qorong'i hujrasiga qamalishni istamadi. U odamlar orasiga tezroq kirishga, har narsani bilishga, ishlashga shoshdi. Unsinni ko'rish, go'zal xayol va dardli yodi bilan uning yuragini borgan sari chuqurroq yaralagan Gulnor to'g'risida ikki og'iz so'z eshitish orzusi kuchli edi. Lekin kechki yemoqqa chaqa topish uchun zaruriyat sezdi. Har qanday tahlikaga qo'l sitlab, bozorga ildam yugurdi.

Quyosh tik kelib, hamma yoqni kuydirardi. Toshlar oyoqlarni jiz-jiz uzib oladi. Chang. Kuchli issiqdan nafas bo'g'iladi. Bozorning g'ovur-g'uvuri avjda, odamlar asabiy, qo'pol. Hammadan ter isi keladi. Hammaning tilida shikoyat: qimmatchilikdan, mardikor olish voqeasidan, bekorchilikdan shikoyat...

Yo'lchi kechga qadar necha yerga yuk tashib, horg'in hol-da Jo'ranikiga keldi. Kalid yo'qligidan hujrasiga kira olmay, Yo'lchini kutgan Jo'ra bilan bir oz gaplashib, singlisining oldiga ketdi. Yelkasi ustiga qo'ygan og'ir yuklar ostida terlab-pishib, ming azob bilan topgan puliga yo'lda Unsin uchun atigi ikkitagina yupqa vaznsiz non, oz-moz uzum ola bildi...

Nim qorong'ilik ko'chada hassasini do'qillatib borayotgan Shokir otani uzoqdan payqab, sevinib yugurdi va cholning oldini to'sdi:

- Bardammisiz, boboy?

Chol seskanib boshini ko'tardi, yigitni quchoqlab, suyak qo'llari bilan uning yelkasini siladi. Hayajondan so'zlashga so'z topa olmay, oldinga tushib, kalavlanib ketaverdi va eshikka kirmasdan qichqirdi:

- Qizim, sevinchi ber! Akang.

Unsin hovlidan uchib chiqdi, akasini mahkam va uzoq quchoqladi.

- Yig'lama, yig'lama, jonim!- yuragi hislar bilan to'lib-toshgan Yo'lchi titroq ovoz bilan qizni yupatdi.

Kampir uzoqda turib so'rashdi va duo qildi. Unsin darrov chiroq yoqib, hovli yuziga joy soldi. Yo'lchi o'trigach, Shokir otaning yetim nabiralarini tizzasiga olib, o'pib, uzumdan ikki boshni ularning qo'lita tutqizdi. Bolalar behad quvonishib, Yo'lchining bo'yniga osplishdi. Yo'lchi Shokir otaning ahvolini, tirikchiligin so'radi. Chol zamondan ko'proq shikoyat qildi, o'z tirikchiligi haqida shunday dedi:

- Qiyinlikka qiyin, bolam. Lekin chorig'imizni sudrab turibmiz. To'g'risini aytasam, bizni qizim Unsin boqmoqda. U tikkan mahsilarni qo'lingga olu, tomosha qil. Sayraydi-da! Bunday tuyg'un, bunday ziyrak, bunday boadab qiz yetti iqlimda ham topilmaydi.

Bu so'z Yo'lchini juda quvontirdi. Chunki u, singlim kambag'al oilaga boqim bo'lib qoldi, deb o'ylar, o'ylagan sari har vaqt yuragi ezilar edi. Shokir otadan shunday iltifotga, maqtovga sazovor bo'lgan singlisini to'yib ko'rish uchun ko'zlarini bilan hovlini aylandi. Unsin ko'rinnadi. Bir muddatdan so'ng, u uy ichidan yugurib chiqdi-da, orqa tomonidan kelib, akasining boshidan do'ppisini olib tashladi. Yo'lchi uchun o'zi tayyorlagan yaxshi "tagdo'zi" do'ppini kiydirdi. Yo'lchi do'ppini olib, chiroqda tomosha qilib, yana kiydi, singlisiga rahmat aytib, uzoq tikilar ekan, qizning ko'zlarida chuqur qayg'u ko'rди.

- Nimaga hafasan? Mana, man sog'-salomat qaytdim. Bilmadim, hali boshimga yana nimalar tushadi, har vaqt dadil bo'l, Unsin!

- Hech nima,- yerga qarab dedi Unsin, B'To'zim shunday.

Chindan ham Unsin qayg'uli edi. Sababi - Gulnorning vafoti... Uning o'lism xabari, bu yerdagilarga avvalgi kun, Salimning o'ldirilishi munosabati bilan, har hil "mish-mish"lar aralash eshitilgan, Unsinning butun vujudini larzaga, solgan edi... Shokir ota temirchini chaqirib keldi.. Ikki do'st polvonlarday quchoqlashib, salmoqli ko'rishishdi. Kampir bilan qiz endi uy ichiga chekinishdi. Erkaklar choy ichib, jiddiy gaplasha boshladilar. Yo'lchi Qoratoydan zamon ahvolini so'radi. Temirchi kambag'al xalqning chuqur mashaqqat girdobiga botuvidan, ahvol shunday ketaversa, oqibatda xalqning ochlikdan qirilishidan so'zladi. Yo'lchi uni diqqat bilan tinglab, so'ng asli maqsadini ochishga, intildi. U bir oz engashib, tovushini pasaytirib dedi:

- Menimcha, Qoratoy aka, Shokir ota, butun kulfatlar turmushning yomon tuzilganidan qeladi. Nimaga? O'y lab qarang, bir tomonda bir hovuch boylar hamma narsaga ega; hisobsiz-kitobsiz fuqaro-chi? Qip-yalang'och... Axir, kambag'al xalq o'z qo'l kuchi bilan peshana teri bilan kun ko'rishga ham iloj topa olmaydi. Boylar o'z fabrikasida, zavodida, katta-katta yer-suvida kambag'alni ishlatib, mol-mulkini ottiradi, hamyonini to'ldiradi. Hammasi mehnatkashning kuchidan. Bo'llmasa, xudo osmondan tashlarmidi?! Mana hamma balo, hamma ofat shunda. Xalq borgan sari pachaqlanaveradi, boylar yashnayveradi, negaki, ildizi bizning kuchimizni so'radi-da. Xo'sh, nima qilish kerak deysizlar? Bundan qutulish uchun oh-voh, yig'i-sig'i sira foyda bermaydi. Qulchilikdan chiqmoqchi bo'lsak, kurashga bel bog'lashimiz kerak. Hamma mehnatkashlarimizga shu fikrni uqtirib, ularning ko'zlarini ochishimiz kerak. Jamiki mehnatkashlar yaktan bo'lib chiqsa, boylarni va qonxo'r Nikolayni ag'darib tashlashi aniq gap. U vaqtida mehnatkash xalq o'z ishini o'zi bilib qiladi. Men eshitdimki, o'ris xalqining ishchilari, mastiravoylari shu fikrda ekan. Ular juda ko'p zamondan buyon mana shu yo'lida ish olib borar ekan, Biz musulmon kambag'allari ham ularning izidan borishimiz lozim. Qani, sizlar nima deysizlar?..

Yo'lchi sukul qilib, dam Qoratoya, dam Shokir otaga tikildi. Ularning ikkisi ham o'ya botib, bir nafas jim qolishdi. Nihoyat, Qoratoy Yo'lchining yelkasini do'stona qoqib dedi:

- Rosa boshing bor, inim Yo'lchi, oltin boshing bor. Gaplaring - bari haq. Agar o'ris mastiravoylari shu fikrda bo'lsa, biz ham shunga qo'shilamiz. Negaki, ular juda bilgich xalq. Axir, hamma mashinani o'shalar yuritadi-da. Yo'lchi do'sti Petrov haqida so'zlab berdi. Shokir ota juda taajjublandi.

- Mastiravoylaring juda o'tkir xalq bo'lar ekan-da? B'T" dedi chol.

- Juda bahodir xalq bo'ladi,- gapga aralashdi temirchi,- yaqinda man Piyonbozorda bittasini ko'rdim. U kuppera-kunduzi, odamlar o'rtasida bir ofitsarning betiga o'xshatib tupursa bo'ladimi! Hayroi qoldim...

- Rostmi?- yoqasini ushladi chol.

- Shu narsa aniqki, ishchilar urushga ham qarshi, Nikolayga ham qarshi, burjuylarga ham qarshi ekan.

- Burjuylar dedingmi? U nima tag'in?- dedi Shokir ota.

- O'rislar boylarni burjuylar ekan,- dedi Yo'lchi.

- Iya, o'rislar boyni kupa derdi shekilli,- chol ko'zini tikdi Yo'lchiga.

- Petrov boylarni burjuylar deb gapirardi har vaqt. Jamiki burjuylarni, to'ralarni yo'qotib, hamma ishni biz o'z odamlarimizga - ishchilarga topshiramiz deydi. "Sart" ham, o'ris ham baravar, deydi. Podshohni, boylarni yo'qotsak, ana unda zamon yaxshilanadi, deydi. Gap ko'p, ota. Har bir so'zini olib, andak mulohaza qilsangiz, maza qilasiz, negaki, o'ngkay to'g'ri fikrlar ekaniga ishonasiz...

- Qoyilman, polvon inim,- yuragiga bir nima sig'maganday kukragini bosib gapirdi Qoratoy,- boy kimga kerak? Urush kimga kerak? Podshoh kimga kerak? Bulardan xalqqa hech manfaat tegmaydi-ku. Mana urushni ko'rdik. Azobi nuqul bizlarga. Boylarchi? Avvalgidan ko'ra kattaroq aysh qilib yuribdi. Mardikorlikka nuqul kambag'al bolalarini ro'kach qilishadi. Dehqonni, kosibni yana xudo urdi. Mana ukamni xatga olishibdi. Yo'lchiboy, akang aylangur, kambag'alchilikdan garang bo'lib, boshim qotgan vaktida bu tashvish chiqdi, uh!..

Yo'lchi peshanasini ushlab, yana nimalar haqida so'zlash uchun o'ylab qoldi. Shokir ota hozir Yo'lchidan eshitgan so'zlarning ta'siriga berilib, o'z-o'zicha so'zlay boshladi: "Tavba, ajoyib, ajoyib zamona. Yoshim shunchaga kelib, bundaylarni endi eshitdim. Shuning uchun aytadilar: o'tirgan bo'yra, yurgan daryo... Butun umrim kavakda o'tdi... Mayli, sizlar yashanglar, zamonni tuzatinglar..."

Qoratoy Yo'lchining yelkasiga qo'lini qo'ydi, bu mahallada turish unga xavfli ekanini, hozircha shaharning chetrog'ida yashash lozimligini aytadi. Yo'lchi dastllb ikkilandi. Lekin, chol ham bu fikrni "ayni maslahat" deb topganidan, rozi bo'ldi-da, so'radi:

- Qaerga?

- Taxtapulda bir keksa ammam bor. Befarzand, yolg'iz o'zi yashaydi. Shunikiga boramiz,- Qoratoy turdi, tor va dim hovlida bo'g'ilgan kabi, eski, yirtiq ko'ylagi bilan yelpindi. Yo'lchi Qoratoyni ko'chaga chiqarib, bir chetga singlisini chaqirdi. Maqsadi Gulnor to'g'risida u bilan so'zlashish edi. Bu xususda temirchi yoki choldan ma'lumot olishga uyalgan edi. Ammo, endi yuragini ochishga o'z singlisiga ham jasorat qilolmadi. "Balki, o'zi so'zlar" deb umid qildi. Faqat, Unsin bu haqda hech nima demadi. Yolg'iz, uning darrov ketishiga achinganini bildirdi, agar erta-indin kelmasa, temirchi bolalaridan birini olib, o'zi borishini aytadi. Yo'lchi boshqa bir gapni umid qildi-da, Shokir ota bilan xayrashib, eshikka chiqarkan, orqasidan chol so'zlab qoldi:

- Hay o't yigit, haligi so'zlaring oltinga arziydi, ammo har kimga so'zlayverma!

- Shu so'zlarni odamlarga bildirish uchun turmadan qochdim, ota!

II

Oftob Yo'lchining boshini qizitgandan so'ng, uyg'ondi Uyquli ko'zlar bilan tevarakka qaradi. Soat chamasi o'n. Qirtishlab supurilgan, top-toza, tekis kichik hovlida hech kim yo'q, hech qanday tovush ham yo'q. Bu uyning tanho bekasi bo'lgan Saodat kampir kabi qari bir tovuq jimgina yuradi. Bir chetda, devor tagida bir bo'yra, qadar joyda gultojixo'roz, sadarayhon, namozshomgul o'sib yotadi. Ayvoncha yonidagi hujraga o'xshash uychanering eshikchasi ustidan zanjirli. Yo'lchi o'rnidan turib kiyindi. Hovlidan suv o'tmas edi. Shuning uchun quyoshda isib qolgan chovgundagi, suv bilan bet-ko'lini yuvdi, hovlida tentirab, sekin-sekin yura boshladi. U kechasi kichkina chiroqning shu'lasida hech nimani payqamagan edi. Qoratoy uni o'z ammasiga xo'p maqtab, uning boshidan o'tgan ba'zi voqealarni, masalan, turmaga qamalishi, undan qochishini so'zlarkan, u boshini quiyi solib o'tirgan va Qoratoy ketmasdanoq ko'rpgaga kirgani uchun kampirni ham g'ira-shira ko'rgan edi. Ammo u bema'ni taqvodor kampirlardan bo'llmay, balki dadil, ochiq ko'ngilli bir ayol ekanini, Yo'lchi uning ovozidan, Qoratoya qilgan hazilkashligidan va o'ziga qaratib aytgan mana shu so'zlaridan anglagan edi: "Chirog'im, bu yerni o'z uyingdek bil. Qoratoyim. qanday bo'lsa, san ham manga shundaysan. Balki undan afzalsan. Bu temirchim "amma, eshigingga tamba" deydiganlardan. Shundaqami, Qoram?"

Uyalma, man mahallamda domla imomdan, so'fidan, uchta-to'rtta kazo-kazolardan, tag'in guzardagilardan qochaman. Boshqalar bilan bolam-bo'tam deb, qochmasdan so'rasha beraman..."

Har burchagidan kambag'allik va muhtojlik ko'zlari olaygan, lekin ro'zg'or qaqir-ququqi ehtiyot va diqqat bilan o'z joyida saranjomlangan, chuqur jimpitlik hukm surgan hovlida Yo'lchi tanho yurganda uning ko'ksini zirqirab og'ritgan ishqiy kechinmalar qopladi, butun borlig'ini Gulnorning yodi asir qildi: "U taqdirda tan berib, nihoyat, ko'nikdimi? Meni unutdimi? Yo'q, nega unutsin, Gulnor-a?.. Hozir bog'da nima qilayotgan ekan? Bir ko'rsam, jilla bo'lmasa, ovozini eshitsam. Kimni yuboraman? Unsin ko'rmagan, ham u yer ancha uzoq... O'zim borsam-chi? Tevarakda gir-gir aylanaman. U meni qaydan biladi? Agar qadamimni boy sezib qolsa, Gulnorning ahvoli og'irlashmaydimi? Albatta, Gulnorga kishan soladilar. Boy yomon odam..."

Yo'lchi shuning singari o'ylarga berilgan chog'da, ko'cha eshik qattiq itarildi... Boshiga bo'sh savatni qo'yib, paranjini sudrab Saodat kampir keldi.

- Qorning ochgandir, arslontoyim, - paranji va savatni ayvonga uloqtirib dedi kampir, - hozir choy qaynatamai.

Yuragi qayg'uga to'lgan Yo'lchi endi sira tortinmasdan, dardiga dardkash bir ona kabi, u bilan so'zlasha boshladi.

Saodat kampir, uzun yoshiga qaramay, hali egilmagan, oriq, lekin suyakli, qiyg'ir burunli, harakatlaridan shijoatli va chaqqon ekani bilingan erkaksimon bir xotin edi. Uning kichik, ko'kishroq ko'zlari og'ir mehnat, jafokashlik, sabr va qanoat bilan to'lgan hayotining, baxtsizlikka, qiyinchiliklarga qaramay, o'z g'ururini yo'qotmagan uzun umrning tarixini jonli ifoda qilar edi.

- Qaerdan keldingiz, ona? B'T"dedi Yo'lchi.

Kampir kichkina samovarga olov solib, yigit yoniga qaytdi-da, erkakcha ovoz bilan shoshmasdan gapirdi:

- Tirikchilik, bolam. Man nonvoymen. Ana, oshxonada kattakon tandirim bor, ko'rmadingmi?.. Kun chiqmasdan un eladim, xamir qordim. Xamir achiguncha, o'tin yorib, tadirga o't qo'ydim. Non yasab bo'lguncha tadir qizidi. Keyin bir chekadan yopdim. Bir savatini guzarga olib chiqib sotdim. Yana bir savat non bor. Choyni ichib yana olib chiqaman...

- Qancha yildan buyon yolg'iz yashaysiz? B'T"dedi Yo'lchi qiziqib.

- Rahmatli erim mardikor edi, - dedi kampir, B'T"yo'zda topgani qishga yetmasdi. Buning ustiga u, kasalga chalinib, ertaroq ishdan chiqib qoldi. Uni boqdim. Ha, necha yil deysan, o'lganiga rosa yigirma yil bo'ldi. Farzand yuzini ko'rgan emasman, bolam. Hech kimga xor-zor bo'lmay deb, tirishib-tirmashib yotibman. Bir vaqtlar do'ppi tikdim, ko'rpa qavidim, ishtonbog' to'qidim. Endi unday ishlarga ko'zim o'tmaydi.

- Qalay, novvoylikdan bir nima ortadimi?

- Goh undoq, goh bundoq....- dedi-da, samovarga qarab ketdi.- Ba'zi vaqt nuqlu zarar: nonki sotamak, bozorga borsam, un bahosi oshib ketibdi... Dastmoyam bir pud un edi, tunov kun birdan yigirma besh qadoqqa tushib qoldi. Yana shu kunda bir oz epaqaga keltirdim. Foydasi shuki bolam, bozordan non sotib olmayman. Kunda ikkita non o'zimga qolsa, shu katta davlat...

Choydan so'ng Yo'lchi savatga non solib berishini so'radi. Kampir e'tiroz qilsa ham, u o'z so'zida turgani uchun, nihoyat savatga non taxlab berishga majbur bo'ldi. Yulchi savatni kaftida tutib, Kalkovuz suvini bo'yab, Taxtapul guzariga chiqdi. Bu yerda uch soat qadar aylandi. Ko'rinishda xamma yoq tinch. Choyxonalarda bedanalar sayraydi. Baqqollar, qassoblar xaridorlar bilan g'ijillaytadi. Bo'yinlariga osilgan qo'ng'iroqlarni og'ir jaranglatib tuyalar o'tadi. Kun issiq. Bir bola qichqirib ayron shopiradi. Lekin odamlariiing ko'zlarida, harakatlarida, qandaydir notinchlik sezdi Yo'lchi. Ayiniqsa, dexqon ahlida olovlanishga boshlagan bir g'azab tuydi. Podshohning mardikor olish to'g'risidagi farmoni ustida so'z qo'zg'alarkan, xalq har xil jabr, zulm, haqsizliklardan achchiq shikoyat qilar edi. Payti kelganda Yo'lchi boylarga, urushga, amaldorlarga qarshi so'zlab, mardikor bermaslikka undab, ehtiyyotdan yana qichqirib qo'yardi: "Sara non!", "Sara non!"

U choyxonada uyi shu tomonda bo'lgan va ilgari tanish bir odam bilan uchrashib, unga o'n ming xom g'isht quyib berishni baholab oldi. Non bitgach, savatni anhor bo'yida supurgi bog'lab o'tirgan bir kishiga omonat tashlab, bozorga g'izilladi. Bir qop nosvoy talqonni o'rdaga eltish uchun ko'tardi. "Qatorterak"da, tramvay to'xtaydigan joyda, yukni yo'lkaza qo'yib, terlarini artdi. Naq shu paytda odamlar alanglanib, bir-birlarini sekin turtishib bir tomonga tiqilishdi. Yo'lchi ko'zini qisib u tomonga qaradi. Bir necha qadam narida, ko'chaning o'tasida bir o'ris mirshab, ikki "sart" mirshab, qilichlarini yalang'ochlab, sekin va mudhish tantana bilan Yormatni olib kelishar edilar. Yormatning bo'yini buzik, ko'zi yerda edi, uning butun siyosida dahshatli falokatga yuliqqan odamning ifodasi barq urar edi. Yo'lchining rangi o'chdi, ko'zlari olayib, titroq ovoz bilan qichqirishdan o'zini tiyolmadi.

- Yormat aka!

Yormat tevarakka sekin qaradi. Yo'lchini ko'rib, chuqur, tamli va nochor, lekin qandaydir mehrli nazar bilan, kechir meni! B'T" deganday boqdi va qo'lini allaqanday chuqur ingichka ma'no bilan bo'shang silkdi. Go'yo "hamma narsa bitdi!" deganday...

Mirshablar Yo'lchiga zug'um bilan o'qrayib o'tishdi. Yo'lchi bir minut anqayib qoldi-da, yukni nari-beri orqalab, ularning iziga tushdi.

U ilgari Yormatni har qancha sevmasa ham, hozir uni shu vaziyatda ko'rib achindi. Biri oldinda, ikkisi orqada qilich yalang'ochlagan mirshablar o'tasida boruvchi Yormatning buzik bo'ynidan ko'z uzmadi. Lekin unga yaqinlashib, bir og'iz so'z so'rashga imkon topolmadi. Ulardan keyinroqda o'ylab keta berdi: "Bu sodiq qul, balki undan battar odam edi. Nima jinoyat qilishi mumkin? Ishi og'ir ko'rindi. Qani, xo'jayinlari qutqarib olarmikan! Uni qamasalar, surgun qilsalar, Gulnor xafa bo'ladi, albatta. Har nima bo'lmasin, Yormat uning otasi..."

O'rdaga kelib, yukni tashladi, mehnati uchun haq olishni ham unutib, Yormat orqasidan ketdi. Ancha yergacha kuzatib, uni turmaga olib borishlarini anglagach, noiloj orqaga qaytdi; bu hodisaning sababini kimdan surishrishni o'yladi.

Kechqurun Saodat kampir, do'ppiday o'choq oldida cho'qqayib, moshxo'rda qaynatarkan, Yo'lchi kirib keldi. Unga boshdan-yooq razm solib, kampirning rangi o'chdi, titrab o'rnidan turib dedi:

- Nima bo'ldi sanga, arslontoyim? Uying kuygur tasqara mirshablar izingga tushib quvladimi?

Yo'lchi javob qaytarmadi. Ayvon labiga o'tirib, boshni q'llari orasiga oldi. Kampir uning qarshisiga kelib, yana so'zladi:

- Nimaga titraysai, bolam? Ayta qolsang-chi. Ketibsanki, ikki ko'zim eshikda, ana kelar, deyman B'T"yo'q, mana kelar deyman B'T"yo'q. Necha marta guzarga chiqib keldim. Shunday yigitni ko'rdinglarmi, deb odamlardan so'radim.

Nima siring bor, qaerda eding, gapir, bolam, ko'nglim tinchisin...

Yo'lchi ko'chada boyning eski prikashiklaridan birini ko'rib, undan hamma voqeani, ya'ni Gulnorning vafoti, Yormat uni Salimboyvachcha zaharlagan, deb qizining o'chini olib, bundan uch-to'rt kun burun boyvachchani o'ldirib, o'zi g'oyib bo'lganini, bu kun qaerdadir ushlanganini eshitgan edi.

- Ona,- boshini ko'tarmay dedi Yo'lchi,- man qamalishdan qo'rqlayman, dordan ham, o'qdan ham qo'rqlayman. Turma! Bu dunyo turmadan yaxshimi? Olam zindondan qorong'iroq, iflosroq, emasmi? Hamma yoq qorong'i, hamma yoqdan zahar yog'iladi.

Qachongacha zahar ichaman??

- Voy, nima deb aljiraysan? Avji o'ynab-kuladigan chog'ing-ku. Rost, ba'zi vaqtida dunyodan chiqib ketging keladi. Dunyo qursin, g'am ko'p, g'uissa ko'p, beva-bechora ko'p. Ayniqsa shu zamonda hammaning hasratidan chang chiqadi. Birov yegali non topa olmaydi, birovnikida qozon-qozon moy qaynaydi. Birov chaqaga zor. Birov pulning hidiga yota olmaydi. Dunyo shunday yasolgan ekan, bolam. Birovg'a yorug', birovg'a qorong'i. Ammo har narsani o'ylab dilga tugma, xafaqon bo'lib qolasan... Yoshisan, sog'san, ishla, ulfat qur, har bir sho'xlik yigitlikda yarashadi, bolam.

- Durust, ona,- G'amgin tovush bilan dedi Yo'lchi, - yoshman, sog'man, lekin yuragim eng katta quvonchini mangulikka yo'qotgan. Yolg'iz hasrat bilan, yashayman. Yuragimga o'zin-kulgi ortiq sig'maydi.

Kampir sukut qildi. Yo'lchi bir necha so'z bilan o'zining baxtsiz sevgisini kampirga aytishga ehtiyoj sezdi. So'zlarkan, ko'zlaridan yirik, qaynoq tomchilar yumalandi... Kampir tishsiz og'zini ohib, qayg'uli ko'zlar bilan yigitga qarab qoldi. Bir-ikki minut sukutdan so'ng og'ir yuk ostida ezilgan kabi, uzun bir "uh" tortib, ojizona, shikoyat ohangi bilan o'z-o'zicha dedi:

- Ey dunyoyi bevafo!.. Qahringdan hammaning bag'ri qon, ko'ngli parishon. Shu yigitdan bir qatra baxtni ayadingmi!

U Yo'lchiga yaqin kelib, ona kabi boshini siladi va yupata boshladi.

Yo'lchi katta tovoqdagi go'shtsiz, qatiqsiz, leqin rayhon mo'lligidan, ko'kargan moshxo'rdadan ishtahasi yo'qligidan, kampirning ko'ngli uchun, ikki qoshiqqina ichdi-da, singlisi Unsin to'g'risida so'z ochdi. Nomusli, mehnatkash yigit topilsa, qizni tezroq uzatishga qaror qilganini, bu xususda kampirning fikrini bilmoqchi ekanini aytdi ham erta-indin Unsin bu yerga kelsa, bu gapni unga ohista, yotig'i bilan bildirishni so'radi. Kampir bu masalada shoshish yaramasligini, kuyovni xo'p tanlab, ota-onasini surishtirib, kasb-korini bilib, undan keyin to'yga javob berish kerakligini ta'kid qildi.

- Yigit nomusli, g'ayratli bo'lsab B" bas. Man uy-joyini surishtirmayman, rna,- dedi Yo'lchi xo'rsinib,- toping, balki tanishlaringiz bordir...

- Oldin ayt-chi, - tovoq-qoshig'ini bir chetga surib dedi kampir, - nimaga shoshasan? Bu ishga, bilishimcha, hozir jazm qilding, uzoq-yaqinda yaxshi yigitlar bor. Shunday bo'lsa ham tanlash, sinash kerak, bolam!

- Xo'p, tanlang, sinang, ona. Man anov Shokir otaga, Qoratoq akaga ham aytaman. Ona, hali boshimga qanday ishlar tushadi? Bu ko'zlarim nimalarni ko'radi? Qachongacha ovozimni bo'g'adilar? Tirikman, tinchimayman. Ko'rsataman ularga! B"Yo'lchi qizg'in g'azabdan sachrab hovliga tushdi, nimalarnidir so'zlab, u yoq-bu yoqqa yura boshladi. Kampir sinovchi ko'zlar bilan yigitga uzoq tikildi, boshini ohista chayqab, so'ng yengil bir xo'rsinib dedi:

- Xato qilibman, san olov ekansan, bo'lakcha yigit ekansan. O't kech, suv kech. Sanday yigitga hamma narsa yarashadi... Hay, bu shovqin nima? B"kampir ko'cha tomonga qulqoq soldi. Yo'lchi hovli o'rtasida bir zum qotib, tingladi-da, ko'chaga yugura ketdi. Erkak, ayol, jami o'ttizga yaqin odam tor ko'chaga g'uj bo'lgan. Erkaklarning ko'zlar i g'azabdan chaqchaygan, bo'yin tomirlarini qavartirib, bo'g'ilib baqirishadi! Paranji-chachvon ichidagi ayollar esa erkaklar o'rtasida o'zlarini juda dadil tutib, erlari savalagandan battar chinqirishadi, kimmadir qarg'ashadi. Yo'lchi chetroqdan bir oz qarab, so'ng olomon ichiga kirdi. Odamlarning ikki guruhi ekanini anglati: o'rtal yoshli, qisiq ko'zlarida g'irromlik barq urgan, jikkak ellik boshi ham uning atrofida uch yigit va bir keksa odam; bularning kiyimlaridan, harakatlaridan, so'zlaridan bu mahallaning boylari, qolganlarining bari mahalla kambag'allari ekanini Yo'lchi darrov payqab oldi. U o'zini sovuqqonlikka solib, shovqin-suron ichida ikki tomonning so'zlarini, maqsadlarini diqqat bilan tinglashga kirishdi. Boy va boyvachchalarning yuzlari jahldan burishsa ham, ular janjalni ulg'aytirmaslik uchun ustalik bilan muomala qilishita intiladilar, ellik boshiga har xil imo va ishora qiladilar. Lekin urushga mardikor olish munosabati bilan o'z mansabini, mavqeini baland darajaga ko'targan va yuqori hokimlar oldida tilining uzun bo'lganiga to'la ishongan ellik boshi fuqaroni sira mensimaydi, yoshlarni "it" deydi, keksalarni "ablah", "bema'ni chol!" deydi. U olomonning shovqiniga chidolmagan kabi, ikki qulog'ini ikki qo'li bilan berkitib qichqiradi:

- Achavat ko'chib keldimi? Nega shallaqilik qilasanlar? O'n marta, yuz marta gapirdim sanlarga, yana aytaman: mahallamizdan taxminan o'n besh kishi mardikorlikka ketadi. Biz yigirma chog'li yigitni o'zimizcha mo'ljallab qo'yidik. Hali xatga olganimiz yo'q, yuqoriga bildirganimiz yo'q. To'polon nimaga, xo'sh? Lekin man etlaringni o'ldirib qo'yay, ming dod denglar, ming faryod denglar - behuda! Oq podshoh hazratlarining fuqarosimisanlar, albatta. Bolalaringni berasanlar, vassalom!

- Bermaymiz, - deb qichqirdi olomon.

- Zolim podshohdan bezdir, o'la qolsin u! B"deb kichqirishdi xotinlar.

- Man endi ayamayman, - deb baqirdi ellik boshi, - kimning og'zidan shunday so'z eshitsam, darrov mahkamaga xabar qilaman.

- Qo'lingdan kelsa, osdir, Sibirga yubor, - dedi o'dag'aylab bir yigit.

- Shoshma! - olomonning ichidan kir qalpoqli yalang oyoq baquvvat chol chiqdi, ko'zlarining oqini o'ynatib, qo'lini havoga ko'tarib xirilladi: - Shoshma, yigirma yigit kimning o'g'illari? Mahamadjon bazzozda besh o'g'il bor. Shoyunus karvonda yetti o'g'il bor, Azim choyfurushda uch o'g'il bor, ulardan bittasi kirdimi xatga? Yo'q! U boyvachchalar osmondan tushganmi? Podshoh, gubernatorlar bari ularniki edi-ku; urushdan ham ular foydalanadi, nimcha boylar lo'mboz bo'lib qoldi. Sizlar nuqul manga o'xshash dehqonning bolasini, podachi, kosib bolalarini jo'natmoqchisizlar. Kambag'al har yerda musht yerdi, chetga qoqilardi, arzi dodini hech kim tinglamasdi. Endi hukumatga bolalarimiz kerak bo'lib qolibdi, o'ho! Nayrangbozlixni qara, evi bilan bo'ladi!

Oriq kosib yigitcha, jo'ja xo'rozday, bo'ynini cho'zib qichqirdi:

- Nimaga o'z ukalaringiz chetda qoldi, ellik boshi, shu ham insofmi?

Bu so'zlar Yo'lchining yuragida bo'ron yasadi, u totli, zavqli hayajon bilan qaltiradi. Chunki u xalqqa aytmoqchi bo'lgan eng qimmatli fikrlarni, yuragining yagona haqiqat, yagona imon deb bildigi narsalarni xalq o'z og'zi bilan aytga boshladi. Uning boshini, ko'nglini o'ragan umidsizlik tumani bir lahzada ko'tarildi. U endi tanho emas, u o'zini do'stlar ichida, o'zi kabi ezilgan, jabr-zulmga qarshi kurash uchun shaylana boshlagan odamlar orasida sezdi. U go'yo qorong'i, sassiq zindondan yorqin, toza ko'klam havosiga chiqqanday bo'ldi...

- Jamoat, - keksa boy o'siq qoshlarini chimirib, salmoqli ravishda gapira boshladi, - alhamdullilo, hammamiz musulmonmiz, bir otaning bolalarimiz, bir mahalladamiz, tobutkashmiz, har kun bir-birimizga salom-alik qilishamiz. Shuning uchun nechog'lik ahilinoq bo'lismiz kerak. Qo'limizni bigiz qilib, nega falonchi o'g'lini bermadi, nega pistonchi chetda qoldirildi, bu Eshmat, bu Toshmat, deb ko'rsata bersak, oramizda fitna paydo bo'ladi. Boy, kambag'al deb ayirmachilik qilish zo'r gunohdir. Ikkisi ham Olloning quli. Biriga bu dunyo berilgan, ikkinchisiga u dunyo, har bir aqli salim sohibi banda kambag'allikning darajasi naqadar ulug'ligini fahmlasa kerak. So'ngra, mahallamizda ovozali boyonlar ham yo'q. Bittasi manmi? Bittasi Shoyunus karvonmi? Har kimning karmoni o'ziga ma'lum. Ammo bizlar qarab turmaymiz, qo'ldan kelgancha, hukumatga yordam beramiz.. Shayton

alayhillanening yo'lidan chiqish kerak, muslimmonlar!

- O'zingizni kamsitmang, Toshkentning o'n ikki qopqasiga borilsa, kimning yeri - Qurbanhojining yeri-ku!- dedi qichqirib haligi chol dehqon.

- Biz yordam bera olmaymiz!

- O'zimiz yordamga muhtojmiz.

Har yoqdan erkaklar baqirishdi, xotinlar qarg'ashdi. Ellik boshining lablari allaqanday yomon qiyshaydi.

- Tarqalinglar! B'T"deb bo'g'ilib baqirdi-da, hammani so'ka boshladi.

Bir xotin uning tumshug'iga borib, do'q qildi: "Xatdan o'chir o'g'limni hozir!"

Ellik boshi g'azablanib, xotinning boshiga qo'l ko'tardi, lekin urmadidi: "Yo'qol, jalab!" deb keskin qichqirdi u. Odamlar bir lahzada seskanib, bir-birlariga qarashdi. Birdan o'nlaracha musht havoga ko'tarildi. Ellik boshi va uning sheriklari kaltak ostida qoldi.

Yo'lchining qo'l qichisa ham, aralashmay, hayajon bilan tomosha qildi. Olomon zo'r. Usiz ham ishni bajardilar! Hali so'zlagan keksa boy, o'zini bazo'r chetga ola bildi. Qolganlari olomonning oyoqlari ostida yumalanib, "safar qochdi" qilingan itday savalandi. Faqt shu vaqtda, uzun, keng choponini sudrab, uzoqdan lapanglab yugurgan domla imom chiyildoq ovoz bilan qichqirdi:

- Hoy, muslimmonlar! Hoy, ahli mahalla!

So'z ta'sir qilmagach, o'zi olomon orasiga kirib odamlarni ayira boshladi. Dastlab, yoshi o'zganlar, so'ngra yosh-yalanglar chetlanishdi. Ellik boshi va uning sheriklari qon tupurib, og'ir ingrab imomning yordami bilan o'rinalidan bazo'r turishdi. Ular butun gavdasi bilan tuproqqa ko'milgan edi. Ularning bari jarohatlangan. Kimi boshini ushlaydi, kimi belini ko'tara olmaydi. Ellik boshining peshanasi g'urra, burnidan qon oqadi, shishgan qovoqlari ko'zlarini qoplagan; loy va qon aralash tuplaydi. Imom to'polonda boshidan tushib, tuproqqa qorishgan sallasini qoqib-qoqib qaytadan o'rarkan, o'z qavmiga va 'z-nasihat qildi. Yurt boshiga kelgan har nav hodisaga qarshi kecha-kunduz toat-ibodat qilish kerakligini, takbir tushirish bilan mushkullarning oson bo'lishini so'zladı. Podshoh, garchi kofir bo'lsa ham, "amrini ijro qilish har bir muslim fuqaroga farz" ekanini uqtirishga tirishdi. Lekin odamlar uning so'zini avvalgiday ta'zim, hurmat bilan tinglamaganlari, hatto, ba'zilari uni hamadolatsizlikda ayblab, piching qilganlari uchun obro'yni battarroq tushirmslikni mo'ljalladi-da, o'z majruhlarini oldiga solib, machit tomonga jo'nadi. Ellik boshi olomonga qayrilib, bir qo'l bilan shish ko'zlarini yashirgan holda, ikkinchi qo'lini musht qilib, do'q urdi. Olomon ichidan bir kosib yigitcha, bo'ynini xo'rozday cho'zib, barala qichqirdi:

- Bundan beshbattar qilamiz!

So'fi minoradan namozasrga chaqirdi. Odamlar birin-sirin tarqala boshlarkan, Yo'lchi baland tovush bilan ularga murojaat qilib, to'xtatdi, hammasi begona yigitga tikildi.

- Xaloyiq! B'T"dedi Yo'lchi hayajonlanib.- Bo'sh kelmanglar, oyoqni tirash kerak, mushtni ko'rsatish kerak. Jamiki kambag'al xalq qo'lmi qo'lga berib, yaktan bo'lib tursa, kimning haddi bor mardikor olishga!? Boylar, amaldorlar o'z podshohiga yon bosadi, podshoh ularga yon bosadi. Boylarning podshohparast bo'lishi bekorga emas. Yer ularniki, suv ularniki, qozixona, dumaxona, jamiki mahkamalar ularniki. Qaerga borsalar, ularning so'zi ma'qul, kambag'alning arzi dodi uch pul! B'T" Yo'lchi bir nafas to'xtab, uning so'zini diqqat bilan tinglashgan odamlarga qaradi, yana kuchli hayajonlanib davom etdi:- Urush boylarning hamyonini to'ldirdimi?, Bas, ular borsin! Birodarlar, o'ylab qaranglar, shu ham tirikchilikmi? Axir, bu bir zindon emasmi? Tokaygacha qon yutamiz, tokaygacha yerga cho'kkalaymiz? Ovozimizni baland qo'yaylik, yo haq, yo o'lim!.. Bunday to'polonlar yolg'iz bu mahallada emas, ko'p mahallalarda bo'lib turibdi. Eshitgan bo'lsangiz kerak, hozir ko'p shaharlarda, kent, qishloqlarda kambag'al xalq o'z haqini da'vo qilish uchun shaylanmoqda. Man bu kun juda qiziq xabarlar eshitdim. Gap shu, birodarlar, zulm-jabrga qarshi jang qilish uchun tayyorlanish kerak. Boylarning so'ziga sira uchish kerak emas. Ularning bari aldoqchi, bari yurtimizni zaharlaydi, bari iflos! Man ularni juda yaxshi bilib olganman...

Yo'lchi so'zini bitirib, hansirab, devorga suyaldi. Gapim ma'qulmi, deganday odamlarga bir-bir qarab qo'ydi. Uch-to'rt kishining ko'zi yerga qadalgan. Bir necha yigitlar uning yoniga kelib, ham maroqlanib, ham tortinib u bilan so'zlasha boshladi. Xotinlarning ba'zilari qiziqqanlaridan chachvonlarini qiya olib, Yo'lchiga yashirinchay mo'ralashdi. Kimdir birov, "otash zabon yigit ekan" deb qo'ydi. Bir necha yigitlar Yo'lchining atrofini qurshadi. Yo'lchi ular bilan sodda va ochiq ko'ngil bilan so'zlashib, birpasda apoq-chapoq o'rtoqlashib qoldi...

III

Oddiy yoz tongi... Quyosh Kalkovuz suvi bo'ylab o'sgan qalin tollarning uchida o'ynaydi.

Yo'lchi kun qizimasdan bir necha yuz xom g'isht quyib olish uchun oshiqardi, yuqori mahalla tomonidan kelayotgan eski-tuski paranjili besh-oltita ayolini, hayajonli ravishda tevarakka alanglab, ildam yugurgan bir necha yngitni ko'rni, yuragi birdan allanechuk to'lqinlanib, keluvchilarga termilgan holda, to'xtab qoldi.

Ayollar ko'rik boshida chapak chalib, tizzalarini urib chinqirishdi: "Dod zolimlarning dastidan! Oq podshohning taxi kuysin! Qoras o'chsins!" Yigitlardan biri - uvada kiyimli, chorpxaxil va yuzi oftobda kuygan korandami, chorakormi, ko'zlarini chaqchaytirib, og'zini katta olib, yo'g'on tovush bilan atrofga bong urdi: "Yuraver, yigitlar, yuraver! Maydonga ro'yirost chiqib, haqimizni dov qilamiz!"

Guzarda odam uncha qalin emasdi. Ayollarning yig'i va xitoblari, zolimlarni qarg'ashlari, yigitlarning mardona ovozlari ba'zi kishilarni cho'chitib, olazarak qildi. Ba'zilar esa ikkilanib, bir-birlariga imo qilib, sekin-sekin ularga yondasha boshladilar... Do'konini endigina olib, yo'lkaga suv sepib, supurib turgan baqqol, bir minut lang bo'lib qoldi. So'ng, yigitlarga, ayollarga shubha va nafrat bilan tikilib, yelkasini qisdi-da, darrov do'konning ichiga qamaldi... Hayajondan Yo'lchining yuragi, sandonga tushgan og'ir bolg'aday, ko'krakni "gars-gars" urmoqda edi. U bir nafas o'yлади. Kunning azamat ma'nosi una quyosday yorqinlashdi... Alamli va yarali ko'ngillardan ro'yirost otilib, havoni yangratgan haqiqat ovozi uning butun vujudini titratdi, mazlumlarning, haqoratlanganlarning, tepkilanganlarning ulug' azamat kuni tug'ilganiga shubha qolmadi. Qanday kun?

Zolimlarning, zamon zo'ravonlarining yoqalarini tutib, toptalgan huquqlarini dovlash, qonxo'r oq podshohning qora dovrug'ini, uning mazlum xalqlar boshida jil panglagan ilon qamchinini sindirish kuni! Yo'lchi ko'pdan kutgan va sevgisi qadar chuqr, ma'noli bir kun! U ko'p yillardan buyon bu kunga intizor emasidi? Ko'p yillardan buyon bu kunning dardi va sevgisi bilan yashamasidi? Ayniqsa, keyingi vaqtarda bu ulug' kunning ruhini o'z yuragi bilan chuqr sezib, har yerdab B'T" mahallada, choyxonada, bozordab B'T" o'zi kabi ezilganlar, alamdiydalarning ko'kragini bu ruhning otashi bilan yondirishga intilmaganmidi? Yo'lchining butun borlig'ida siqilib yotgan kuch olov kabi bir onda lov yonib ketdi...

Odam ancha qalinalashdi, xitoblar, qarg'ishlar, ayol yig'ilari kuchaydi.

Shu chog'da, qaerdandir kelib qolgan oppoq, ko'rkam soqolli bir keksa, odamlarga qarab, duo qilgan kabi, qo'l yozib, baland qichqirdi:

- Azamatlar, shaylaninglar, g'azot, g'azot? Choyxonadan ikki chapan yigit yugurib chiqib, qo'l qovushtirib, cholga ta'zim qildi.

Chol fotiha bergach, ular belbog'lariqa osilgan qinlarni salmoqlab ko'rib, odamlarga g'urur bilan tikilishdi. Yo'lchi qo'lini ko'ksiga

qo'yib, mo'ysafiddan so'radi:

- Ota, g'azotning chin ma'nosi nima?

- Tushunmaysanmi? Musulmon farzandi-ya! "salmoqlanib so'radi chol.

- Jilla aniq emas.

- Bo'tam, din islomda g'azot - musulmonlarning kofirlarga qarshi jang qilishidir. O'lsang shahid, o'ldirsang g'oziy! Kitoblardagi asli urush mana shu bo'ladi! - deb tushuntirdi chol.

- Yo'q, ota, to'g'ri emas! - sabrsizlanib dedi Yo'lchi.- Bizniki boshqacha jang bo'ladi. Hamma musulmonlar bab-baravar deb o'ylaysizmi? Musulmonlar o'rtasida bo'rilar yo'qmi? Mayli, kofirmi, musulmonmi, biz bo'rilarining jazosini beramiz. Ular kofirda ham bor, musulmonda ham bor... Biznikilarning tishlari boshqalarnikidan qolishmaydi. To'g'rimi, xaloyiq? Bizning urushimiz ozodlik urushi bo'ladi, ota. Biz hamma bo'rilarni, hamma qonxo'rлarni, zolimlarni yanchib tashlaymiz!

- Nafsilamrda, haqiqat gap shu! - dedi birov odamlar orasidan qichqirib.

Yo'lchining so'zlariga hayratlanib, chol yoqasini ushladi:

- Astag'firullo!

Yo'lchi Xadra tomonga oqayotgan qo'zg'onlonchilar oldiga tushib, hayqirib jo'nashga oshiqsa ham, lekin o'zi yashab turgan mahallaning odamlarini, kechagina o'zi nutq so'zlab kurashga chaqirgan kambag'allarni jalb etish uchun chopa ketdi.

Erkak, ayol, hammasi o'n chog'li odamni boshlab, Yo'lchi mahalladan guzarga chiqdi. Ularning orasida Saodat kampir ham bor edi. Daladan changga botib kelayotgan bir necha xotinlarga qo'shilishib, Xadra tarafga jo'nadi. Oyoqlar ildam, ko'kraklar baland, boshlar mag'rur... Faqtot xotinlargina zolim podshohni qarg'ab chinqirishar, yig'lashar edi.

Olomon borgan sari qalinalashib ketdi. Turli mahallalar, guzarlar, tor ko'chalarda yigitlar, keksalar, yosh va qari xotinlar chiqib, birin-sirin qo'shila bordi.

Xalq dadil boradi. Ayniqsa, xotinlar-onalar jasur. Ular Nikolaydan tortib ellik boshilarga qadar hammani qarg'ashadi. Unda-bunda mirshablar uchraydi. Xalq endi ularni nazar-pisand qilmaydi. Go'dakka ham, keksaga ham zulm qiluvchi, qamchi o'ynatishga, shapaloqqa mohir mal'unlarning nafasi ichiga tushgan, yolg'iz ko'zlaridagina zahar yonadi...

Yo'lchi hech kimdan, hech nimadan tap tortmasdan, har qadamda odamlarni jalb etib, "Balandmachit"ga yetganda, har tomonдан - Shayhantohur va boshqa mahallalardan keluvchi xalqning "Olmazor"ga, politsiya mahkamasiga burilishini ko'rib, muyulishda to'xtadi. U olomon bilan yangi shaharga chiqib, bosh hokim mahkamasini oldida qo'zg'onlonni avjantirishni o'ylagan edi. Lekin qo'zg'onlonchi xalq politsiya mahkamasini tomon yuguraverdi. Xalq ko'zida bu - eng qora, eng mudhish, eng zolim mahkama edi, bu - uning bag'riga sanchilgan zaharli xanjar edi. Turkistonning har go'shasida podshoh hokimiyyati bunday mahkamalarga suyalar edi. Politsiya mahkamasini oldidan o'tarkan, har kimni titroq bosar, uning jabrini, dahshatini xalq har kun, har soat, har minut totib turar edi.

Yo'lchi o'z ichida: "Yaxshi, o'tni shu yerdan qo'yamiz, zulm qaerda uchrasha, shu yerda yondirish kerak", deb o'yladi-da, so'zi, harakati bilan odamlarni ruhlantirib, "Olmazor"ga yugurarkan, orqadan kimdir "Yo'lchiboy!" deb chaqirdi. Yo'lchi qayrilib, qo'lting'iga gazet qistirgan Abdishukurni ko'rди. Uning yonida ovrupochaga yaqin - "fason" kiyungan, chakka sochi qirqi, o'spirin bir boyvachcha. Yo'lchi ijirg'anib, ularga yaqinlasharkan, boyvachcha ingichka, silliq hassachasini qo'lida o'ynab, istehzo bilan kuldil. Abdishukur asa xo'mraydi.

- Qaerga borasizlar? Odamlarni qaerga boshlayapsan? "tupugini sachratib, gapira ketdi Abdishukur.- Bu narsa ayni nodonlik, ahmoqlik! San nimani tushunasan, boruvchilar nimani tushunadi? Yurt ishiga g'amxo'rlik qiladigan odamlar bor... Sanlarga nima?

- Xo'sh, sizcha nima qilish kerak, o'qimishli akam! - dedi kinoya bilan Yo'lchi.

- Xalqni qaytarish kerak,- qaltirab gapirdi Abdishukur.- Man qaytaraman, sanga o'xhash bir qancha johil sudraydi. O'ylab qara, podshoh a'zam hazratlari bu muhorabada mushkulot ichida qolgan fursatlarda biz turkistonliklar xiyonat qilamizmi? Urush degan so'zni eshitish bilan kapalaklaring uchib ketdi-da! Uyat bunda, yigitlarga! Uyat, qo'rqoqlar!

- Bo'ldimi? Siz bilan so'zbozlikka vaqtim yo'q,- deb gazablanib qichqirdi Yo'lchi,- shuni bilingki, xalq o'z ishini bilib qiladi. Sizga o'xhash dallollarga hojat yo'q. Men sizni xo'p sinaganman. Siz xalq bo'ronini to'smoqchimisiz? Ovozini bo'g'moqchimisiz? Qani, umnab ko'ring, bu bo'ron sizni shunday pirparak qilib uchiradiki, qo'ngani joy topa olmay qolasiz. Urushga orzumandamisiz, mana bu boyvachcha ukangizni olib jo'nayvering, yo'l ochiq. Bizniki boshqacha urush bo'ladi! Biz sizlar bilan urushamiz!

Abdishukur jahldan shaq-shaq titradi. Yo'lchi esa tishlarini g'ijirlatib, keskin ravishda burildi. U bir oz yurgach Abdishukur nusxasidagi yana bir odamga yo'liqdi. U ham bir nechalarni avrab, orqaga qaytishga urinmoqda edi. Paranjisini beliga qadar ko'tarib olgan kavushsiz, eska mahsi ichidan barmoqlari turtib chiqqan bir keksaroq xotin harsillab shunday dedi unga:

"Yunusobod degan joydan kelyapman, nega qaytaman! Zulmdan to'ydym, zambarakka solib otib yuborsinlar mani, xudo o'lim bersin oq podshoying Mekalayga! Qayt emish-a, erkak bo'lsang, yo'l boshla!"

Yo'lchi qaytaruvchi kishiga ko'zini yomon olaytirdi, xotinga dalda berdi:

- Barakalla, ona, yuring tezroq, sira tap tortmang!

"Olmazor"da, politsiya mahkamasining hovlisi oldida, xalq qalin to'plangan edi. Yana tevarakdan odamlar to'xtovsiz ravishda bu yerga oqmoqda edi. Aksari eski-tuski paranji-chachvonga o'ralgan ayollar... Havoda asabiy, kuchli bir g'ulg'ula yangraydi.

Hajajondan ba'zilarning ko'zlarini yoshlanadi. Hamma o'z bilganicha qichqiradi, zulmdan, jabrdan shikoyat qiladi, zorlanadi. Ko'p xotinlar, azada aytib yig'lagan kabi, yoniq faryod ko'taradi.

Yo'lchi yakka kift bo'lib, xalq orasini yorib, oldinga o'tdi. U bo'ynini cho'zib, qaynoq, asabiy, g'azabli ommani - zulm o'chog'ini portlatishga tayyor botir xalqni ko'zdan kechiradi Mana ular: dehqonlar, koranda-chorakorlar, qarollar, shahar kosiblari, ishchilar, zulm olovida suyaklariga qadar yongan bechoralar va ularning onalari, otalari! Yo'lchining qulolqolarida tovushlar g'uvillaydi:

"Urush qursin, qashinishga tirnog'im ham qolmadi, hammasini Mekalay yedi!", "Jabrnning to'qmog'iga toqat yo'q!",

"Boyvachchalar jo'nasin mardikorlikka, bizga tinchlik kerak!", "Yotib qolguncha otib qol, degan gap bor-ku. Nimaga xaloyiq qarab turibdi, axir!"

Yo'lchi o'zidan nariroqda, odamlar orasida, temirchi Quratoyni, eski do'sti qirg'iz O'rozni ko'rib qoldi. Qay tomonga qarasa yangi-

yangi tanishlar uchraydi. U urinib, siqilib temirchi va O'rozga o'zini yetkizdi. Ko'pdan ko'rmanagan O'rozning yelkasiga qo'lini tashlab, quchoqladi, ikkisining ko'zlari chuqr mehr va do'stilk shu'lesi bilan bir zum yonib ketdi. Qoratoy Yo'lchini turtib, qo'li bilan uzoqqa ishora qildi: "Ana Hakimboyvachcha! Joni hiqildog'iga kelganga o'xshaydi, ko'rdingmi?" Yo'lchi labini mahkam tishlab, kinli ko'zlarini bir nuqtaga tikdi. Hakimboyvachcha ko'zoynak taqqan, semiz bir rus amaldori bilan xalqdan chetroqda turardi. Uning rangi o'chgan, ko'zlari allaqanday notinch; harakatlarida qo'rquv va asabiyat, g'azab seziladi. U goh jirkangan nazar bilan xalqqa boqadi, goh rus amaldorlariga bir nimani uqtiradi...

O'roz Qoratoya shivirlab, keyin beparvolik bilan, go'yo o'z-o'ziga so'zlaganday, dedi: "Salim ketgan joyga Hakimni ham jo'natis kerak!" Yo'lchi shu onda O'rozning qo'lini mahkam siqdi: "Hammasing burnidan ip solib tortamiz. Lekin hozir o'z to'yimizdan qolmaylik, yuringlar!"

Politsiya eshigi berk, yashil moy bilan sirlangan yog'och panjaralar oldida tutaqqan xalq qaynaydi. Yigitlar, xotinlar panjaraga tirmashadi. Yo'lchi o'z sheriklari bilan birga panjaralarni buzishga kirishib qoldi. Butun xalq, erkak-ayol, birdan yopirilib, panjaralarni qasir-qusur bilan sindirib tashladi. To'lqin politsiya hovlisining keng sahniga otildi. Shovqin kuchaydi. Odamlar bir-birlarini itarib, qoqilib, zo'r suron bilan oldinga yugurdii; hovlining to'ridagi oq uylarga kelib taqaldi. Uylarning eshiklari, derazalari taqa-taq yopiq. Derazalar orqali pogonli ko'ppaklarning g'azabdan, qo'rquvdan bujmaygan tumshuqlari ko'rindi. Qo'z'olonchi xalqning kin, qahri har lahma kuchaydi, xayqirig'i ko'kni tutdi. Yigitlar mushtlarini ko'tardi, keksalar hassalarini havoga qadadi. Xususan, xotinlarning harakati o'jarroq; haqni talab qilgan, zulmni, zolimlarni la'natlagan ovozları dadilroq; ular yuzlarini ohib, ko'ksilarini kerib, tovushlari bilan, qo'llari bilan zulmga qarshi la'nat yuboradilar.

Xalq tovushi tinimsiz guvillaydi: "Bu yoqqa chiq, itlar!", "Qornilaringni yoramiz, cho'chqalar!", "Bitsin, zolim podshoh!"

Bu - ulug' xalq isyoni, bu - asrlardan buyon davom etgan jabrga, qullikka, kishan-bo'g'ov tuzumiga, bosh turmachi Nikolay saltanatiga qarshi mustamlaka kambag'allarining, kapital qullarining qo'zgoloni, dahshatli zarbasi edi.

Bir rus va bir necha "sart" mirshablar - zulm malaylari ichkaridan yugurib chiqib, so'kib, quturib, olomonni itarishga, orqaga surishga urinisharkan, Yo'lchi "Ur!" deb hayqirdi-da, oviga chang solgan arslondek, mirshablar ustiga tashlandi. Birpasda ikki mirshabni g'isht ustiga ag'darib tashladi. Xalq ham zo'r suron bilan boshqa mirshablarga otildi Yuzlarcha erkak-ayol mushtlarini ostida badanlari dabdala bo'lgan bu ko'ppaklar ichkaridan xalq ustiga yog'ilgan o'qlarning yordami bilan bazo'r qochib, mahkama ichiga yashirina bildilar. Xalq mahkama ichlarini, zinani va derazalarni qurshab oldi. Ayollar tosh va g'isht parchalarini ko'tarib, eshik va derazalarga hujum qila ketdi. Deraza oynalari maydalaniib, qum kabi to'kildi. Ichkariga qamatlib, derazalar orqasida to'pponcha tutib turgan mirshablar, politsiyalar va boshqa to'ralarning harakatlarida benihoya sarosima, qo'rquv... Eshik ochilib, shop mo'ylov, go'shtor yuzidan zahar tomchilagan Machalov bilan birga, uning kabi pogonli, yarog'-aslaliali ikki to'ra zinada qaqqaydi. Ularning ranglari o'chgan, lablari qiyshaygan, ko'zlarida qo'rquv ravshan sezilsa ham, lekin "ojiz, yuvosh sartlar" oldida o'zlarini dadil tutishga, zulm bilan gerdayishga tirishib, qo'llarining keskin harakati bilan xalqqa tinchlanishni buyurishdi. Ulardan biri oq podshohning "oliy irodasi" ni tushuntirish uchun titroq lablari bilan so'zlashga urindi. Ammo ezilgan xalq bu yerga so'z tinglash uchun kelmagan edi. Kinli shovqni yana kuchaydi, odamlar har tomondan toshlar, g'ishtlarni yana yog'dira boshladi. Achchig'i olovlangan bir asl u to'ralardan biriga yopishib, zinadan pastga siltab tortdi. Olomon uni yerga ag'darib, xalq ichiga sudrab ketdi. Bosh yalang, ko'kragi ochiq, ko'zlarini ajoyib chaqchaygan bir yigitcha chaqqonlik bilan uning qilichini qinidan sug'urdi. Naq shu onda, Machalov buyrug'i bilan, zinadan, deraza orqalaridan xalq boshiga o'q yog'ilab boshladi. Mana birin-ketin xotinlar yerga yiqildilar. Biri jimgina qotib qoldi. Biri to'lq'onib, ozg'in qo'llari bilan paranji-chachvonini mijg'alab tortib, g'isht ustida yumalandi. Sersoqol, o'rta yashar, juda juldur kiyimli bir kishi o'ng qo'li bilan chap yelkasini mahkam qisib, og'riqdan ko'zlarini yumbib, sekingina yerga cho'kkaladi: uning barmoqlari orasidan qon tomchilari anor suviday siljib oqdi... Olomon bir zungina cho'chib orqaga tislandi.

Yo'lchi, quloqlari ostida o'q uzilib turarkan, tomirlarida jo'shqin kuch, yuragida yuksak hislarning, orzularning bo'ronini sezdi. Kurash zavqi, nash'asiga to'lgan ko'zlarini bilan xalqqa qaradi. U odamlarning ko'zlarida g'azab yashinining yana kuchliroq yonganini, otuvchilarga qarshi dahshatli adovat mavjlanganini yaqqol ko'rdi. Qoratoyning, yana bir ko'p yigitlarning qo'llarida pichoqlar sovuq yiltiraydi; ayollarning tosh tutgan qo'llari havoga g'olibona ko'tarilgan. Ular boshlaridan chachvonlarini yulib: "Ot, o'ldir! Bola bermaymiz qonxo'r podshohga! Yer yutsin u zolimni!" deb qichqirishadi.

Yo'lchi oldingi qatordagi erkak va ayollar bilan birga hayqirib, yana mahkama sari bosib bordi. Bir nafasgina qotgan xalq to'lqini yana kuchliroq tazyiq va matonat bilan olg'a sapchidi. Navkarlardan biri lahzada majaqlanib tashlanildi.

Politsiyalar, mirshablar yana uylarga qamatlib. Xalq qaynaydi, derazalar orqali ichkariga bosib kirishni ko'zlasa ham, lekin qurol yo'qligidan ikkilanib qoldi. Yo'lchi o'z do'stlarini chaqirib, ichkariga bosqin yasash, iloji bo'lsa, qurol topish uchun tevarakka ko'z yugurtdi. Qoratoy odamlarni bir nimaga undaydi. O'roz tosh yog'dirish bilan mash'ul. Ikkisi ham Yo'lchining tovushini eshitmadni. Yo'lchi ertalab mahalladan o'zi boshlab kelgan yigitlarni ko'rib, sabrsizlik bilan ularga yondashishga tirishdi. Lekin olomon o'rtasida, ixtiyorsiz ravishda, bir minut to'xtab qoldi. Hisobsiz xotinlar ichida, tiquilinchda ko'zi bir qizga tushdi. U, bundagi boshqa ayollar kabi, dam chachvonini butunlay ko'tarib, dam tushirib turadi, bo'ynini cho'zib, to'rt tomonga javdiraydi. Ko'zlaridan oqqan tomicilar quyoshda injuday yonadi. Bu yerda kurashgan sanoqsiz onalar, buvilar orasida yagona qiz, ehtimol, u edi. Yo'lchi birinchi boqishdayoq u qizning chehrasida Gulnoring ruhini ko'rdi; yuz bichimi, ayniqa ko'zlarining ichki ma'nosi va jilvasi Gulnorni yodlatdi. Yigit bir on tikildi-da, ko'zlarini yumi: yuragini o'tkir bir nima chuqr tilib ketdi, go'yo uning butun o'zligini Gulnor xayoli quchdi. Ko'ksida Gulnor qayg'usi og'riq-alam bilan to'lqinlandi: "Qani Gulnor? Qani u jononi? Oh, u yo'q, bunday yigit to'yida, xalqning to'yida yo'q. U yer bag'rida! Bu bir begona qiz, yo yolg'iz akasini, yo mehribon onasini qidirib kelgan. Qani mening mehribonim?" Yo'lchi o'z ichida o'ylarkan, har yoqdan qizg'in, kesik tovushlar eshitdi: "Ana politsmeistr! Cho'chqa Kolesnikov! Ana askarlar... Bo'sh kelmanglar, yigitlar, uraveringlar, shovvozlar!"

Xalqda harakat, hayajon kuchaydi. Yo'lchi suqila-suqila oldinga intildi.

Politseymeystr zinada to'xtadi; uning basharasi yovuz va quturgan edi. Baland bo'yli, paxmoq sochli, dov kazak askarlar xalqni urib, niqtab orqaga surishga tirishdi. Xalq to'lqini, aksincha, olg'a bosdi. Kolesnikov, jahlidan og'zini qiyshaytirib, so'zlashga urindi. U, oq podshohning "oliy farmoniga" bo'yunsunish kerakligini, aks holda, "sartlarga" qarshi o'q va zambarakni sira ayamasligini, onalarning va go'daklarning ko'z yoshlaridan Chirchiqlar yasashga tayyorligini baqirib so'zladi. Ammo, bunga javoban xalqning ovozi gurilladi: "Ur zolimni! Tort bu yoqqa, yanchamiz uni!" Uni ham o'z ichiga sudrab, oyoq ostiga olish uchun erkak va ayollar shiddat bilan qo'llarini cho'zishdi. Politseymeystr sarosimalik bilan to'pponchasini chiqardi. Uning odamlari ham shiddatli ravishda o'q yomg'irini yog'dira ketdi. O'igan, yarador bo'lganlarga qaramay, qo'z'olonchilar katta suron bilan ilgari otilib, "tosh bo'ron"ni kuchaytirdi. Ichkariga bosib kirishga hujum qildi. Bir xotin naq zinaga chiqqan paytda, o'q uni yerga uchirdi

This is not registered version of TotalDocConverter

Yolni hayqirishni kuzuk askariliga sapchon. Bersoql, dov askar bilan olishib ikki musht bilan uni garanglatdi-da, chadpастlik bilan qilichini sug'urib oldi. Bir onda u o'z kuchining o'lchovsiz darajada o'sganini sezdi. Dushman qo'lidan o'ja olingen qilichni - quyoshda oq olov singari yongan qurolni havoga baland ko'tardi. Ichkariga qochayotgan politseymeystrning boshini majaqlash uchun shaxdam yugurdi. Faqat deraza orqasidan uzilgan o'q bilan u tomiri tortishgan, yoki garanglangan odam kabi, bir lahma qotib qoldi, so'ng, qilichni maqkam ushlab, bukchayib, ohisatagina yerga yiqlidi. Bir nafasdan so'ng, ko'zlarini sekin ochdi. Tiniq zangori samo, azamat quyosh uning ko'zlariga kirdi. Qarshidagi daraxtga tirmashib, telefon simini qirquvchi qora choponli bir yigitni - do'sti O'rozni ko'rди... Butun vujudini zirqiratgan dahshatli og'riqdan tishlarini mahkam qisdi. Ammo o'llim bilan kurasharkan so'ngi zarba uchun butun g'azabini, kuchini, irodasini to'pladi-da, bir qo'lini yerga tirab, boshini yerdan uzdi: qaddini rostlar ekan, ko'z oldi qorong'ilashdi, yana sekkingina yerga yiqlidi...

Ko'krakdan oqqan qonga belanib yotsa ham, u fikran, ruhan jangda - kurashda edi: isyonchi, qahramon xalqning o'z odamgarchilagini, o'z hajiqatini tasdiq ettirish uchun zolimlarga ko'krak kergan, musht ko'targan minglarcha o'z og'a-inilarining, otalari, onalarining gulduros ovozi uning qulqlarida guvillaydi.

Kimdir uni quchoqlab, peshanasini silab qichqirdi: - Yo'lchiboy! Og'ang o'lsin! Voy qadrdom, jigarim.

Yo'lchi ko'zini bazo'r ochib Qoratoyni ko'rdi. Uning yosh qaynagan ko'zlariga chuqur do'stlik sevgisi bilan boqib, "yig'lamang" degan kabi imo qildi.

Qoratoy bilan O'roz yigitni avaylab ko'tarib, ushlanib qolmaslik uchun, jo'rttaga xalq ichiga sho'ng'ishdi. Odamlarni kuch bilan, hayqiriq bilan surib, itarib, ko'chaga chiqishdi. Ildamlik bilan "Balandmachit" tomonga yugurishdi. "Devonbegi" mahallasiga qayrilib, bu yerda bir tashlandiq hovliga kirishdi. Bir tomoni bosib qolgan kulbagaga Yo'lchini ohista yotqizishdi: "Inim, qalaysan, suv beraymi?" Qoratoyning savoliga hech qanday javob ishorasi bo'lmadidi, Yo'lchi o'lgan edi...

Ikki do'st Yo'lchining yuzidan, ko'zlaridan o'pib, asta quchoqlab, uzoq, lekin tovushsiz, yurakni parchalovchi bir yig'i bilan yig'lashdi. Keyin Qoratoy o'z belbog'i bilan do'stining engagini tang'idi. O'roz choponini yechib, yerga yoydi, so'ng jasadni ko'tarib chopon ustiga olishdi. Qonli ko'yakni Qoratoy ehtiyyot bilan tilib, yarani ochdi. Yara ko'krakda, yurakka yaqin, undan quyuq qon hali siljib turar edi...

Ikki do'st kulbaning eshigini zikh berkitib, goh Yo'lchining fazilatlaridan sekin-sekii so'zlashib, goh o'zni tuta olmay, achchiq-achchiq yig'lab, kun qorayguncha o'tarishdi.

Xufton vaqtida O'roz bir tanish aravakashning aravasiga bir necha bog' poxol ortib keltirdi. Qorong'ida Yo'lchini aravaga yotqizib, ustiga poxol tashlab, qo'rqinch, tahlila ostida Saodat kampiriikiga jo'nashdi.

Yurtda katta qo'z'olon, otish-tutish bo'lganini eshitgan Unsin, akasidan xavflanib, kechga yaqin temirchining bir o'g'li bilan birga Taxtapulga kelgan edi. Boshqa ayollar singari qo'zg'olonga ancha dadil qatnashib, soat bir-ikkida uyga qaytgan kampir, qizga ko'rgan voqealarini so'zlab-so'zlab bitirolmash edi. Yo'lchining shu vaqtgacha qaytmaganiga ular tashvishlansalar ham, fojeadan xabarlar yo'q va bunday baxtsizlikni esga ham olmagan edilar.

Qoratoy yugurib kirib, shaq-shaq titragan holda: "Zinhor, bazinhor ovoz chiqarmaysanlar", deb yana eshikka yugurgach, Unsin ham, kampir ham harakatsiz, tilsiz qotib qolishdi. Faqat Yo'lchini olib kirib, ko'rpa ustiga yotqizishgach, ular dahshatli haqiqatni anglab, o'zlarini yigit ustiga tashladilar.

Qoratoy O'rozni darrov Shokir otaga yubordi. O'zi ayollar oldidan qimirlamay ularning tovushini o'chirib turdi.

Chiroq shu'lasida, naq tirikligida qanday bo'lsa, shunday sokin, mag'rur, go'zal yotar edi Yo'lchi. U go'yo o'lmagan: ko'zlarini ochmoqchiday, lablari so'zlashga tayyorday. Unsin uchun - bechora qiz uchun, bu qanday falokat, bu qanday mudhish, motam! Sochlarni yilib tashlash, yuzlarini qonatib timdalash uning boshiga ag'darilgan og'ir qayg'uni zarracha yengillashtira biladimi? Ko'z yoshi buloqday qaynagan bilan yurakning hasratini qurita biladimi!

Unsin, sevikli va qayg'uli yagona do'sti, hayotda yagona umidi bo'lgan akasini quchoqlab, qonli yarasiga yuzini, ko'zini surib yota berdi. Na kampirning, na Qoratoyning yolvorishlari, yupatishlari kor qildi, na o'limning sovuq, daf etilmas, mudhish zaruriyatni ta'sir qildi. Unsinni o'z umri Yo'lchining bir daqiqalik umriga nisbatan "hech" edi.

O'roz Shokir otani boshlab kelgach, Qoratoy cholni uuda qoldirib, O'roz bilan birga mozorga, go'rkovga jo'nadi. Agar go'rkov hozir qazishni istamasa, qabrni o'zlar qazish uchun ehtiyyotdan bir ketmon ham olishdi.

Shokir ota Yo'lchining boshiga cho'kka tushib, o'zining og'ir dardli, chuqur yarali qalbi bilan uzoq yig'ladi. So'ng, Unsinni chetga tortib, boshini silab, butun otalik samimiyati bilan taskin berishga tirishdi.

- Qizim, jonim qizim, - yig'i aralash gapirdi chol, - san ko'p o'rtanma. Man so'zlay, san aqli qizsan, hammasini tushunasan.

Yo'lchining o'limi ancha-muncha o'lim emas. Bu juda katta o'lim. Akang, Yo'lchi o'g'lim, nima uchun, kim uchun qon to'kdi? O'zi uchun emas, xalq uchun, yurt uchun, jamiki alamzadalar, alamdiyalar uchun qon to'kdi. Bu qon eng qutlug', eng muborak, eng sof qon... Bunga gumonim yo'q. Qizim, akang mard yigit edi, nomusli yigit edi. Nomus bilan, mardlik bilan o'ldi. U zulm ildiziga bolta urdi. Inshoollo, zulm daraxti quriydi. Yo'lchining qoni behuda ketmaydi, sira behuda ketmaydi. Bu hikmatli qon, qutlug' qon. Unda sir ko'p. Keyin tushunasan, qizim. Man o'lib ketsam, bir vaqt o'zing: "Ha, Shokir otam shunday degan edi", deb yodlarsan. Yo'lchi o'g'limning qoni qutlug', uni yuzga, ko'zga surish kerak... - chuqur xo'rsinib davom etdi chol, - kuyma, qizim. Mana, man otang, ana kampir onang, qishloqda akang bor, yana Qoratoydek mard og'ang bor... Hammamiz sanga mehribonmiz. Durust, Yo'lchiboy er o'g'li - er edi, u boshqa olamdan edi. Lekin o'limi ham ulug' bo'ldi. Buni yaxshi tushun, qizim!"

Unsin bir vaqtlar Gulnor bergen uzukni akasiga hali topshirmagan edi. Uni cho'ntagidan chiqarib, o'pa-o'pa Yo'lchining jimjilog'iga taqdi. Uzuk barmoqning yarmiga ilindi. Qiz bardosh qila olmadi, o'zini yerga otdi.

Qoq yarim kechada Yo'lchini tobutga solib, hovlida uch kishi - Shokir ota, Qoratoy, O'roz - janoga o'qishdi. Boshqa odam yo'qligidan va kechasi mahalladan yigitlarni chaqirish ancha xavfli bo'lganidan, Qoratoy bilan O'roz o'z kuchlariga ishonib, tobutni ko'tardilar. Saodat kampirni zo'r bilan uyda qoldirishdi. Tobut orqasidan Shokir ota va Unsin ketdi...

Og'ir qorong'ilik, chuqur va ezuvchi jimjitolikda ikki do'st uchinchi do'stini qabrga qo'ydi, so'ng zolimlardan albatta qasos olish uchun ond ichib, tuproqni qucha-qucha yig'lashdi. Keyin chol va Unsin bilan xayrashib, vaqtincha yashirinish uchun, qayoqqadir jo'nab ketishdi.

Unsin qabr tuprog'iga goh boshini, goh ko'ksini qo'yib, o'lchovsiz, nihoyasiz qayg'u bilan uzoq yig'ladi. Yulduzlar.

AvvalgiIII- qismB Keyingi